

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Turakulova Oqila Amirkulovna**

**ADABIY TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR  
MUTOLAA MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Monografiya**

**TOSHKENT– 2023**

**UO‘K: 894.375:371.3**

**KBK: 74.261.8**

**T 95**

Turakulova Oqila Amirkulovna.

Adabiy ta’limda o‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi [Matn]: monografiya / O.A. Turakulova. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022”, 2023. – 112 b.

Mazkur monografiyada adabiy ta’limda o‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, metodik xususiyatlari aniqlashtirilib, loyihaviy faoliyatga asoslangan texnologiyasi, o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi, dars va darsdan tashqari shakllari, usullari, loyihaviy ta’limning o‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari va loyiha ta’lim texnologiyasi asosida adabiy kechalarni tashkil etish metodikasi tadqiq etilgan.

Monografiya adabiyot fani o‘qituvchilari, pedagogika oliy o‘quv yurtlari, pedagogika bilim yurtlari talabalari va tadqiqotchilari, akademik litsey va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**E.B.Eshmatova** – TDIU O‘zbek tili va adabiyoti sektorining dotsenti v.b.

**R.Niyazmetova** – ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyoti ta’limi kafedrasini mudiri, p.f.d., prof.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy texnikaviy kengashining 2023-yil 4-noyabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya berilgan.

**ISBN 978-9910-9614-5-8**

© **Turakulova O.A.**

© **“BOOK TRADE 2022” nashriyoti, 2023.**

## SO‘Z BOSHI

Jahon miqyosida bugungi kunda o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga erishishda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish, mutolaa sohasida dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiypedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlarda zamonaviy sharoitda asosiy e‘tibor kutubxona axborot tarmoqlarini rivojlantirish, aholi, shu jumladan, o‘quvchi-yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni orttirishning innovatsion shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Dunyoda o‘quvchilar o‘rtasida individual, guruhviy hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil etish va mutolaa madaniyatini tarbiyalash, o‘quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirishning, motiv va mezonlarini aniqlash, adabiy ta‘limning badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni va rolini oshirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o‘spirinlarning kitob o‘qishga, badiiy adabiyotga aksiologik munosabatini shakllantirish, adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda badiiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda mustaqil o‘qish malakalarini tarkib toptirish hamda adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga alohida zarurat mavjud.

Respublikamizda kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, aholi, xususan, yoshlarda kitob o‘qish hamda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, kitob mutolaasini kundalik faoliyatga aylantirishga erishishga doir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Mumtoz adabiyot va kitobxonlik madaniyati” deb nomlangan madaniy ma‘rifiy tadbir doirasida yoshlarni kitobning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolot dagi o‘rni, ahamiyatini anglash bilan birga, badiiy asarlarni tanlash, ularning asosiy g‘oyasini tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq,qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi vazifalar belgilab berildi.<sup>1</sup>

Bu esa, adabiy ta'lim jarayonida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, metodik xususiyatlarini aniqlashtirish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish asosida o‘quvchilarda mustaqil mutolaa malakalarini tarkib toptirishning metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqish bugungi kun talabi. Dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim tizimiga “reader response” (kitobxon javobi), student-centered” (o‘quvchi faol) kabi yondashuvlar joriy etilgan. Badiiy asarning yaxlit adabiy- estetik xodisa sifatidagi ma’no xosliklarini kashf qilish, o‘quvchi faolligini oshirish,kreativlik, mantiqiy hamda tanqidiy mushohada yuritish kabi mutolaa san’atini egallshga doir strtegiyalar ishlab chiqarilmoqda. Xalqaro miqyosda ta’limda pragmatizm, retseptev estetika va uning zamiridagi tranzaksiya nazariyasi ( kitobxon va asar diologi)ni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning badiiy asarda tasvirlangan voqelik mohiyatini real hayotiy asoslari bilan qiyoslash, matnni emotsional idrok etish, obrazli va analitik fikrlash malakalarini shakllantirshga qaratilgan yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.<sup>2</sup>

Ta'lim oluvchilarni bilim olish, kitob o‘qishga qiziqtirish, intellektini rivojlantirishning tarixiy asoslari Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari, ma'rifatparfar shoirlar va jadid olimlarining mumtoz asarlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida yoritib berilgan.

Adabiy ta'lim jarayonini tashkil etish, adabiyot o‘qitishning turli jihatlari respublikamiz olimlaridan M.Mirqosimova (o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish), B.To‘xliev (adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi), Q.Yo‘ldoshev (adabiyot o‘qitishning nazariy-ilmiiy asoslari), S.Matchanov (adabiyot darslarida

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. 6-сон, 70-модда

<sup>2</sup> S.Qambarova.Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish: Avtoref.Diss p.f.n. – Toshkent,2019.

o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish)<sup>1</sup>, R.Niyozmetova (uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi), Q.Husanboeva (adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish), A.Bolibekov (o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirishda sinfdan tashqari o'qishning o'rni)<sup>2</sup>, S.Qambarovalar (umumiy o'rta ta'lim tizimi adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish) ning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'quvchi-yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishning sotsiologik, kutubxonashunoslik, psixologik va pedagogik omillari E.Yo'ldoshev (kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish), A.Umarov (komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli), Y.Qayumxo'jaeva (mustaqillik davrida maktab kutubxonalarida kitobxonlik masalalari), A.Abdulazizov (mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonining sosiologik tahlili), D.G'anieva (o'quv jarayonining metodik ta'minotida kutubxonachi va o'quv fanlari o'qituvchilari hamkorligi), S.Chinievalar (o'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar madaniyatini shakllantirish) tomonidan yoritib berilgan.<sup>3</sup>

O'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish bilan bog'liqlikda respublikamiz olimlaridan A.Abdulazizov tomonidan akademik lisey o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirishning sotsiologik tahlili, S.Qambarova tomonidan umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini

---

<sup>1</sup> Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 112 б; Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 192 б; Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 157 б; Матчон Сафо. Китоб ўқишни биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 140 б.

<sup>2</sup> Ниёзметова Р.Х. Узлуksиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан., 2007. – 215 б; Хусанбоева Қ.П. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 365 б; Болибеков А.А. Адабий таълим орқали ўқувчилар ахлоқий фазилатларини такомиллаштиришда ҳадислардан фойдаланиш: Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.

<sup>3</sup> Йўлдошев Э. Кутубхонада болалар ўқишига раҳбарлик қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 128 б; Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Социология фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – 56 б; Қаюмхўжаева Ё. Ўқувчиларнинг китобxonлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Тошкент: ТДМИ, 2007. – 48 б; Ғаниева Б.И. Бошланғич синф ўқувчиларида кутубxonачилик библиография билимлари тарғиботи. – Тошкент, Фан ва технологиялар маркази, 2006. – 34 б; Чиниева С.А. Ўзбек oilalarida китобxonлик воситасида ўсмирлар маданиятини шакллантириш. – Тошкент, 2006. – 26 б.

shakllantirish texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan V.Asmus, N.Bodrova, S.Gurevich, N.Zbarovskaya, T.Kaptan, E.Karsalova, V.Koxanova, S.Lavlinskiy, S.Pribilix, E.Suvorova, D.Xafizovlar o'qish mehnat va ijod ekanligi, adabiyotdan sinfdan tashqari darslarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi, adabiyot o'qitish jarayonida o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish, o'quvchilarning kitobxonlik faoliyatiga rahbarlik qilishning metodik asoslari, adabiyot o'qitish texnologiyasi, adabiyot o'qitish jarayonida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlarini shakllantirish, yoshlarning kitobxonlik faolligini oshirishning ijtimoiy-madaniy jihatlari, ommaviy kutubxonalarda o'qish madaniyatini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.<sup>1</sup>

Xorijlik olimlardan G.Westhoff, J.Grzesik, S.Ehlers, H.Willenberg, A.Burns, L.J.Dorn, S.Ehlers, G.Genette, E.Ortlieblar tomonidan mutolaa jarayonini tashkil etish turlari va shakllari (totales – o'rganuvchi, kursorisches – tanishishga doir, orientierendes – izlanishga doir), turli tavsifga ega matnlarni o'qishda yuzaga keladigan qiyinchilar, mutolaa madaniyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar maxsus o'rganilgan.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Асмус В.Ф. Чтение как труд и творчество // Вопросы теории и истории эстетики. – М., 1999. – С.62-72. Бодрова Н.А. Методика организации и проведения уроков внеклассного чтения по литературе в старших классах средней школы. – Москва: Просвещение, 1991. – 353 с. Гуревич С.А. Организация чтения учащихся старших классов. – Москва: Просвещение, 1994. – 206 с. Збаровская Н.В. Формирование культуры чтения в общедоступных библиотеках: Дисс...канд.пед.наук. – СПб.: 1997. – С. 156. Каптан Т.Н. Формирование духовных потребностей старшеклассников в процессе урочной и внеурочной деятельности (На опыте изучения литературы): Дис. ...канд. пед. наук. – Москва, 1995. – 173 с. Коханова В.А. Технологии и методики обучения литературе: учеб. пособие для бакалавров / ред.: В.А. Коханова. 2-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2016. – 249 с. Лавлинский С.П. Технология литературного образования. Коммуникативно-деятельностный подход: Учеб. пос. для студентов-филологов. М.: Прогресс-Традиция; ИНФРА-М, 2003. – 384 с; Лавлинский С.П. Технология литературного образования. Коммуникативно-деятельностный подход: Учеб. пос. для студентов-филологов. М.: Прогресс-Традиция; ИНФРА-М, 2003. – 384 с; Прибылых С.Р. Формирование читательских интересов учащихся старших классов в процессе преподавания литературы: Дис. ... канд. пед. наук. – Якутск, 2004. – 173 с.

<sup>2</sup> Westhoff G. Fertigkeit Lesen. Goethe-Institut, Muenchen, 1997. – 176 p; Grzesik J. Textverstehen lernen und lehren. Stuttgart Klett, Verlag fur wissen und Bildung, 1991. – 405 p; Ehlers S. Lesen als verstehen. Zum verstehen fremdsprachlicher literarischer texte und zu ihrer didaktik. Gesamthochschule Kassel (Chk), 1992. – 112 p; Willenberg H. Zur Psychologie literarischen Lesens. Paderborn, 1998. – 300 p; Burns A. Reading practices: From outside to inside the classroom // TESOL Journal. 2003. – No12 (3). – P.18–23; Dorn L.J., Soffos C. Teaching for deep comprehension: A reading workshop a approach. Portland, ME: Stenhouse, 2005. – 200 p; Ehlers S. Lesen als verstehen. Zum verstehen fremdsprachlicher literarischer texte und zu ihrer didaktik. Gesamt-hochschule Kassel (Chk), 1992. – 112 p; Genette G. Paratexts. Thresholds of Interpretation. (tr. J.E.Lewin) Cambridge: CUP, 1997. – 453 p; Ortlieb E. Theoretical Models of Learning and Literacy Development. Emerald Group Publishing, 2014. – 280 p.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning loyihaviy faoliyatga asoslangan texnologiyasi, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi, dars va darsdan tashqari shakllari, usullari, loyihaviy ta'limning o'quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari va loyiha ta'lim texnologiyasi asosida adabiy kechalarni tashkil etish metodikasi masalalari maxsus o'rganilmagan.

# **I BOB. O‘QUVCHILARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1-§. O‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida**

Bugungi kunda mamlakatimizda 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jamiyatni har tomonlama rivojlantirishda kitob mahsulotlarini chop etish, tarqatish, aholi o‘rtasida kitob mutolaasini keng targ‘ib etish, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo‘lida turkum amaliy ishlar olib borilayapti. Bu boradagi tizimli ishlarning asosini esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori tashkil etadi.<sup>1</sup>

Qarorda jamiyatda kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, aholi, xususan, yoshlarda kitob o‘qish hamda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, kitob mutolaasini kundalik faoliyatga aylantirishga erishish mohiyatini yorituvchi muhim vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-4354-son

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобxonлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги Қарори / “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 13 сентябрь.



Qarorida esa, “Kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish (shu jumladan, pulli xizmat ko‘rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish; axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta‘minlash; jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.<sup>1</sup>

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda 5 ta muhim tashabbus ilgari surilib, shulardan to‘rtinchisi – yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchi-yoshlarda kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish maqsadida “Ma‘rifat karvoni” loyihasi doirasida badiiy, ma‘rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do‘koni tashkil etish, ko‘chma kitob do‘konlarini joylashtirish, “Bibliobus”larni yo‘lga qo‘yish kabi qator vazifalar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ommaviy kitob o‘qishga jalb etish bo‘yicha sezilarli ishlar olib borilayapti. XX asrning oxirlariga kelib kitobxon yoshlarning kamayib ketishi kabi illatni bartaraf etish ishlari shunchalik tez amalga oshirilyaptiki, vatandoshlarimiz qanday qilib kitoblar sotib olishni va kitob o‘qishni boshlaganini o‘zlari ham sezmay qoldilar. Lekin bajariladigan ishlar hali ko‘pligini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида” ПҚ-4354-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.06.2019 й., 07/19/4354/3275-сон.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Bo‘ka tumanida tashkil etilgan “Madaniyat va ma'rifat ekoparki”dagi kutubxonada O‘zbekistonda kitobxonlik haqida “Hududlarga kitob etkazib berish yaxshi. Lekin ularni o‘qish, o‘qitish etarli darajada emas. Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar qilib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi”,-deb ko‘rsatib o‘tdi.

Kitob o‘qish – insoniyat o‘ylab topgan eng ajoyib xodisalarning biri. Buning natijasida odamning ma'naviy dunyosi boyib, insoniylik fa-zilatleri ortib boradi. Shu sababli kitob o‘qish har kim uchun juda muhim bo‘lib, kitob tezkor o‘ylashga, sezish qobiliyatlarimizni rivojlantirishga o‘rgatadi.

Kitob bilan ishlashni bilmaslik ba'zi birovlarining kitobga qiziqishini yo‘qotsa, ba'zilarning o‘ylanmasdan qo‘liga nima tushsa, shuni o‘qishiga olib keladi. Bu kitob o‘qish madaniyati pastligini ko‘rsatadi.

Davlat ta'lim standarti, zamonaviy jamiyatning talablariga javob beradigan shaxs va axborot oqimlarida erkin xarakat qilish; konstruktiv muloqot o‘rnata olish, hamkorlik qilish, hayot faoliyati davomida o‘quv- biluv vazifalarini samarali hal etishni tarbiyalash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu fazilatlarga, o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish, o‘qish va kitobxonlik madaniyati shakllansagina, ega bo‘lishi mumkin.

“Mutolaa madaniyati” tushunchasi keng ma'noda qo‘llaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalana bilishdan to ijodiy o‘qish, kitob muallifiga oshno bo‘lib, uning asarini chuqur tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi<sup>1</sup>.

Kitob o‘qish madaniyati juda keng tushuncha bo‘lib, bu haqidagi fikr-mulohazalar Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston

---

<sup>1</sup> Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Социология фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – 56 б; Бебаҳо хазина. Методик-библиографик кўлланма. Тузувчи Н.Алаутдинова. – Тошкент: Алишер Навоий номли Ўзбекистон Миллий кутубнаси нашриёти, 2007. – 40 б

Milliy kutubxonasi tomonidan 2007 yili nashr etilgan “Bebaho xazina” nomli metodik-bibliografik qo‘llanmada keltiriladi:

1. Kitob tanlab olish.
2. Kitobni qanday o‘qishni bilish.
3. Kitob o‘qiganda nimalarga e’tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish.
4. Kerakli ma'lumotlarni qaerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish.
5. Olingan bilimni yoki xabarni qanday etkazib berish.
6. Qayta o‘qish – kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish.
7. Kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish.
8. Kitobni tez va sekin o‘qishni farqlay olish.
9. Kitobni o‘qib, uning fusunkor olamiga kira bilish.
10. Kitobni mustaqil o‘qiy bilish.

Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, o‘qish madaniyati – bu ongli ravishda mavzularni tanlash, muntazam va izchil o‘qishni o‘z ichiga olgan kitob bilan ishlash ko‘nikmalar majmui, shuningdek, bibliografik vositalar yordamida kerakli adabiyotlarni topish hamda lug‘at hamda bibliografik apparatdan foydalana olish, o‘qilganlarni o‘zlashtirish va qabul qilishning (tezis yozish, konspekt qilish, annotasiya yozish, taqriz yozish) samarali uslublarini qo‘llash, kitobni avaylab-asrash malakalaridir.

Mutolaa madaniyati o‘quvchiga o‘qiyotgan asarini to‘laqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar g‘oyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari, kitob va kutubxonadan foydalanish, ma'lumotnoma-bibliografik apparatidan o‘zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Kitob tanlash, uni tez o‘qish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitobxonlik madaniyatining tarkibiy qismlariga kiradi.

Tahlillar natijasida o‘rganilayotgan muammoga doir tushunchalarni quyidagi tarzda tizimlashtirishga xarakat qildik:

1. Kitobxon qiziqishi – bu kitobxonning hissiy jihatdan o‘ziga jalb etadigan yoki unga qaysi bir aspekti muhim bo‘lgan bosma asarlarga ijobiy munosabatidir.

Qiziqishi asosida kitobxon badiiy matnlarni o‘zlashtirish ishini o‘zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

2. O‘qish madaniyati matnni idrok qilish, uni tushunish va asarni talqin qilishni o‘z ichiga oladi va idrok darajasi o‘quvchining o‘qish tajribasi va adabiy saviyasi bilan belgilanadi. O‘qishning yuqori darajasi ijodiy his-tuyg‘ular, yangi obrazlar va yangi haqiqatni yaratish, muallif bilan muloqot qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Olima B.I.Ganieva “o‘qish madaniyati”ning tarbiyaga oid elementlarini qo‘yidagicha belgilagan:

- o‘qishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyoqni shakllantirish;
- o‘qilgan kitob orqali fikrlash yo‘llarini o‘rgatish;
- zehn va uquvni tarbiyalash;
- mavjud kitobxonlik malakalarini takomillashtirish<sup>1</sup>.

Professor E.Y.Yo‘ldoshev: “O‘qish madaniyati – juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi”<sup>2</sup>, - deydi. Shu munosabat bilan aytadigan bo‘lsak, badiiy matnni o‘qish madaniyatini rivojlantirish ta’limning asosiy maqsadi bo‘lishini insonning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zida ezgu ma’naviy qadriyatlar shakllanishida muhim qadamdir.

O‘quvchilarda o‘qish madaniyatini boshlang‘ich sinfdan boshlab shakllantirib borish kerak. S.N.Plotnikov o‘spirin yoshidagi bolalarda o‘qish madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi mezonlarni belgilaydi:

- bolalarda kitobga qadriyatli munosabatni yaratish jarayoni;
- qiziqqan kitobini izlab topish va tanlash qobiliyati;
- o‘qiganlariga hissiy munosabatda bo‘lish qobiliyati;
- badiiy matnni estetik jihatdan his qilish imkoniyatlari;
- o‘qigan asarlaridan qimmatli va ma’noli ma’lumotlarni topish;
- o‘quvchilarda o‘qish ehtiyojlarini shakllantirish<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Ганиева Б.И. Кутубхоналарда болалар ўқиш маданиятини тарбиялашнинг педагогик имкониятлари. Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 160 б

<sup>2</sup> Йўлдошев Э. Кутубхонада болалар ўқишига раҳбарлик қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 128 б

<sup>3</sup> Плотников С.Н. Читательская культура в России//Ното legends: памяти С.Н. Плотникова: сб.науч.тр. – Москва, 1999. – С. 46-58; Матчон Сафо. Китоб ўқишни биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 140 б; Тўхтабоев Х. Болалар адабиётига чанқоқлик // Болалар олами: Тўплам. К.2. – Тошкент, 1989. – Б. 20-25.

O‘qish madaniyatini o‘zlashtirish natijasida “kitobxonlik madaniyati” shakllanadi. Kitobxonlik madaniyati o‘qish madaniyatiga qaraganda keng ma'nodagi, ko‘ptomonlama, katta hajmdagi tushunchadir.

3. Kitobxonlik madaniyati bu adabiy asarlarni tushunish va estetik jihatdan baholashni biladigan kitobxon-o‘quvchini shakllantirish jarayonidir.

Safo Matchon fikricha, “kitobxonlik – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya'ni maqsadli o‘qishdir”<sup>1</sup>

Atoqli yozuvchi X.To‘xtaboev kitobxonlik haqida shunday deydi: “Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir”

Olimlarning fikriga tayanib aytadigan bo‘lsak, kitobxonlik madaniyati – bu 1) o‘quvchining kitob bilan madaniy aloqasini rivojlantirishning ma'lum bir darajasi; 2) o‘qilgan kitoblar mazmunini to‘liq tushunish; 3) yoshiga hos bo‘lgan adabiy bilimlarning mavjudligi.

4. Kitobxonlik kompetentligi – intellektual qobiliyat va shaxsiy fazilatlar asosida shakllangan, o‘quvchi va katta yoshli insonning umumiy shaxsiy sifati.

Sotsiolog S.N.Plotnikov kitobxon o‘quvchining intellektual rivojlanishidagi asosiy belgilarni qo‘yidagicha ko‘rsatib beradi: faol tarzda o‘qiydigan o‘quvchilar muammolarni toifalarga ajratib fikrlash, yaxlitlikni bilish va voqealarning orasidagi qarama-qarshiliklarini aniqlash; vaziyatni yanada to‘g‘ri baholash va to‘g‘ri yechimlarni tezroq topish; ko‘proq xotira va faol ijodiy tasavvurga ega bo‘lish; yaxshi nutqga ega bo‘lish; muloqotga oson kirishish va suhbatdagi yoqimlilik; mustaqillikka va ichki erkinlikka katta ehtiyoj sezish, o‘zining fikrlariga va xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lish qobiliyatga ega bo‘ladilar. Buning uchun jamiyatda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqei hamda ahamiyatini saqlash muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> Матчон Сафо. Китоб ўқишни биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 140 б.

Avvalo, yoshlarimiz badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni o'qishi, o'rganishi milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini mutolaa qilish lozim.

5. Mutolaa madaniyati. "Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish", "o'rganish", "diqqat bilan o'qish", o'qib tushunib olish" degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda mutolaa kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani bildirishini olim A.Umarov qo'yidagicha ta'riflaydi: "Ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yunaltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalardir"<sup>1</sup>. Olim, shuningdek, mutolaa madaniyatining tarkibi bo'lgan mutolaa darajasining bosqichlarini ham ko'rsatib beradi:

- birinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeaning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi;

- ikkinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini hamda syujetni anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat qila olish qobiliyatini namoyon qiladi.

- uchinchi darajada o'quvchi matnga va unda hikoya qilinayotgan voqeaga o'zining mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi hamda asar epizodlarini tahlil qila oladi.

- to'rtinchi darajada o'quvchi matning mazmunini to'la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi. Voqea qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, o'z munosabatini shakllantiradi<sup>2</sup>.

Kitob mutolaasi haqida Gyote shunday fikr bildiradi:

a) nihoyatda mashaqqatli (darhaqiqat, kitob mutolaasi kishidan qunt va sabr, kuchli xotira va yuksak fahm talab etadi);

---

<sup>1</sup> Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyni ta'minlash va komil inson шахsini shakllantirishda mutolaaning roli. Социология фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – 56 б.

<sup>2</sup> Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyni ta'minlash va komil inson шахsini shakllantirishda mutolaaning roli. Социология фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – 24 б.

b) beqiyos sharaflı (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyoqarashi o‘sgan, ma‘naviy jihatdan yuksalgan);

v) huzurbaxsh (aks holda, kitob mutolaasi bilan muttasil shug‘ullanmagan bo‘lardi) <sup>1</sup>.

Mutolaa madaniyati – o‘quvchilarning kitob o‘qishga qiziqish va ehtiyojlarini tarkib toptirish, badiiy asarlarni tahlil etish va xulosa chiqarish, axloqiy va estetik ideallarni shakllantirishga qaratilgan yaxlit jarayon. Demak, mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg‘unlashish, ma‘naviy foyda olishga yunaltiradi. Doris Lessing so‘zi bilan aytganda, “Mutolaa insonni to‘ldiradi!” – deyishadi, darhaqiqat, u insondagi bo‘shliqlarni zarur ilmlar bilan to‘ldiradi <sup>2</sup>.

Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga erishishda davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo‘nalishda dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish an‘ana tusini olmoqda<sup>3</sup>.

Xorijiy davlatlarda kitob o‘qishning bunday innovasion usullari jamiyatda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi. Davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki aholini, ayniqsa, yoshlarni mutollaga qiziqishini oshiradi.

Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosiy e‘tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an‘anaviy va zamonaviy kitoblar hamda kitob mahsulotlari bilan boyitish, aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibotning innovasion shakl, metod va vositalarini yaratishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> Йоханн Петер Эккерман. Гёте билан гурунглар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2012. – №12. – Б.68-93.

<sup>2</sup> Лессинг Д. Золотая тетрадь. – СПб.: Амфора, 2009. – 734 с; Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук. культурологии. – Челябинск: 2017. – 27 с; Чтение. 10 советов, как привить ребёнку любовь к чтению и книгам // [https://mel.fm/chteniye/9635178-to\\_like\\_to\\_read](https://mel.fm/chteniye/9635178-to_like_to_read).

<sup>3</sup> Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук. культурологии. – Челябинск: 2017.- 17 с

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasida global axborotlashuv muhitida aholi, xususan, yoshlarda kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishga qaratilgan keng ko‘lamli ijtimoiy harakatlar negizida targ‘ibotning innovasion vositalarini izlash etakchi o‘rin tutadi. Ayni o‘rinda bir qator davlatlarning bu boradagi tajribalarini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiq sanaladi.

AQSh kitob nashr etuvchilari Kengashining vakili bo‘lgan Patrika Jurning qayd etishicha, Amerikada kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish yo‘lida amalga oshirilgan choralardan biri – kitob o‘qilayotgan holatni ifodalovchi reklama plakatlarida taniqli shaxslar qiyofasining berilishi sanaladi <sup>1</sup>.

Xorijiy davlatlarda bunday chora-tadbirlar jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirishning muhim jihatlarini aks ettirib, milliy tajribada keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Janubiy Koreyaning Seul shahrida “Kitob o‘qishni rivojlantirish va uning kitob bozoriga ta’siri” nomli kitob ko‘rgazmasida “Chu San Deyli” gazetasining muxbiri Kim Ki Chul xonadonlardagi mehmonxonani kutubxonalarga aylantirish kitobxonalar sonini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tadi. Kim Ki Chulning taklifi ham ancha e’tirofga loyiqdir, chunki xonadonda oila a’zolari ko‘p bo‘sh vaqtlarini birgalikda aynan uyning mehmon kutadigan zalida o‘tkazishadi. Oilalarga xonadonlarning mehmon kutadigan zallarida qulay va shinam kutubxona tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berib borilishi lozim.

So‘nggi yillarda yuzaga kelgan yangi internet hodisa – chellenj (ingl. “challenge” – da’vat) ham aholi, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qish va kitobxonlik g‘oyalarini axborot texnologiyalari orqali keng targ‘ib etishda alohida o‘rin tutmoqda. Chellenj – o‘yin shaklidagi bahsning qandaydir harakatlar asosida amalga oshirishni taklif qilish hisoblanadi. Ayni vaqtda yoshlarning kitobxonlik faoliyatini kuchaytirish, rag‘batlantirish maqsadida “nashriyotlar, kitob

---

<sup>1</sup> Чтение. 10 советов, как привить ребёнку любовь к чтению и книгам // [https://mel.fm/chteniye/9635178-to\\_like\\_to\\_read](https://mel.fm/chteniye/9635178-to_like_to_read)



do'konlari, ijtimoiy tashkilotlarning tashabbuslariga muvofiq chellenj yo'lga qo'yilmoqda"<sup>1</sup>.

Jamiyat va shaxs kitobxonligi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari ham kitob o'qish katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun yanada ijobiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. AdMe.ru saytida e'lon qilingan ma'lumotlar ushbu fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Keltirilgan ma'lumotlar sirasida kitob o'qishning bolalar va o'spirinlarning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham mavjud. Chunonchi, kitob o'qish: asabni tinchlantiradi (Sasseks universiteti (AQSh) olimlarining yondashuvlariga ko'ra, kitob o'qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga bor-yo'g'i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi); hissiyotlarni (xuddi duo yoki she'r o'qish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar o'qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunadi); miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko'paytiradi (Emori universiteti (AQSh)ning tadqiqotchilariga ko'ra, kitob o'qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'ladi); kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSh) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko'p kitob o'qigan shaxslarning aksariyati she'r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlarni, ayniqsa, she'rlarni ifodali o'qish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega); ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni o'stiradi; xorijiy tillarni o'rganishni osonlashtiradi (boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi); ko'p kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi; yaxshi hikoyanavisga aylanadi (qancha ko'p kitob o'qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi), otanonalar va farzandlarning o'zaro munosabatlari yaxshilanadi <sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук. культуралогии. – Челябинск: 2017. – 20с.

<sup>2</sup> Китоб ўқишининг 21 фойдаси // <https://zamin.uz/life-style/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html>.

S.A.Denisovaning tadqiqotida bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari o‘rganiladi. Muallifning e’tirof etishicha, qachonki oilaning katta yoshli a’zolari kitobxon bo‘lsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqelik, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a’zolari tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma’lumotlar o‘zaro o‘rtoqlashilsa, uning juda ham qizilarli ekanligi e’tirof etilsa, bolalarda ham kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi.

Muallifning fikricha, yoshlikdan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat kishining butun hayoti davomida o‘z izini qoldiradi. Qolaversa, bu o‘rinda uy kutubxonasining tashkil etilishi ham kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish uchun sharoit yaratadi.

S.R.Pribilix tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o‘quvchi-yoshlar va umuman, aholi o‘rtasida kitobxonlik malakasi va madaniyatini shakllantirishda davlatning o‘ziga xos o‘rin tutishiga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchi davlatning bu boradagi roli quyidagi uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi: 1) oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglarni to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatishdan iborat; 2) ota-onalar o‘rtasida ma’rifiy targ‘ibotni tashkil etish; 3) bolalar yozuvchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. Mazkur fikrlarga qo‘shilgan holda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Mutolaa madaniyati asoslari” maxsus kursini o‘qitish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va akademik liseylarda “O‘qish va matnni tushunish savodxonligi” bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

G‘arbiy Avstraliyada o‘spirinlarning badiiy asarlarni o‘qish holatlarini o‘rganish (WASABR) natijalari o‘qituvchilar va ota-onalarning ko‘magi mazkur yosh toifasidagi shaxslarning doimiy, izchil ravishda kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatlarini barqarorlashuvini ta’minlaydi. Merga M.Kristin bu o‘rinda o‘qituvchi va ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etadi: o‘quvchilarni maktab yoki bolalar kutubxonasiga olib borish, mustaqil o‘zi o‘qishni xohlagan kitoblarni tanlash va uyga olib ketishni taklif qilish; bolalarga ovoz chiqarib o‘qishlariga qarshilik qilmaslik (chunki

bunday o‘qish ularga yoqadi); kitob tanlash usullarini o‘rgatish (bu boshlang‘ich sinflarda o‘rgatilgan bo‘lishi kerak, deb o‘ylamang); kitob o‘qish va kitob o‘qishga qiziqishda ularga namuna bo‘lish; o‘quvchilar qaysi kitoblarni o‘qiyotganliklari bilan qiziqqan holda ular bilan tanishish orqali bolalar bilan muloqotda bo‘lish; mavularni cheklamagan holda uyda va maktabda kitoblar to‘g‘risida o‘smirlar bilan suhbatlashish; o‘smirlarning hissiy ta'sirlanishlari: asarning ijobiy qahramonlarini yoqtirish, salbiy personajlaridan nafratlanish, asarni yarmini o‘qigan joyda tashlab ketish va sevimli asarlarni qayta o‘qish kabi harakatlarini qo‘llab-quvvatlash (o‘ta qiziquvchan kitobxon qanday bo‘ladi, mazusida suhbatlashish); zarur yumushlarni chetga surgan holda zavqlanish uchun kitob o‘qish amaliyotining amaliy qiymati to‘g‘risida hikoya qilib berish; o‘spirinlarni shunchaki elektron qurilmalar bilan qurollantirishing o‘zi ularda o‘z-o‘zidan qiziqishni yuzaga keltiradi, deb o‘ylash mumkin emas<sup>1</sup>.

E.Perrinning “Kitob o‘qish – 2016” (“Book Reading – 2016”) nomli ishida qayd etilishicha, amerikaliklar orasida elektron kitoblar qanchalik ommalashganligiga qaramay, bosma kitoblar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda ularga nisbatan yetakchi o‘rinni egallamoqda. Pyu tadqiqotlar markazi (Pew Research Center)ning o‘rganishiga ko‘ra, amerikaliklarning kitob o‘qish bo‘yicha hissasi 2012 yilda (73%) 2011 yildagina nisbatan deyarli o‘zgarmagan. So‘nggi bir yil (2012 yil ma'lumoti)da AQSh aholisining 65%i bosma, 28%i (2011 yilga qaraganda uch marta ko‘p) elektron, 14%i esa audio kitoblarni o‘qishga muvaffaq bo‘lgan. Amerikaliklar o‘rtacha (o‘rta hisobda) yiliga 12 tadan kitob o‘qiydi, xuddi shu vaqt oralig‘ida o‘rta tabaqadagi amerikalik 4 ta kitobni bir yilning so‘nggi oyida o‘qigan. Kollejlarning bitiruvchilari o‘rta ta‘lim maktablarini tamomlaganlarga nisbatan taxminan to‘rt marta ko‘proq elektron, ikki marta ko‘proq bosma va audio kitoblarni o‘qiydi. 2011-2016 yillarda kitobxon amerikaliklar orasida planshetlarda foydalanuvchilar soni to‘rt marta (4%dan 15% ga), smartfonlar orqali o‘qiydiganlar soni ikki barovar (5%dan 13 %gacha) oshgan.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, turli yoshdagi amerikaliklar orasida: 84%i o‘zlarini qiziqtirgan aniq mavzularga oid, 82%i

---

<sup>1</sup>Kristin Merga M. How to get teenagers to read? //https://theconversation.com/how-to-get-teenagers-to-read-42757.

jamiyatda kechayotgan o'zgarishlardan ortda qolmaslik (ularning 47%i deyarli har kuni), 80%i kitobdan zavq olish (ularning 35%i deyarli har kuni), 57%i ish joyida yoki maktablarda (ularning 31%i deyarli har kuni) kitobxonlarni tashkil etadi.

Amerikalik tadqiqotchi Moyer E.Djessikaning "Bugun o'spirinlar kitob o'qimay qo'yishdi". Kitob o'qishga munosabat negizida turli qiziqish va tushunchalarni tadqiq qilish: asoslash va metodologiya" ("Teens Today Don't Read Books Anymore": A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Introduction and Methodology" nomli ishida esa AQShning San'at milliy jamg'armasi (National Endowment for the Arts – NEA) tomonidan 2004 yilda olib borilgan tadqiqotda yoshlarning "badiiy asarlarni o'qish" darajasi keskin pasayishi sabablari o'rganilar ekan, 18-24 yosh toifasidagi shaxslarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi xavfli tus olayotganligi ko'rsatib o'tilgan<sup>1</sup>.

Xorij tajribalari shaxsda kitob o'qish, kitobxonlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, jamiyat a'zolarining bosma, elektron va audio kitoblarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tahliliy o'rganish muammosi etakchi davlatlar amaliyotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ham muhim ijtimoiy zaruriyat bo'lib, ayniqsa, o'spirin yoshidagi o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning texnologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **1.2- §. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish muammosining o'rganilishi**

Agar mutolaa muammosining markazida o'qilgan asarni idrok etish darajasi bilan tavsiflanuvchi psixik jarayonlar tursa, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan kitobxonning uning o'qilgan asarlarga fuqarolik va estetik munosabati birinchi o'ringa chiqadi.

---

<sup>1</sup>Moyer E. Jessica. "Teens Today Don't Read Books Anymore": A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Part 1, Introduction and Methodology // <http://www.yalsa.ala.org/jrly/2010/11/comprehension-based-on-reading-modalities-part-1-introduction-and-methodology>.

XX asrning 70-yillari o‘rtalarida V.V.Prozorov o‘zining “Kitobxon va adabiy jarayon” deb nomlangan ishida “adabiyotshunoslikda hozirgacha mutolaa muammosiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘linadi”, deb qayd etib o‘tgan edi<sup>1</sup>. Aslida adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni o‘qishga loyiq yoki loyiq emasligi kitobxonlar tomonidan emas, adabiy tanqidchilarning fikr-mulohazalari asosida belgilanadi. V.F.Asmus, M.M.Baxtin, B.S.Meylax va boshqalarning fikricha, badiiy obrazlar asosida fikrlash qobiliyatining murakkab tuzilishga ega ekanligi o‘qilgan asarlarni idrok etish chog‘ida ham o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

V.F.Asmus “O‘qish mehnat va ijod sifatida” nomli maqolasida adabiy asarni idrok etishni murakkab jarayon ekanligini ochib beradi va kitobxon uni muallif alohida bir olamga olib kirayotganligini tushunishi zarurligini bevosita idrok etishining birlamchi ekanligini qayd etib o‘tadi. “Kitobxon ongi o‘qish vaqtida faoldir. Kitobxonning bunday faolligi natijasida o‘qish jarayonida o‘ziga xos dialektika amalga oshadi. U bir paytning o‘zida hayotiy obrazlarni ko‘z o‘ngida gavdalantira oladi va tasvirlanayotgan voqeliklar hayotning o‘zginasi emas, balki badiiy ifoda ekanligini ham tushunib etadi” . Kitobxon ongining faolligi – tafakkur, xotira, xayol, estetik va axloqiy tuyg‘ular hamda ko‘plab psixik jarayonlar kuchini o‘zida birlashtiruvchi maxsus faoliyat. Tadqiqotchi anglanmagan o‘qish – o‘qish emas, haqqoniy o‘qish – bu “mehnat va ijod” ekanligini qayd etib o‘tadi. “Badiiy asar mazmuni ko‘zadan suv quyish singari kitobxon miyasiga ko‘chib o‘tmaydi”<sup>2</sup>.

Mashhur adabiyotshunos B.S.Meylaxning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari muallif “ijod strategiyasi” deb qaraydigan asarlarni yaratish jarayonini ijodkorga xos tahlil etish va baholash muammolariga bag‘ishlangan. Shuning uchun muallif haqli ravishda yozuvchilarning bosh vazifasi – bu voqelikni yuqori darajada idrok etish uchun kitobxonni san’atni tushunishga o‘rgatish ekanligini ta’kidlab o‘tadi. “Voqelikni yuqori darajada idrok eta olmaslik – bu

---

<sup>1</sup> Prozorov V.V. Читатель и литературный процесс. – Саратов, 1995. – 140 с.

<sup>2</sup> Макарова И.А. Формирование духовных потребностей у старшеклассников (На материале уроков литературы): Дис. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2003. – 200 с.

insonning ma'naviy rivoji, uning ichki olamining boyishi, estetik tajribasi, hayotni tushunishi uchun mavjud zaxiraning boy berilishi”<sup>1</sup>.

Shuningdek, adabiyotshunos olim badiiy idrok ko‘plab funksiyalarga egaligi va idrok etish darajasi bir qancha omillar – kitobxonning madaniy saviyasi, uning psixofiziologik o‘ziga xosliklari, hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liqligini qayd etib o‘tgan. Faol, tom ma'noda badiiy, yaxlit idrok etish kitobni o‘qish bosqichlarida emas, idrok etishning quyidagi to‘rt asosiy fazasida amalga oshishini ko‘rsatgan: birinchi – asarning nomlanishi, uning janri va muallifini bilish; ikkinchi – mazmunga, obrazlar tizimiga kirish; uchinchi – san'atkor g‘oyalarini bosqichma-bosqich ongda mustahkamlash; to‘rtinchi – asarni talqin qilish va tavsiflash.

Adabiyotshunoslikka doir bilimlar ko‘plab ijodiy topshiriqlarni bajarishning asosi, yangiliklardan xabardor bo‘lish, estetik tahlil ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish vositasi bo‘lishi lozim. “Estetik tahlil asarga hissiy va ma'lum bir tarzda tartiblangan ma'lumotlar sifatida qaramaslikni, uni ijodkorning estetik faoliyati sifatida talqin qilishni talab etadi”, deb yozgan edi M.M.Baxtin<sup>2</sup>. Adabiyot ta'limi standarti va dasturi asosida adabiy faoliyatning nazariy qonuniyatlariga tayanadigan konsepsiya yotadi, bu – badiiy mukammal asar, “dunyoning badiiy modeli”dir (M.M.Baxtin)

Adabiy ta'limga doir o‘quv dasturlarida adabiyot fani so‘z san'ati sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun badiiy asar ijodiy faoliyat, voqelikning estetik in'ikos etilishi sifatida o‘rganiladi. Adabiy ta'limning maqsadi ma'naviy madaniyat negizida badiiy asarni to‘liq idrok etishga qobiliyatli va so‘z san'ati bilan mustaqil muloqotga kirishishga tayyor kitobxonni shakllantirishdan iborat.

R.Tursunov, M.Akramova va S.Maxsumxonovlarning o‘qituvchilar uchun yaratgan “O‘zbek adabiyoti. 6-sinf” nomli metodik qo‘llanmasida ta'kidlab o‘tilganidek: “Badiiy asar olamining muallif tomonidan yaratilishi va kitobxon tomonidan qayta tiklanishi jarayoni ular o‘rtasidagi o‘ziga xos “sirtqi” muloqotni o‘zida mujassamlashtiradi. O‘sayotgan odamga “matn orqali” muallif bilan

---

<sup>1</sup>Мейлах Б.С. Процесс творчества и художественное восприятие. – Москва: Наука, 1995. – 445-480 с.

<sup>2</sup> Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Наука, 1995. – 504 с.

bunday muloqot qilishni, uning to‘laqonli ishtirokchisi bo‘lishni o‘rgatish maktab adabiyot kursining bosh ta’limiy vazifasidir”<sup>1</sup>.

Kitobxon oldida ikkita vazifa turadi:

1) asarni muallif qanday tushunsa, shunday tushunishga, dunyo manzaralarini “muallif ko‘zi” bilan ko‘rishga intilish;

2) asarni o‘zining (muallifdan farqli) hayotiy va madaniy olamiga olib kirish.

Eng asosiysi: muallif – badiiy matn – kitobxon munosabatlaridir.

Tahlil natijalari darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir qator izlanishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning metodik masalalari to‘liq o‘z echimini topmaganligini ko‘rsatdi. Shuning uchun biz tadqiqotimiz doirasida N.A.Bodrova, S.A.Gurevich, M.Ya.Mishlimovich, V.F.Chertov, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, R.Niyozmetovalarning metodik tadqiqotlari hamda mutolaa madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha sosiolog, faylasuf, psixologlarning izlanishlariga tayandik.

N.A.Bodrovaning bir qancha izlanishlari o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni shakllantirishga bag‘ishlangan. “Sinfdan tashqari o‘qish tizimining birinchi bo‘g‘ini – o‘quvchilarning kitob o‘qishga qiziqishini o‘rganish. Faqat o‘quvchilarning ma’naviy ehtiyoji va badiiy asarni estetik idrok etish darajasini bilish orqali pedagogik nuqtai nazardan o‘zini oqlaydigan tavsiyalar dasturini yaratish mumkin, deb ta’kidlab o‘tadi metodist<sup>2</sup>.

Tadqiqotchi mutolaa madaniyatini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatgan:

- o‘qishning tizimli emasligi;
- mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarini o‘qishga dasturlarda kam soat ajratilganligi;
- sarguzasht asarlarning o‘qishning etakchi o‘rin tutishi;
- biografik adabiyotlarning etarlicha hajmda o‘qib-o‘rganilmasligi;
- sha’riyatga qiziqmaslik;

---

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти: 6-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма / Р.Турсунов, М.Акрамова, С.Махсумханов – Б.: Аркус, 2018. –7 с.

<sup>2</sup> Бодрова Н.А. Методика организации и проведения уроков внеклассного чтения по литературе в старших классах средней школы. – Москва: Просвещение, 1991. – 353 с.

- adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilikka doir adabiyotlarga qiziqishning pastligi;

- mutolaa madaniyatining pastligi;

- umuman, o'qishni yoqtirmaslik.

S.A.Gurevich yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil o'qishiga rahbarlik qilishning noyob tizimini yaratdi. O'quvchilarning kitoblarni tanlash va mutolaa qilish jarayonlarini o'rganish asosida u shunday degan edi: "O'qituvchi sinfda yagona axborot manbai emas. Men o'z ixtiyori bilan kitoblarni tanlash bo'yicha boshqa o'quvchilar xursand bo'ladigan yoki bir oz ranjiydigan maslahatni beradiganlarni yuksak qadrlayman"<sup>1</sup>. O'quvchilarning bir-birlariga kitob tanlash bo'yicha beradigan tavsiyalarning samaradorligi ko'plab tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. O'quvchilar pedagoglarga qaraganda bir-birlaridan ko'proq ma'lumotlarni bilib olishga intilishadi.

S.Gurevichning fikricha, o'quvchilarning mustaqil o'qishini tashkil etish ularning har tomonlama barkamol etib tarbiyalanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi, ularning dunyoqarashini boyitadi, shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirishga imkon beradi, individual ehtiyojlarini qondiradi, o'quvchilarda o'ziga ishonchni hosil qiladi, ularning ongli ravishda kasb tanlashiga yordam beradi. Biroq mustaqil o'qishni tashkil etishdan avval "o'qituvchi o'quvchilar qachon va qayerda o'qishi, qaysi kitoblar ularning hamrohiga aylanganligi, qaysilariga tasodifan duch kelinganligi, qaysilari esa ular uchun zerikarli ekanligini bilishi" har bir darsda u yangi kitoblar haqida ma'lumotlar berishi, qayerda va qachon nashr ettirilganligini aniq ko'rsatib berishi lozim. Biroq badiiy adabiyotning o'quvchilar hayotida qanday o'rin tutishini belgilab berish uchun, faqat ularning kitobxonlik qiziqishlarini bilishning o'zi yetarli emas. Kitobxonlarning kitobga murojaati vaqtida yetakchi o'rin tutuvchi motivlarni bilish zarur.

Ana shu sababli metodist quyidagi o'qish motivlarini alohida ajratib ko'rsatgan:

- turli sohalarga doir ma'lumotlarni bilishga intilish;

- hayot mazmunini anglashga harakat qilish;

- o'z-o'zini anglashga intilish;

---

<sup>1</sup> Гуревич С.А. Организация чтения учащихся старших классов. – Москва: Просвещение, 1994. – 206 с; O'sha adabiyot 50-6



- odamlar, ularning xarakteri va o‘zaro munosabatlarini tushunish;

- axloqiy ideallarni izlash;

- o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilish va dunyoqarashni shakllantirish;

- intellektual faoliyat, emosional soha va tasavvurlarni faollashtirishga intilish<sup>1</sup>.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo‘ladiki, adabiyot darslarida o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan mehr, badiiy asar o‘qishga bo‘lgan qiziqishni takrib toptirishga kompleks yondashish maqsadga muvofiq. Deni Didro “Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtasalar, fikrlashdan ham to‘xtaydilar”,<sup>2</sup> - deb ta'kidlab o‘tgan edi. Ammo, duch kelgan badiiy kitobni shunchaki o‘qishning o‘zi foyda bermaydi. Kitob fikrlab o‘qilgandagina kishiga manfaat keltiradi. Bu o‘rinda ingliz siyosatshunosi E.Berkning: “Mushohada yuritmasdan o‘qish ovqat hazm qilmaslik bilan barobardir”, mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiyning: “O‘qish – bu hali hech nimani anglatmaydi, o‘qish va shu o‘qilganni uqish – asosiy gap mana shunda”, - degan hikmatli so‘zlarini eslab o‘tish joiz.

Q.Yo‘ldoshevning: “Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fan asoslarda o‘rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlilay olish malakasiga ega bo‘lgan holda o‘quvchilar bilan yuzma-yuz bo‘lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi. Adabiyot o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaveradi”<sup>3</sup>, - degan fikrlariga qo‘shilgan holda, aynan bugungi kunda adabiyot darslarida o‘quvchilarni badiiy asarlar tahliliga o‘rgatish muhim ustuvorlik kasb etayotganligini ta'kidlab o‘tish lozim. Shuning uchun o‘quvchilarni ham o‘qish, ham uqishga o‘rgatish borish lozim.

O‘qish nutqiy faoliyatning reseptiv turiga mansub. U harfiy belgilar bilan kodlangan axborotni qabul qilish va tushunishga qaratilgan. O‘qish jarayonida matnning nima haqida ekanini anglashga

---

<sup>1</sup> Гуревич С.А. Организация чтения учащихся старших классов. – Москва: Просвещение, 1994. – 206 с.

<sup>2</sup> Тафаккур гулшани. Тўпловчи Воронцов В. Ватандош ҳамда хорижий алломаларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1999. – 242 б; О‘sha kitob б-7

<sup>3</sup> Ўйдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

qaratilgan mazmunga hamda matnni qay tarzda o'zlashtirishga qaratilgan kechimga doir ikki jihat mavjud. Mazmun jihatidan o'qishning natijasi o'qilgan matnni tushunish, kechimga doir jihatdan o'qish jarayonining o'zi bo'ladi. Bunda harflarni tovush sifatida qabul qilish, harflar birligidan so'zlar yasash, o'z ichki nutqini eshita bilish, grafik va semantik birliklar o'rtasida aloqa o'rnatish, ovoz chiqarib yoki ichida, sekin yoki tez o'qish singari jihatlar namoyon etiladi.

Alohida nutqiy faoliyat sifatida o'qishga o'rgatish o'qiydigan shaxsning yoshi, ijtimoiy maqomi, intellektual tayyorgarlik darajasiga ko'ra har xil bo'ladi. Lekin o'qiydigan odam muayyan o'qish texnologiyasidan foydalanib, hamisha matndan biror nutqiy-fikriy muammoni hal qilishga etarli hajmdagi axborotni olishga o'rganishi zarur.

O'qish har qanday shaxsning ma'rifiy, tarbiyaviy, ta'limiy, amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetentligini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham o'qiladigan matnlarning mazmuniga jiddiy talablar qo'yiladi.

Har bir odamning matnni o'qish va tushunish darajasi har xil ekani sababli olimlar o'qish jarayonini turlicha tasnif qiladilar. Bunday tasnifda turlicha tamoyillarga tayanadilar. Ayrim olimlar o'qishni matnni qabul qilishning psixologik o'ziga xosligidan kelib chiqib, analitik va sintetik tarzida tasnif etadilar. Ba'zi mutaxassislar o'qishning amalga oshirilish sharoitiga ko'ra mustaqil, nomustaqil yoki tayyorgarlikli, tayyorgarliksiz yo'sinida guruhlaydilar. Gohida o'qish sur'atiga qarab, tez yoxud sekin tarzida tarkiblaydilar. Rossiyalik olim S.K.Folomkina tomonidan taklif qilingan o'qishning qanday maqsadda amalga oshirilishiga qarab, tanishish uchun o'qish, izlab o'qish, aniqlash uchun o'qish, bilish uchun o'qish tarzidagi tasnifi kishida alohida qiziqish uyg'otadi.<sup>1</sup>

Tanishish uchun o'qishda matnning asosiy mazmuni, umumiy tarkibi hamda muhim dalillari bilan tanishish maqsadida imkon boricha tez o'qib chiqish ko'zda tutiladi. O'qishning bu turi uchun o'qilgan matnning etmish foizini tushunish etarli hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Фоломкина С.К. Аналитическое чтение, 1997. Электрон манба: [https://methodological\\_terms.academic.ru](https://methodological_terms.academic.ru) .

Bunday o‘qishda asarda uchraydigan noma'lum so‘z yoki tushunarsiz ifodaga alohida to‘xtalib o‘tirilmaydi. Ayni vaqtda matnda qanday kalit so‘zlar, muhim ifodalar borligiga e'tibor berib ketishga o‘rganish zarur. Muhimi, asarning mazmunini umumlashtira bilish, ya'ni uning asosiy kommunikativ vazifasi bo‘lmish qanday axborotni berayotgani va qaysi fikrlar ahamiyatli ekani anglab etilishi kerak.

Izlab o‘qish turida matndan faqat o‘quvchiga biror vazifani bajarish uchun kerak bo‘lib qolgan axborotni topishgina ko‘zda tutiladi. Biror didaktik maqsadda foydalanish uchun kerak bo‘ladigan axborot uncha ko‘p miqdorda bo‘lmaydi. Badiiy asardan personajlarning ruhiy holatlari aks etgan o‘rinlarini topib baholash uchun o‘qishning shu turidan foydalanish mumkin bo‘ladi. Qandaydir sanalar, vaqt ko‘rsatkichlari, ta'riflar, biron-bir voqea-hodisaga berilgan baholar tasvirini izlab amalga oshirilgan o‘qish izlab o‘qish bo‘ladi.

Masalan, akademik litseylarning “Adabiyot” fani dasturida Said Ahmadning “Qora ko‘z majnun” hikoyasini auditoriyada va mustaqil o‘qish topshirig‘i berilgan. Auditoriyada o‘quvchilarga “Qora ko‘z majnun” hikoyasidagi Saodat obrazining o‘ziga xos milliy tasviri, ona va bola bola o‘rtasidagi e'tiqodiy munosabatlarning teran badiiy talqini aks etgan o‘rinlarni topish, o‘z fikr-mulohazalarini erkin bildirishga doir topshiriq berilgan. O‘quvchilarni izlab o‘qishga jalb etish va ularning quyidagi tarzdagi hikoyadagi obrazlarga yuklangan g‘oyaviy mazmun, hikoyaning tarbiyaviy qiymati haqida analitik mushohada yuritishga tizimli yo‘naltirib borish lozim.

Aniqlash uchun o‘qish turi o‘quvchiga yanada kam intellektual yuk ortishni ko‘zda tutadi. Bu xil o‘qish muayyan bir asar muallifi kimligi, asardagi obrazlar tizimi qandayligi, qaysi o‘rinlarda tabiat tasviridan foydalanilgani singari qarab olib yodda saqlash yoxud esga tushirish uchun amalga oshiriladi. Buning uchun ba'zan asar qismlari bilan tanishish, sarlavha yoki mundarija bilan tanishish, ayrim xatboshilarni o‘qish etarli bo‘ladi. Bu turdagi o‘qishda butun matnni o‘qib o‘tirish kerak bo‘lmay, muayyan axborotlarning to‘g‘ri- noto‘g‘ri ekanini aniqlab olish maqsad qilinadi. Binobarin, matnning faqat o‘shanday axborotlar aks etgan qismigina o‘qilsa, etarli sanaladi. Shuning uchun o‘qishning bu turida ham vazifani bajarish uchun aniq vaqt belgilab qo‘yilishi talab etiladi.

Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridan quyidagi parchani taqdim etish va topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning aniqlash uchun o‘qish faoliyati rag‘batlantiriladi:

“Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko‘nglida o‘ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so‘fining «Nima bu qiyomat!» degan qiyomatidan qo‘rqinchliroq edi. Aniqlash uchun o‘qish turi o‘quvchiga yanada kam intellektual yuk ortishni ko‘zda tutadi. Bu xil o‘qish muayyan bir asar muallifi kimligi, asardagi obrazlar tizimi qandayligi, qaysi o‘rinlarda tabiat tasviridan foydalanilgani singari qarab olib yodda saqlash yoxud esga tushirish uchun amalga oshiriladi. Buning uchun ba‘zan asar qismlari bilan tanishish, sarlavha yoki mundarija bilan tanishish, ayrim xatboshilarni o‘qish etarli bo‘ladi. Bu turdagi o‘qishda butun matnni o‘qib o‘tirish kerak bo‘lmay, muayyan axborotlarning to‘g‘ri-noto‘g‘ri ekanini aniqlab olish maqsad qilinadi. Binobarin, matnning faqat o‘shanday axborotlar aks etgan qismigina o‘qilsa, etarli sanaladi. Shuning uchun o‘qishning bu turida ham vazifani bajarish uchun aniq vaqt belgilab qo‘yilishi talab etiladi.

Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridan quyidagi parchani taqdim etish va topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning aniqlash uchun o‘qish faoliyati rag‘batlantiriladi:

“Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko‘nglida o‘ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so‘fining «Nima bu qiyomat!» degan qiyomatidan qo‘rqinchliroq edi...”

**Topshiriq:**

asar muallifini aniqlash;

asardagi obrazlar tizimiga aniqlik kiritish;

tabiat tasviriga izoh berish;

parchani o‘qish; ularga tayangan holda asarning obrazlariga xos bo‘lgan xislatlar haqida mulohaza yuritish.

Bilish uchun o‘qish turida asarning barcha asosiy va ikkinchi darajali tomonlarini bilib olish, bu haqda fikrlash va eslab qolish maqsad qilinadi. O‘quvchilar o‘qilgan asarni baholashi, izoh berishi, tushuntirishi, o‘zlashtirilgan axborotlar yuzasidan xulosa chiqarishi

kerak. Aytilganlarni qila bilish uchun o'quvchi so'zlarning kontekstdagi ma'nolarini to'liq ilg'ashi, gapdagi so'zlarning mantiqiy aloqadorligini tushunishi, matn qismlari orasidagi o'zaro bog'liqlikni bilishi kerak.

O'qishning bu turida o'quvchilarning har birining darsdagi faol ishtirokini ta'minlash mumkin. Badiiy asarni qayta hikoya qilishga mo'ljallangan darslarda ularga quyidagi topshiriqlarni taqdim etish mumkin:

- asardan parcha tanlash;
- o'quvchilarning qobiliyatiga qarab rollar berish;
- personajlar ruhiyati aks etgan o'rinlarni ijro etish va tahlil qilish; (ruhiyat tasviri orqali asar idroki maromiga etadi)
- asari yuzasidan kengaytirilgan taqriz yozish, badiiy matnni tahlil va talqin qilish.

O'qishni qay yo'sinda amalga oshirilganiga qarab ham tasniflash mumkin. Bizningcha, o'qishni ijro tarziga ko'ra sintetik va analitik singari ikki turga ajratish mumkin:

Sintetik o'qishda o'qiyotgan odamning asosiy e'tibori matnni tez qabul qilish va uning umumiy mazmunini eslab qolishga qaratilgan bo'ladi. Bu jarayonda o'rganilayotgan matndan olinishi lozim bo'lgan asosiy axborot xarakteri va hajmi belgilab qo'yiladi. Badiiy asarni shunchaki ko'ngil ochish yoki vaqt o'tkazish uchun o'qish ham shu turga mansub bo'ladi.

Analitik o'qishda asarni o'qiyotgan shaxsning diqqati matnning mazmunidan tashqari uning til xususiyatlari, badiiy jihatlarni ilg'ashga ham qaratilgani uchun bu jarayon bir qadar sekin kechadi. Sintetik o'qish murakkab bo'lmagan, alohida tahlil talab etilmaydigan matnlar bilan tanishishda qo'llaniladi. Analitik o'qish esa alohida e'tibor, tahlil va aqliy zo'riqish talab qilinadigan murakkab asarlar bilan ishlashda foydalaniladi.

Maqsadni aniq qo'yish va eng natijador usulni tanlash o'qishni samarali tashkil etishning muhim shartidir. O'qishdan maqsad har xil bo'lishi mumkin: ko'ngil ochish, vaqt o'tkazish, nimanidir o'rganish, bilimlarini to'ldirish, kerakli ma'lumotni topish va boshqalar. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqib, kitob tanlaydi. O'qish usuli ham to'lig'icha maqsadga bog'liq bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda o'qish ham rasional, emosional, funksional, estetik,

ijodiy, ishga doir, dam olishga qaratilgan va boshqalar tarzida tashkil etiladi:

ratsional o‘qish – biror farazni olg‘a surish, taxmin qilish, qarashlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va modellashtirish orqali amaliyotda sinab qo‘rishga urinish singarilarni o‘z ichiga oladi;

emosional o‘qish – har bir o‘quvchining individual tabiatiga bog‘liq bo‘lgani uchun uning o‘lchamlarini algoritmlash imkonsiz. Badiiy asar o‘qish ilmiy, o‘quv, publisistik va rasmiy asarlarni o‘qishdan tamomila farq qiladi. U o‘quvchining tasavvur va tuyg‘ulari etakchilik qiladigan ruhiy-ijodiy jarayondir;

funksional o‘qish – o‘quvchining muayyan fan bo‘yicha qo‘yilgan aniq muammoni echishi uchun kerak bo‘ladigan axborotlarni olishga qaratilgan faoliyati. Bunda analitik o‘qish asarni skanerlash, ayrim joylariga belgi qo‘yish bilan birga olib borilishi mumkin;

ijodiy o‘qishda matn talqini, qahramonlar xatti-harakatlarini baholash, xayolot parvozigiga muhim o‘rin beriladi;

ishga doir o‘qishda o‘quvchining o‘z oldida turgan hayotiy masalani hal qilishga tegishli adabiyot bilan tezkor tanishishi ko‘zda tutiladi;

dam olish uchun o‘qish o‘quvchilar tomonidan toliqtiruvchi mashg‘ulotlardan vaqtincha chalg‘ish maqsadida amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir.

Tahlillar natijasida metodik fanlar va amaliyotida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning quyidagi shakllari mavjudligi aniqlandi. Butun sinfning kitoblarni o‘qib-o‘rganilganligini bilish va aniq ko‘rish uchun quyidagi mavzularda insho yozishni so‘rash mumkin: “Sizning sevimli kitobingiz bormi? Nima uchun u sizga boshqalaridan ko‘proq yoqadi?”, “Mening sevimli yozuvchim”. “Kitob mening hayotimda”, “Men qanday kitoblarni o‘qiyman?”, “Mening kutubxonam” mavzularidagi insholar asosida o‘qituvchi o‘quvchining kitobxonligi haqida aniq tasavvurlarga ega bo‘lishi mumkin.

Sinfda yoki uyda yoziladigan har bir inshoni yozish jarayonida o‘quvchi o‘zini kitobxon sifatida yangidan kashf etadi. Akademik lisey o‘quvchilarining barcha insholarini diqqat bilan o‘rganish mustaqil o‘qishning ma‘lum natijalarini hisobga olish imkonini

beradi. Bir necha oy, ba'zan bir necha yildan so'ng yozilgan insholarni qiyoslab o'rganish o'qishning dunyoqarashni shakllantirishga ta'sirini ko'rsatib beradi. Biroq o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aloqalarning mavjud bo'lmasligi o'quvchilarning samimiy munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi va o'quvchilarning hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarini o'rnatish o'quvchilarning yozma ishlarini ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi.

Kitobxonlik tarjimai holi mustaqil o'qish ishi bo'lib, o'quvchilarning mutolaa madaniyati haqida ko'proq axborotga ega bo'lish imkonini beradi. Buning uchun o'qituvchi dastlab quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: qachon va qay holatda mustaqil kitob o'qishni boshlaganligi; kim birinchi bo'lib kitob o'qishga qiziqish uyg'otganligi; qaysi kitoblar va adabiy qahramonlar bilan tanishish orqali kitobxonlar hayotiga o'xshash voqealarga duch kelinganligi; qaysi mavzu va janrdagi kitoblarni ayniqsa sevib o'qishi, o'qish kunlari, qish, yoz oylarida o'qish qanday o'rin egallashi; boshqa darslarga tayyorgarlik ko'rish chog'ida badiiy asarlarni o'qishni qanday uddalay olishi; chet el adabiyotidan nimalar o'qiganligi; qanday ilmiy-ommabop asarlar bilan tanish ekanligi; qaysi kitoblar maktab yillaridan so'ng orzu qilingan yo'lni topshishga yordam berganligi, kitoblarni qaerdan olib o'qishi, yaqin orada qaysi kitoblarni o'qimoqchi ekanligi va h.k.

Kitobxonlik tarjimai holi o'quvchining kitob o'qish doirasini aniqlashtirish shakli bo'lib, bunda o'qish haqidagi suhbatlar, individual va jamoaviy ish tashkil etiladi. Jamoaviy suhbatda, qoidaga muvofiq, eng rivojlangan va muloqotchan boshqalardan ko'p o'qiydigan o'quvchilar ishtirok etishadi. Buning sababi shundaki, ba'zilar o'qituvchi va o'quvchilardan uyaladi, kimlardir esa, birdan asosiy fikrni aniqlay olmaydi, kimdir murakkablik qilganligi sababli kam o'qiydi, tinglaydi va jim turadi, shuning uchun o'qituvchi hammani eshita olmaydi. Biroq boshqa o'quvchilar uchun ham bunday suhbat izsiz ketmaydi: ular nafaqat boshqalar tomonidan o'qilganlari bilan tanishadi, shu bilan birga aytib o'tilgan kitoblardan qaysilarini o'qish lozimligini ham o'ziga belgilab qo'yadi.

Ko'p yillardan beri kitobxon kundaligi yuritish an'anasi mavjud. Shu bilan bog'liqlikda uning ham o'ziga xosliklari mavjud: agar kundalik o'quvchining o'z ixtiyori bilan yuritilsa, uning o'rtog'i va

do'stiga aylanishi mumkin, agar o'quv vazifasi sifatida yuritilsa, u xususiy tavsifga ega bo'lib qoladi. Xuddi shunday kundalikdagi qaydlarni o'qish o'quvchini o'zining ishi hisoblanadi. Kundalik yuritish kitobga muhabbat, o'qishga qiziqish, kitobxonlik haqida suhbatlar quriladigan umumiy atmosfera bor sinflarda keng ommalashadi. Hozir ham mazkur ish shakli muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ko'proq boshlang'ich, ba'zan o'rta sinflarda ham kamroq bo'lsa ham ko'zga tashlanadi.

O'quvchilarning mustaqil o'qishini o'rganish va nazorat, shu bilan birga kitobxonlikni targ'ibot qilishning qiziqarli shakllaridan biri "kitobxonlik biletini himoya qilish" sanaladi. Bu o'quvchilarga o'zlari o'qigan kitoblardagi qiziqarli o'rinlari, o'qish vaqtida paydo bo'lgan fikrlar va kayfiyat bilan o'rtoqlashish, umuman olganda o'zining qanday kitoblarni tanlab o'qishini asoslash imkonini beradi. Bunday tarzda "himoya" ba'zan kitobxonlik konferensiyasi ham aylanib ketadi.

Kitobxonlik biletlarini himoya qilish – kitobxonlik qiziqishi va mutolaa madaniyatining rivojlanganligini o'rganishning keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, u har bir kitobxonning individual mayllarni aniqlashga xizmat qiladi. Kitobxonlik biletidagi qaydlar o'quvchilar qaysi mualliflarning asarlarini o'qishni, biror yo'nalishiga doimiy qiziqishi bormi yoki har xil mavzulardagi kitoblarni o'qiydimi degan savollarni muhokama qilishga imkon beradi.

Kitob o'qish madaniyatining rivojlanganligini aniqlashda anketa so'rovlarini o'tkazish yaxshi samara beradi. Yangi guruh bilan tanishish, sinfdan tashqari o'qish darslari tizimini rejalashtirish, individual ish yo'nalishlarini aniqlashtirish, yakun yasash – sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik qilishning mazkur muhim jihatlarini anketa o'tkazish bilan uyg'unlikda amalga oshirish mumkin. Agar o'quvchilar ularning fikrlari o'qituvchi uchun haqiqatan muhim ekanligini, u ishni rejalashtirishda ularning fikrlarini hisobga olishini his etishsa, anketa savollariga javoblar ba'zan uchrab turadiganidek, yuzaki bo'lmaydi.

O'quvchilarning mutolaa madaniyatni o'rganishning ishonchli va samarali bo'lishini ta'minlash, dastlabki xulosalarni tasdiqlash uchun ularni kitob o'qishga qiziqtirishning bir qancha shakllarini uyg'unlikda amalga oshirish lozim.



Manbalar tahlili kitobxon-o'quvchi muammosi, uning qiziqishlari, kitoblarning ta'lim tizimidagi o'rni, uning o'quvchiga tarbiyaviy ta'siri so'nggi yillarda dolzarb masalaga aylandi. Afsuski, yigirma besh yil davomida mazkur masala ijtimoiy-psixologik manbalarda ko'p yoritildi lekin metodik adabiyotlarda mazkur masala kam o'rganildi.

Bugungi kunda psixologlar, sosiologlar, pedagoglar va metodistlar yagona bir fikrga to'xtalishmoqda: o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, o'zida bir qancha bosqichlarni, shu jumladan o'qishga rahbarlik qilishning puxta o'ylangan va asoslangan tizimini talab etadi.

### **1.3-§. O'quvchilarida kitobxonlik va mutolaaga qiziqishning rivojlanganlik holati**

Adabiyot fani o'qituvchilarining ish tajribalari va empirik tadqiqotlarga asoslangan holda o'quvchilarda kitobxonlik va mutolaaga qiziqishning rivojlanganlik holati o'rganildi. Buning uchun maxsus anketa so'rovlari ishlab chiqildi (1-ilovaga qarang). Tadqiqot jarayonida 330 ta anketani olishga muvaffaq bo'lindi.

Dastlab “Mening sevimli kitobim”, “Mening sevimli adibim” mavzularida yozilgan insholar yuzasidan quyidagi savollar bo'yicha individual va jamoaviy suhbat tashkil etildi:

1. Hozirgi vaqtda adabiyotning bosh maqsadi nimadan iborat deb o'ylaysiz?

2. Sizning sevimli badiiy asaringiz bormi?

3. Adabiyotdagi qaysi obrazlar Sizni ko'proq o'ziga jalb etadi?

O'quvchilarga taqdim etilgan anketa so'rovi uch blokdan iborat tarzda ishlab chiqildi.

Birinchi blok – o'quvchilarning mutolaa yo'nalishlarini aniqlashtirish.

1. Qanday asarlarni o'qishni yaxshi ko'rasiz?

- zamonaviy;
- ikkinchi jahon urushi haqidagi;
- tarixiy;
- ilmiy-ommabop;
- sevgi-muhabbat haqidagi;

- fantastik;
- detektiv;
- sarguzasht;
- she'riy;
- ertaklar.

Siz nimani o'qishni afzal ko'rasiz?

- mumtoz adabiyotni;
- XIX asr chet el adabiyotni;
- XX asr o'zbek adabiyotini;
- jahon adabiyotini;
- zamonaviy adabiyotlarni.

3. Qaysi asarlar sizga ko'proq yoqadi, ularning mualliflarini eslay olasizmi?

4. Qanday davriy nashrlarni muntazam o'qiysiz?

5. Sizning she'riyatga munosabatingiz:

- yoqtirmayman va o'qituvchimizning topshirig'iga ko'ra yod olaman;

- befarqman;
- yoqtiraman, lekin ko'p narsalarni tushunmayman;
- men birinchi navbatda she'riy kitoblarni o'qiyman.

Ikkinchi blok o'z ichiga o'qish motivlari va kitob tanlash bilan bog'liq savollarni qamrab oldi.

1. Siz kitobni nima uchun o'qiysiz?

- bilimlarga ega bo'lish uchun;
- bo'lajak kasbim bilan tanishish uchun;
- dam olish va hordiq chiqarish uchun;
- o'zimni qiziqtirgan savollarga javob olish uchun;
- baho olish uchun.

2. Kitob tanlashda kimlarning maslahatiga quloq solasiz?

- adabiyot fani o'qituvchisining;
- boshqa fan o'qituvchilarining;
- kutubxonachining;
- ota-onamning;
- o'rtoqlarimning;
- asar asosida olingan fil'mni ko'rganimdan keyin tanlayman;
- hamma vaqt o'zim tanlayman.

3. O'qiganlaringizni qachon muhokama qilasiz?

- adabiyot darslarida;
- darsdan keyin akademik litseyda;
- kutubxonada;
- o‘rtoqlarim bilan;
- uyda, ota-onam bilan;
- hech qayerda.

Uchinchi blok savollar zamonaviy madaniy shart-sharoitni hisobga olib tuzilgan:

1. Sizga kitob tanlashda televideniye va kompyuter qanday yordam beradi?

2. Shaxsiy kutubxonangiz haqida qisqacha ma'lumot bering.

Tadqiqot ob'ekti sifatida kelajak hayot uchun intilayotgan, jamiyat rivoji, kundalik turmush va madaniyat yo‘nalishlari hamda sur'ati bilan hamnafas ijtimoiy va yosh toifasi – o‘spirin yoshidagi o‘quvchilar tanlandi.

O‘spirinlik davri bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, intellektual va ijtimoiy rivojlanish jarayonida inson shaxsida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan tavsiflanadi. Umumiy tarzda o‘spirinlik davrida intellektual-kognitiv sohaning rivojlanishi quyidagi hususiyatlarga ega bo‘lishi manbalarda keltirib o‘tilgan:

- mantiqiy tafakkur va xotiraning rivojlanishi tezlashadi;
- tafakkur va xotira o‘rtasidagi munosabat o‘zgarib, tafakkur xotira faoliyatini belgilab beradigan darajaga yetadi;
- ijod namunalariga murojat qilish ko‘lami kengayishi hisobiga hayolning rivojlanishi kuchayadi;
- o‘qish malakalari, monologik nutq ko‘nikmalari rivojlanishi faol davom etadi;

- tafakkur va nutq o‘rtasidagi aloqadorlik (og‘zaki va yozma nutq) hosil qilish qobiliyati kuchayadi. Mutaxassislar o‘spirinlik davrida kognitiv rivojlanishdagi muhim yangilik sifatida nazariy tafakkurning bilish jarayonidagi ishtirokining kuchayishi, umuman, intellektual faoliyatdagi ahamiyatining oshishini qayd etadilar. Buning asosiy sababi ushbu davr inson atrof-olamdagi voqealar o‘rtasida aloqadorlikni anglash, shuningdek, yuqori darajada bilishga harakat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ilmiy-nazariy bilimlarning egallanishi ham tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.

Buning ta'sirida isbot, dalillarga asoslangan fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Birinchi blok savollari bizga o'quvchilar tomonidan o'qiladigan asarlarning mavzu yo'nalishlarini aniqlashga yordam berdi. Mazkur tasnif shartli bo'lib, turli mavzulardagi asarlarga o'quvchilarning qiziqishlari umumiy evolyutsion jihatini aniqlash uchun 10 yil davomida mutolaa yo'nalishidagi o'zgarishlarni kuzatish zarur bo'ladi.

2018 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, o'quvchilarning mutolaa yo'nalishida birinchi o'rinni triller va qo'rqinchli, sarguzasht va ma'lumotnoma tavsifidagi asarlar egallagan. Uch yil davomida "qo'rqinchli" asarlarni o'qiydigan o'quvchilar soni 26%ga oshgan va bu albatta, kishini qo'rquvga soladi. O'quvchining ruhiyati buzilishiga olib keluvchi bunday badiiy saviyasi past asarlar tilining soddaligi, nizolar, syujetlarga boyligi, zo'ravonlik va qonxo'rlikning targ'ib qilinishi, tarbiyaviy asosning yo'qligi, syujetning oddiyligi va ko'ngilochar lavhalarga to'laligi bilan o'ziga jalb etadi.

Sarguzasht adabiyotlar ham o'tkir syujetli, hordiq chiqarishga mo'ljallangan asarlar sirasiga kiradi. Mazkur janrga alohida qiziqish o'z yashash joyini o'zgartirish istagiga ega homo sapiensning o'ziga xosliklari, qiziquvchanlik bilan bog'liq. Sarguzasht kitoblarga dam olish va hordiq chiqarish maqsadida murojaat qilinadi. Bunday o'qish qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega. Bunday asarlar o'quvchisi ishtirokchi emas, tomoshabinga aylanadi, mutolaadan qoniqish hosil qiladi, biroq hayratlanmaydi. Agar 2018 yildan 2020 yilgacha bo'lgan oraliqda bunday asarlarga qiziqish dinamikasiga e'tibor qaratilsa, sarguzasht asarlar o'qish o'quvchilar o'rtasida keng ommalashgan.

So'nggi o'n yillikda o'quvchilarining ma'lumotnoma tavsifidagi nashrlarga murojaat qilishi sezilarli oshgan. Bu dalil oson, tushunarli va qulay shaklda ifoda etilgan yangi bilimlarga qiziqishning ortaganligidan guvohlik beradi. Chunki ma'lumotnomalardagi axborotlar hajmi katta emas, ular ixcham ko'rinishda taqdim etilgan. Shuning uchun o'quvchilarning ko'pchiligi ularni o'qishga qiziqishadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, ma'lumotnoma turidagi kitoblar ko'p nashr qilinadi va kitob bozorida ham ularga talab kattaligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi o‘rinni o‘quvchilar o‘rtasida sevgi-muhabbat, tarixiy, ilmiy-ommabop, zamonaviy, dedektiv va fantastik janrdagi kitoblarni o‘qish egallagan. Agar 2018 yilda mazkur janrdagi asarlarga qiziqish katta yoshdagi kitobxonlarniki bilan teng ravishda o‘sgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda aksincha, miqdor munosabatiga ko‘ra o‘quvchilar ularga kam murojaat qilishgan.

Sevgi haqidagi kitoblarni o‘qishning ommalashuvi o‘quvchilari o‘rtasida 15 %ni, keying yillarda esa 22 %ni tashkil etib, asosan bunday mavzuga bag‘ishlangan asarlarni qizlar ko‘proq o‘qishgan.

Ilmiy-ommabop kitoblar bilish faolligini oshirishga xizmat qiluvchi adabiyotlar hisoblanadi. Mazkur janrga qiziqish ilmiy-ommabop adabiyotlarda turli sohalarga doir qiziqarli va foydali ma'lumotlarning berilishi bilan bog‘liq. Katta bo‘lgan sari o‘quvchilar u yoki bu masalaga doir mavzularga jiddiy e'tibor qaratib, ilmiy-ommabop kitoblarni o‘qishadi, keyin egallangan bilimlarni amaliy faoliyat jarayoniga tatbiq qilishga intilib, o‘zlari biror ishni amalga oshirishi uchun ko‘rsatma, tavsiya tavsifidagi kitoblarni izlab topishadi va mutolaa qilishadi.

Bunday kitoblar odatda, amaliy maqsadlarni ko‘zlab mutolaa qilinadi, biroq unga qiziqish yuqori sinflarda sezilarli ravishda kamayganligi kuzatildi (1.3.1-jadvalga qarang).

### 1.3.1-Jadval

	Yil	2018	2018	2019	2019	2020	2020
1.	Sevgi haqida kitoblar	32	33	39	48	15	22
2.	Sarguzasht asarlar	28	24	23	9	39	30
3.	Fantastik asarlar	37	48	18	19	31	23
4.	Detektiv asarlar	44	47	28	26	15	24
5.	Тарихий асарлар	38	40	24	10	36	18
6.	Ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlar	26	19	3	-	-	-
7.	Zamonaviy	24	30	16	13	25	32
8.	Mistik, qo‘rqinchli	-	-	10	6	41	38
9.	Ilmiy-ommabop			15	3	18	20
10.	She'riyat	10	14	10	3	15	8
11.	Ertaklar	8	4	4	6	17	5
12.	Ma'lumotnoma nashrlar	-	-	-	-	28	36

## **O‘quvchilarining mutolaa yo‘nalishini tanlashga munosabati (foiz hisobida)**

O‘quvchilarining tarixiy asarlarga munosabati ko‘p jihatdan global voqeliklar doirasida inson taqdiriga va insoniyat tarixini bilishga qiziqishi boshlanadigan yosh davri bilan bog‘liqdir.

Fantastik asarlar o‘spirin yoshidagi o‘g‘il va qiz bolalarni o‘zining mashhurligi va noodatiyligi bilan jalb qiladi, ular bunday janrdagi kitoblarni ularda ilmiy va ijtimoiy gipnoz obrazli ifoda etilganligi sababli o‘qishadi. Bundan tashqari, ilmiy fantastika zamonaviy hodisalarni o‘zida mantiqiy jihatga asoslangan loyihasini aks ettiradi. O‘spirin yoshidagi o‘quvchilarning fikricha, ushbu asarlarda hodisalar juda ishonarli tasvirlangan bo‘lib, kishida badiiy xayolotni amalga oshishiga katta ishonch hosil qiladi. Ammo bizni o‘spirinlarning fantastik asarlardagi dalillarga e‘tibor qaratmasdan, faqat uni shunchaki o‘qish istagiga egaligi ko‘proq tashvishga soladi. Hozirgi vaqtda o‘quvchilar orasida utopik, ogohlikka da‘vat etuvchi va falsafiy fantastika emas, maqsadi va g‘oyasi bilan an‘anaviy fantastik asarlardan farqlanadigan “fentezi” deb nomlanadigan janr keng ommalashgan. “Fentezi” janri o‘zida o‘zga yerlik mavjudotlar bilan insonlarning uchrashishi, o‘zga sayyoradagi gallaktikalararo urushlar tarixi va ommabop kompyuter o‘yinlarining kitob ko‘rinishidagi nashrlarni o‘zida aks ettiradi.

O‘quvchilarning zamonaviy, o‘zining tengqurlari, o‘z davri kishilarining ijtimoiy-maishiy turmush tarzi haqidagi kitoblarga e‘tibor qaratishi ham o‘spirinlik yosh davri bilan bevosita bog‘liqdir. Ular zamonaviylikka intilishadi va hozirgi davr voqeliklariga katta qiziqish bilan qarashadi. O‘z taqdirini o‘zi belgilashga bo‘lgan bunday istakning o‘ziga xosligi bugungi kun muammolarining kelib chiqishini tushunishga yordam beradigan “yaqin” tarixiy voqelik aks etgan asarlarga murojaat qilishga turtki berishi bilan tavsiflanadi. Detektiv asarlar o‘quvchilarni o‘tkir syujetli, ko‘ngilochar, keskin voqealar va harakatlarning maftunkorligi bilan o‘ziga jalb etadi. Shunisi e‘tiborga loyiqki, odamning yoshi kattalashgan sari dedektiv asarlarga qiziqish ortib boradi.

So‘nggi ma‘lumotlar o‘quvchilarning Ikkinchi jahon urushi yillari haqidagi asarlarni mutolaa qilishga munosabati o‘zgarganligini ko‘rsatadi. Agar 2018 yilda bunday asarlarni o‘qish ommaviyligi

jihatdan ikkinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, hozir she'riyat singari so‘nggi o‘rinni egallagan. Ikkinchi jahon urushi yillari haqidagi kitoblarga bizningcha, o‘quvchilar sobiq sovet mafkurasining eskirgan qismi sifatida qaraydi. Ular kishilarning fashizmga qarshi kurashini qahramonlik deya baholay olishmaydi, ularni hatto urush ishtirokchilari ko‘rsatgan jasaoratning axloqiy va psixologik jihatlari ham o‘ziga faol jalb qilmaydi, akademik litsey o‘quvchilari mazkur asarlarni allaqachon eskirgan, deb hisoblashadi.

She'riyatning mutolaa yo‘nalishi sifatida so‘nggi o‘rinni egallashining sababini metodistlar umumiy o‘rta ta‘lim adabiyot darslarida lirik asarlar tahlilida ortiqcha detallashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarda ifodali o‘qishning yetarli emasligi, she'rni o‘qish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlarning mavjud emasligi, ko‘p marta quruq yod oldirishda deb bilishadi. Bizningcha, o‘quvchilarning she'riyatga befarq munosabati sabablari uning insondan yuqori intellektual faollik, emotsional qayg‘urish, boy tasavvurni talab etuvchi bosma matnning alohida turi ekanligida ko‘rinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda emotsional idrok etish ham yetarlicha rivojlanmagan.

O‘quvchilarning she'riyatga munosabati ham turlicha namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning ma'lum bir qismi (26 %) she'riyatni yaxshi ko‘rishadi, biroq undagi ko‘p narsalarni tushunishmaydi, katta qismi esa befarq (42 %), shuningdek, umuman she'r o‘qishni yoqtirmaydiganlari ham bor (40 %); she'riyat ularning mustaqil o‘qishida birinchi o‘rin egallashini ta'kidlaganlarining javoblari (8 %) esa bizni quvontirdi (1.3.2 - jadvalga qarang). Bunday miqdor ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar lirik asarlarni o‘qishda qator qiyinchiliklarga duch kelishadi.

1.3.2-jadval

### She'riyatga munosabat (foiz hisobida)

1.	Mening o‘qiydiganlarim orasida birinchi o‘rinda turadi	7	8
2.	Yoqtirmayman, faqat o‘qituvchining topshirig‘iga ko‘ra o‘qiyman	40	31
3.	Befarqman	31	42
4.	Yaxshi ko‘raman, lekin tushunmayman	22	26

“Xarakter- obraz”ga asoslangan epik asardan farqli ravishda “tuyg‘u-obraz”li she'r syujetli va maishiy motivga ehtiyoj sezmaydi. Biroq she'riyatni to‘g‘ri va to‘liq idrok etish uchun o‘spirinlik yoshida hamma vaqt ham aniq namoyon bo‘lmaydigan uning axloqiy va estetik tajribasini tushuna olish zarur. Bu shuni anglatadiki, ko‘pchilik o‘quvchilarda she'riy asarni yaxlit idrok etish, uning badiiy shakliga qiziqish yo‘q. O‘quvchilar she'riyatda, birinchi navbatda syujet va g‘oyani ko‘rishadi. Shuning uchun ularning ko‘pchiligini to‘liq lirik emas, liro-epik asarlar o‘ziga jalb etadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar she'riyatni yaxshi ko‘raman, biroq undagi narsalarni tushunmayman, deb javob berishdi. Bunda qaysidir ma'noda o‘qituvchi va dastur talabining ham aybi bor, poetik merosni o‘rganishda ko‘proq uning ritmik va badiiy-ifodaviy jihatlariga e'tibor qaratiladi, shuning uchun o‘quvchilar she'rni tadqiqot, tahlil ob'ekti sifatida qabul qilishadi. Majburan yod olish esa ko‘pincha ularda she'riyatga befarqlik va uni “yomon ko‘rish” hissini yuzaga keltiradi.

Anketa tahlilidan kutilganidek, ishtirokchilarning ko‘pchiligi zamonaviy adabiyotni o‘qishni afzal deb bilishini ko‘rsatdi, chunki unda aynan o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi. “Zamonaviy adabiyot” deganda ko‘pchilik o‘quvchilar (shu jumladan, kattalar ham) kitob rastalarini to‘ldirgan – son-canoqsiz ommaviy adabiyot vakillarining asarlarini tushunishadi (1.3.3-jadvalga qarang).

### 1.3.3- jadval

O‘quvchilarning adabiyotlarni mutolaa qilish yo‘nalishlari (foiz hisobida)

№	Yillar	2018	2018	2019	2019	2020	2020
1	Mumtoz adabiyot	16	9	30	5	16	13
2	XIX asr chet el adabiyoti					23	19
3	XX asr o‘zbek adabiyoti	20	34	21	25	19	20
4	Jahon adabiyoti					26	24
5	Zamonaviy adabiyot	30	33	27	18	35	31



Akademik litsey adabiyot kursidagi asarlardan tashqari zamonaviy adabiyot bo'yicha o'qituvchi tavsiya qilgan ro'yxatsiz o'quvchilar haqiqiy ma'noda yuksak saviyadagi badiiy kitobni mustaqil tanlay olmaydi. Ularni eng avvalo, kitobning muqovasi, ko'pchilik orasida mashhur mualliflarning nomlari o'ziga jalb etadi. Zamonaviy adabiyot bizning kuzatishimiz va Milliy kutubxona natijalariga ko'ra, o'quvchilar o'rtasida yetakchi o'rin egallaydi. Ajablanarlisi, akademik litseylarning adabiyot fani o'quv dasturida katta o'rin ajratilmagan bo'lsada, chet el adabiyoti o'quvchilar sevib o'qiydigan asarlar orasida ikkinchi o'rinni egallaydi (2019 yil). Chet el adabiyotiga qiziqish asosan sarguzasht, ilmiy-fantastik, detektiv asarlar hisobiga ortib boradi.

So'nggi o'rinlarni Mumtoz adabiyoti (16%) va XX asr o'zbek adabiyoti (19 %) egallagan. Mumtoz adabiyotini 30 foiz o'quvchilar o'qiganligini aytishgan, bu tabiiy, chunki ular 9 sinfda mazkur davr adabiyoti bilan birinchi marta jiddiy tanishishgan. XX asr o'zbek adabiyotiga esa 10-11 sinfda ko'proq qiziqish borligi kuzatildi, bu esa o'rganilayotgan kurs mazmuni bilan bog'liq.

O'spirinlik davrida mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu murakkab bosqich. Chunki o'quvchilar ta'limning avvalgi bosqichida o'rgangan adabiy asarlar bilan birga yangi mualliflar bilan ham tanishishga majbur bo'lishadi. Birinchi blokning uchinchi savoliga o'quvchilar asarlar va ularning mualliflarini sanab o'tishgan. Albatta, ular orasida badiiy jihatdan past darajadagi adabiyotlar ham o'rin olgan. O'quvchilarning javoblarida ko'proq XX asr o'zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Tohir Malik, O'tkir Hoshimov, chet el adabiyotidan Rashod Nuri Guntekin, Jek London, Chingiz Aytmatov, zamonaviy o'zbek adabiyotidan Ulug'bek Hamdam, Nuriddin Ismoilovlarning kitoblari uchraydi (1.3.4-jadvalga qarang).

### 1.3.4-жадвал

#### O'quvchilar asarlarini ko'proq sevib o'qiydigan mualliflar (foiz hisobida)

	Yillar	2018	2018	2019	2019	2020	2020
1	Abdulla Qodiriy	18	14	22	10	7	14
2	Abdulla Qahhor	11	7	12	5	8	15
3	Said Ahmad	9	13	5	10	10	10

4	O'tkir Hoshimov	-	-	15	7	10	9
5	Tohir Malik	9	7	12	5	14	13
6	Rashod Nuri Guntekin	13	5	10	3	3	10
7	Jek London	-	-	-	-	10	9
8	Chingiz Aytmatov	-	-	-	-	11	14
9	Ulug'bek Hamdam	-	-	-	-	8	5
10	Nuriddin Ismoilov	-	-	7	8	5	7

So'nggi yillarda jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ommaviy axborot vositalari, Internet va davriy nashrlarning keng ommalashuvi o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish sohasiga doir qadriyatlar tizimining ham o'zgarishiga olib keldi.

Hozir o'quvchilarning kitobxonligi nafaqat kitob o'qish bilan, balki davriy nashrlar va ijtimoiy tarmoqlarga keng murojaat qilish bilan ham belgilanadi. Faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi mazkur yosh davrida bugungi kun haqida dolzarb, aniq maqsadga yo'naltirilgan axborotlarni olishga intilishni yuzaga keltiradi. Davriy nashrlarni o'qish yon atrofda hamda jahonda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar, dalillarni tahlil etish, taqqoslash va umumlashtirish imkonini beradi, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini topish va anglashga yordam beradi. Agar kitob bolalikdan o'quvchiga hamroh bo'lsa, davriy nashrlarga qiziqish ayniqsa, o'spirinlik yoshida yaqqol namoyon bo'ladi.

1.3.5-jadval

### **O'quvchilarning davriy nashrlarni o'qishga munosabati (foiz hisobida)**

	<b>Yillar</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>
<b>No</b>	<b>Gazetalar</b>			
1.	Hordiq	-	72	-
2.	7X7	23	16	-
3.	Darakchi	34	14	-
4.	Repetitor	-	-	21
5.	Abituriyent	-	-	27
	<b>Jurnallar</b>			
1.	XXI asr texnologiyalari	-	29	17
2.	SMART KIDS	32	19	-
3.	Dono word	30	23	-
4.	JAJJI AKADEMIK	-	-	44
5.	Sinfdoosh	59	-	-

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarining mutolaa madaniyati adabiyot dasturi doirasi bilan cheklangan bo‘lib, o‘spirinlar mustaqil mutolaa qiladigan ko‘pchilik adabiyotlar badiiy jihatdan yuqori saviyaga ega emas. Buning sabablarini yanada to‘liq aniqlash uchun o‘quvchilarning kitob o‘qish motivlarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ta'limni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ko‘plab g‘oyalar orasida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish muhim bir o‘rin tutadi. Ta'lim amaliyotida o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish tizimli rejalashtirilmaydi, ko‘pincha maxsus metodik shart-sharoitlarga rioya qilmasdan amalga oshiriladi, mutolaa madaniyatining fikrlash faolligi samaradorligini oshirishdagi o‘rni hisobga olinmaydi. O‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish muammosini o‘rganish republikamiz va xorijda boy tarixiy tajriba, mazkur masala yechimiga bag‘ishlangan nazariy va amaliy ahamiyatga molik ko‘plab yondashuvlar borligini ko‘rsatdi. Biroq adabiy ta'lim jarayonida o‘quvchilarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish zarurati mavjudligi aniqlandi. Adabiy ta'lim amaliyotida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning quyidagi shakllari keng tarqalganligi aniqlandi: a) “Sizning sevimli kitobingiz bormi?”, “Mening sevimli yozuvchim”; b) kitobxonlik avtobiografiyasi; v) kitob o‘qish haqida suhbatlar (individual va jamoaviy); g) kitobxonlik kundaliklarini yuritish; d) kitobxonlik bileti “himoyasi”; ye) kitobxonlik biletleri tahlili; j) monitoring. o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish muammosini o‘rganishning dolzarbligi aynan ilk o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarda san'atga estetik munosabatni mustahkamlash, adabiy rivojlanishda yangi bosqichga odimlash imkonini beradi.

Psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar va metodistlar mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq etishmoqda, uni hal etishning zamonaviy va yangi yo‘llarini izlashmoqda. Biroq hammasi yagona bir xulosani qayd etib o‘tishmoqda: o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, o‘zida bir qancha bosqichlarni, shu jumladan o‘qishga rahbarlik qilishning puxta o‘ylangan va asoslangan tizimini talab etadi. Tahliliy ma'lumotlar asosida mutolaa madaniyati –

o‘quvchilarning kitob o‘qishga qiziqish va ehtiyojlarini tarkib toptirish, badiiy asarlarni tahlil etish va xulosa chiqarish, axloqiy va estetik ideallarni shakllantirishga qaratilgan yaxlit jarayon, ekanligi haqidagi xulosaga kelindi. O‘quvchilar mutolaa madaniyatining rivojlanganligining amaldagi holatini aniqlash maqsadida anketa so‘rovlari natijalari o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, o‘zida bir qancha bosqichlarni, shu jumladan, o‘qishga rahbarlik qilishning puxta o‘ylangan va asoslangan tizimi mavjud bo‘lishini talab etadi.

## **II BOB. TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY- TEXNOLOGIK TIZIMI**

### **2.1-§. O'qish motivlari, kitob tanlash mezonlari hamda mutolaa madaniyatini rivojlantirish omillari va gender xususiyatlari**

O'spirin kitobga turli-tuman, u yoki bu sabablar ta'siri ostida murojaat qiladi. Mutolaa madaniyati darajasini ko'p jihatdan kitob tanlash va o'qish motivlari belgilab beradi. Mutolaaga ehtiyoj, motivasiya va qiziqishning mustahkam o'zaro aloqadorligini ta'minlash yosh kitobxonni shakllantirish hamda rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi.

Fanda ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko'rib chiqiladi. O'zining kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'ra ular ikkita bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda ehtiyoj xuddi bir ichki, faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi. Ushbu bosqichda qadriyat ehtiyojni qondirishga qodir, ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa mavjud ehtiyoj real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu ehtiyojni qondirish uchun vositalarni tanlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda ehtiyoj real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu erda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi. Insonning ehtiyoji tug'ma xususiyatga ega emas, ijtimoiy voqelikni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi, tug'ma layoqatlar asosida shaxs xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Ehtiyojlar orasida shaxsning ma'naviy ehtiyojlari muhim o'rin tutadi. Hissiy qobiliyatga ega inson atrof-muhitni butun xilma-xiligi bilan aniq va yaxshi idrok etadi. U xulq-avtor me'yorlariga mos keladigan, hissiy qoniqish va ichki xotirjamlik bag'ishlaydigan, insonni yanada muvaffaqiyat, maqsadlarga erishishini osonlashtiradigan xatti-harakatlarni tez va oson tushunadi.

Ko'plab tadqiqotchilar o'zlarining tadqiqotlarida o'sib kelayotgan avlodda bilishga ehtiyojlarni shakllantirish muammosiga e'tibor qaratishgan (O.Musurmonova, B.Xodjaev, Z.Salieva,

---

<sup>1</sup>Педагогика: Большая современная энциклопедия / сост. Е.Ц. Рапацевич. – Минск: Современное слово, 2005. – 719 с.

D.Qosimova, L.Bektursinova, Yu.Sharov, T.Pavlova, I.Makarova, T.Kaptan, M.Rokich)<sup>1</sup>. Ular ehtiyoj o'quvchilarning muayyan tushunchalarni egallashga bo'lgan intilishlari ifodasi sifatida aks etishi (O.Musurmonova); ehtiyojning o'quvchilarda ijtimoiy talab darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan muayyan sifatlarning etishmasligini ifodalashi (B.Xodjaev); ehtiyoj o'quvchining ijtimoiy pedagogik talablar doirasida faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy qo'zg'atuvchi vazifasini o'tashi va uni aqliy, ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy jihatdan qanoatlantirishida namoyon bo'lishi (Z.Salieva); ehtiyoj yakka shaxs va jamiyat a'zolari ruhiyatining ko'rsatkichi (D.Kosimova); bilishga ehtiyoj ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanishi omili (L.Bektursinova), ehtiyojlar ba'zan juda zaif, yopiq tarzda namoyon bo'ladigan qiziqishlar, intilishlar, moslashuvchanlik (Yu.Sharov); ehtiyojlar yangi ob'ektni yuzaga keltirsa, yangi ob'ekt o'z navbatida boshqa ehtiyojni keltirib chiqarishi (T.Pavlova); ob'ekt va sub'ektlar o'rtasidagi maxsus munosabatlar (I.Makarova); kishilar hayotining ob'ektiv zaruriy sharti (T.Kaptan); terminal va instrumental qadriyatlarining asosi (M.Rokich) ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

Mutolaa masalasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar o'qish ehtiyojlarini shaxsning ma'naviy ehtiyojlari guruhida etakchi o'rin tutuvchi informasion ehtiyojlarning alohida turi sifatida qayd

---

<sup>1</sup>Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари док. дисс... – Тошкент, 1993. – 364 б; Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 314 б; Салиева З.Т. Педагогика коллежи ўқувчиларининг маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантириш – касбий ижтимоийлаштириш омили сифатида: педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2010. – 146 б; Қосимова Д.Х. Ўқувчиларда маънавий кадриятларни эгаллаш эҳтиёжини шакллантириш тизими: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy). ...дисс. – Наманган, 2019. – 179 б; Бектурсынова Л. Х. Педагогик фасилитация воситасида талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy). ...дисс. – Нукус, 2019. – 165 б; Шаров Ю.В. Осознание учащимися значимости знаний — условие формирования их познавательных потребностей // Формирование духовных потребностей школьников: сборник статей / под редакцией Ю.В. Шарова. — Новосибирск: НГПИ, 1996. – С.19-29; Павлова А.С. Мотивы чтения в типологизации читателей // Психология чтения и проблемы типологии читателей: сборник науч. трудов. – Ленинград, 1994. – С. 69-75; Макарова И.А. Формирование духовных потребностей у старшеклассников (На материале уроков литературы): Дис. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2003. – 200 с; Каптан Т.Н. Формирование духовных потребностей старшеклассников в процессе урочной и внеурочной деятельности (На опыте изучения литературы): Дис. ...канд. пед. наук. – Москва, 1995. – 173 с.

etishgan (V.A.Borodina, I.I. Tixomirova va boshqalar)<sup>1</sup>. Informatsion ehtiyojlar turli mazmunga ega bo'lishi mumkin: bilish, o'quv, kasbiy, rekreatsion va h.k. Umumlashgan ko'rinishda – hayot mazmunini anglashning ideal ehtiyoji; jamiyatdagi me'yor, madaniyat, ma'lum bir faoliyatni bajarish uchun egallangan bilimlar bilan aloqador ijtimoiy ehtiyojlar; o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji.

Bizningcha, ehtiyoj inson faoliyati uchun zarur axborot va bilimlarni egallash, hayot mazmunini anglash, kitob va o'qishga oshno qilmasdan shakllantirish mumkin bo'lmagan madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishga zarurat sezishdir. O'qish istagini belgilab beruvchi motivlardan farqli ravishda ehtiyoj ko'proq mutolaaning pragmatik maqsadini anglash bilan tavsiflanadigan va faol kitobxonlik manbaini aks ettiradigan mavjud zaruriyat asosida yuzaga keladi.

I.I.Tixomirovaning fikricha, bunday dolzarb ehtiyojni yuzaga keltiruvchi zamonaviy bolaning o'qish motivasiyasi bosma asarga kitobxonlik talabining etakchi omilini o'zida aks ettiradi<sup>2</sup>. V.A.Borodina mutolaa ehtiyoji deganda o'qish faoliyatining shakllanishi, mavjudligi va rivojlanishi zarurligi anglanadigan va ob'ektga ehtiyoj seziladigan shaxs holatini tushunadi. Mazkur ehtiyoj uni qoniqtirish jarayonida amalga oshadi va kitobxonni rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Mutolaaga ehtiyoj qayta-qayta takrorlanuvchi xususiyatga ega. Ularning rivojlanishi kitobxonning ma'lum bir ehtiyojini qondiruvchi o'qish predmeti, uning mavzu doirasining o'zgarishi hisobiga sodir bo'ladi<sup>3</sup>. Biroq eng asosiysi, mutolaaga ehtiyoj o'quvchi va uning ota-onasining kitob o'qishni qadriyat deb bilishi, o'sib kelayotgan avlodning yangi hayotiy voqeliklarga muvaffaqiyatli o'z-o'zini tayyorlashi uchun zarurligini tushunishida yorqin namoyon bo'ladi. Bu holatda aynan kitob o'qishga ma'naviy ehtiyojni shakllantirish haqida gapirish mumkin.

Mutolaaga ehtiyoj uni shakllantirish va rivojlantirishni harakatga keltiruvchi kuch – shaxsning motivasion sohasi bilan

---

<sup>1</sup> Бородина В. А., Бородин С. М. Мотивация в структуре чтения // Чтение детей и подростков: мотивы и потребности: сб. статей и учеб.метод. материалов. – СПб.: ЛЕМА, 2005. – С. 39-45.

<sup>2</sup> Тихомирова И.И. Великое переселение в мир духовности // Библиотека. – Москва, 2002. – № 2. – С.41-43

<sup>3</sup> Бородина В. А., Бородин С. М. Мотивация в структуре чтения // Чтение детей и подростков: мотивы и потребности: сб. статей и учеб.метод. материалов. – СПб.: ЛЕМА, 2005. – С. 39-45.

chambarchas bog‘liq. Unda shaxsiy va ijtimoiy qiziqishlarning uyg‘unligi, ideallarga intilish, adolatlilik, inson va boshqa jonzotlarga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, ijtimoiy ahamiyatga ega sifatlar kabi axloqiy me‘yorlarga ongli munosabat shakllanadi. Shaxsning axloqiy mo‘ljallariga, hayotiy maqsadlari, o‘zining majburiyatlariga munosabat, “boshqalar”ga ehtiyoj sezish – motivasion sohaning namoyon bo‘lishidir.

Motivasiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig‘indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma‘noni bildiradi<sup>1</sup>. Adabiyotlarda motiv tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, A.Maslou motivni ehtiyoj bilan bog‘lasa, S.L.Rubinshteyn motivni mazkur ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi,<sup>2</sup> deb hisoblaydi. A.N.Leontev motivni ehtiyojlarni qanoatlantirishga inson faoliyatini yo‘naltiradigan va uni qo‘zg‘atadigan ob‘ektivlik deb hisoblaydi<sup>3</sup>. L.I.Bojovichning fikricha, motiv nafaqat tashqi ob‘ektiv omillar, balki tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular, bir so‘z bilan aytganda ichki sub‘ektiv omillar ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin<sup>4</sup>. A.A.Reanning ta‘rificha, motiv deb shaxsni faoliyatning u yoki bu turiga ichki jihatdan undashga aytiladi<sup>5</sup>. V.K.Vilyunas motivni qo‘zg‘alish va faoliyat uchun javob beradigan jarayonlar tizimi deb hisoblaydi<sup>6</sup>.

Sh.S.Shodmonovanning fikricha, olimlarning motivlarga bergan tasniflari turlicha bo‘lib, ularning ayrimlari insonda vujudga keluvchi holatlarni, ya‘ni insonni harakatga keltiruvchi holatlarni motiv deb atashsa, ayrimlari insonlarning maqsadi, qiziqishi, orzu-istagi, niyati, intilishi, manfaati, ehtiyoji va e‘tiqodlarini motiv sifatida keltirishadi, yana boshqa birlari motivlarni jarayon sifatida talqin etishgan.

---

<sup>1</sup> Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларининг мустақил фикрлашини ривожлантиришнинг дидактик асослари (5-7 синф тарих дарслари мисолида). педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 172б

<sup>2</sup> Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2010. – 713 с.

<sup>3</sup> Леонтьев А.Н. К теории развития психики ребенка// Хрестоматия по возрастной психологии. – Москва: ИПП, 1996. – 700 с

<sup>4</sup> Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – СПб.: Питер, 2008. – 398 с

<sup>5</sup> Реан А.А., Баранов А.А. Факторы стресса устойчивости учителей// Вопросы психологии. – Москва, 1997, №1. – С. 45-55

<sup>6</sup> Виллюнас В.К. Психология эмоциональных явлений. – Москва: Изд. МГУ, 1996. – 366 с; Шодмонова Ш.С. Талабаларда мустақиллик тафаккурини ривожлантириш ва ривожлантириш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. –176 б.



Tadqiq etilayotgan muammo nuqtai nazaridan biz uchun o‘qishga ehtiyojni shakllantirish jarayonida qo‘zg‘atuvchi, harakatlantiruvchi kuch sifatida motiv masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli matn va adabiyotlarga munosabatni rag‘batlantiruvchi, ijtimoiy sub'ektlarning kitobxonligini rivojlantirishni aniqlab beruvchi hamda mutolaa yo‘nalishini belgilab beruvchi ichki va tashqi undovchi omillar tizimini tahlil etish asosida V.A.Borodina o‘qish motiviga “mutolaaga bo‘lgan ehtiyoj, kitobxonlik faoliyatiga da‘vat qilish” deb ta’rif beradi. Motivlar ehtiyojlarning namoyon bo‘lishi va aks etishi, yaxlitlikda kitobxonlikka undovchi va ma'lum darajada kitobxonlar o‘rtasida samarali muloqotni yuzaga keltiruvchi ahamiyatga egadir. Aynan ular insonning hayotiy faoliyati jarayonida ko‘plab mutolaaga ehtiyojlarni qondirilish tavsifini aniqlab beradi <sup>1</sup>.

Ehtiyoj va motivlarning aloqadorligiga e’tibor qaratish asosida A.V.Shmidt kitobxonlik faoliyati asosida kitob o‘qishga qiziqish va ehtiyojlar ko‘rinishida yuzaga chiquvchi motivlar yotishini qayd etib o‘tadi. Kitobxonlik faoliyati hamma vaqt ham to‘liq motivlashmaydi, odatda kitobxonda uning ijtimoiy tajribasi, individual-tipik o‘ziga xosliklari va psixologik tavsifini aks ettiruvchi bir qancha motivlar mavjud bo‘ladi<sup>2</sup>.

S.R.Pribilix o‘qish motivlari va kitob tanlash mezonlarini tahlil etishda germaniyalik olim Ruttning qarashlariga tayangan holda fikrlash, tasavvurni rivojlantirish ehtiyojlari, shaxslilik, ma'naviy muloqotni takomillashtirish, o‘zining ma'naviy sifatlarini takomillashtirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish kabilarga asoslanib, “yuksak badiiylikka ega” adabiyotlarni o‘qishga doir yigirma ettita ijobiy motivlarini ajratib ko‘rsatgan<sup>3</sup>.

Shuningdek, germaniyalik olim Rutt “kam badiiy ta'sirchanlik”ka ega adabiyotlarni o‘qishga ishtiyoqni yuzaga keltiruvchi salbiy motivlarni ham ajratib ko‘rsatgan. Bunday motivlarga “ta'qiqlangan” narsalarni bajarishga urinish istagi, yon

---

<sup>1</sup> Бородина В. А., Бородин С. М. Мотивация в структуре чтения // Чтение детей и подростков: мотивы и потребности: сб. статей и учеб.метод. материалов. – СПб.: ЛЕМА, 2005. – С. 39-45.

<sup>2</sup> Шмидт А.В. Мотивы и мотивация посещения библиотеки // Науч. и техн. библиотеки. – Москва, 2003. - № 5. – С. 46-54.

<sup>3</sup> Прибылых С.Р. Формирование читательских интересов учащихся старших классов в процессе преподавания литературы: Дис. ... канд. пед. наук. – Якутск, 2004. – 173 с

atrofdagilarga befarqlik, dangasalik kabilar kiritilgan. Bunday adabiyotlarni o‘qish motivlarining mavjudligi oqibatida bolalarda o‘qish malakalarining etarli rivojlanmasligi, badiiy asarlarni tanqidiy baholay olmaslik, til boyligining kamligi kuzatiladi.

O‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan V.S.Sobkin va A.K.Pisarskiylar o‘qish motivlari tuzilmasiga taalluqli besh omilni ajratib ko‘rsatishgan:

- bilishga aloqador motivlar;
- axloqiy ideallarni izlash bilan bog‘liq motivlar;
- madaniy merosni o‘zlashtirish istagi;
- yaqin ijtimoiy muhitning ta'siri;
- emosional tajribani boyitish istagi<sup>1</sup>.

Bu esa, bizga o‘qish motivlarini quyidagicha saralash imkonini berdi:

1. Shaxs faoliyati sohasi bilan bog‘liq:

- kognitiv faoliyat bilan bog‘liq o‘qish motivlari;
- kasbiy faoliyat bilan bog‘liq o‘qish motivlari;
- bo‘sh vaqtni tashkil etishga doir o‘qish motivlari.

2. Sub'ektning hayotiy ehtiyojlari bilan bog‘liq;

- ijtimoiy-maishiy turmush uchun zarur axborotlar olish bilan bog‘liq o‘qish motivlari;

- turmush tarzi, (uyqudan oldin kitob o‘qish) bilan bog‘liq motivlar.

3. Shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq:

- xulq-atvor me'yorlari haqidagi tasavvurlar bilan bog‘liq o‘qish motivlari;

- obro‘ va ma'lum bir maqomni egallash istagiga doir o‘qish motivlari;

- so‘nggi urf- odatga aylangan narsalar haqida ma'lumotga ega bo‘lish bilan bog‘liq o‘qish motivlari.

Kitobning nomi, tashqi ko‘rinishi, illyustrasiyasi orqali ham mutolaaga shaxsiy motivasiya yuzaga keladi, bu esa, o‘quvchida uning mazmuni bilan tanishish istagini paydo qiladi. Kitob o‘qishga nisbatan “motivasiya” atamasidan insonning kitob mutolaasiga

---

<sup>1</sup> Собкин В.С., Писарский П.С. Изучение круга чтения у старшеклассников // Вопросы психологии. – Москва, 1994. - № 5. – С. 43-57

yoʻnalganligining sabab va mexanizmlarini tadqiq etish maqsadida foydalaniladi. Agar kitob oʻqishga ichki motivasiya mavjud boʻlmasa, bu ijobiy holat emas. Kitobdan olingan bilimlar oʻz-oʻzidan qalbni tarbiyalashga xizmat qilmaydi. Buning uchun kitob oʻqishning eng muhim motivi hisoblangan ichki (shaxsiy, ma'naviy) xohish zarur. Undagi harakatga keltiruvchi kuch – yaxshi yozilgan kitob bilan muloqot qilishga ichki ehtiyojdir. Bunday ehtiyoj shaxsning rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi va oʻz-oʻzini takomillashtirishga intilish tuygʻusi bilan ham uygʻundir.

Shu nuqtai nazardan S.V.Ivanovanning fikricha, oʻspirinning qoʻliga tushgan kitobdagi axborot manbalari bilan ehtiyotkorona munosabatda boʻlishga oʻrgatish juda muhim boʻlib, kitobxon sifatida unda turli oʻy-fikrlarni uygʻotishi, uning ma'naviy qiyofasiga ijobiy ta'sir koʻrsatishi, kattalar va tengdoshlari uchun ham qiziqarli ekanligini hisobga olishga odatlantirishi maqsadga muvofiq. Shunisi alohida ahamiyatliki, asar, undagi qahramonlar, voqeliklar shaxsiy tajriba va oʻspirinning qadriyatli ustanovkalari orqali oʻzlashtirilishi, shu bilan birga oʻzining fikrlari, oʻy-xayollarini kattalar va tengdoshlari bilan oʻrtoqlashish istagini hosil qilishi, qadriyatli munosabatni tarkib toptirishi, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim.<sup>1</sup>

Shaxsning faoliyat maqsadini anglashiga yoʻnalganligini ta'minlovchi hamda voqelikni toʻliq va chuqur aks ettiruvchi yangi dalillar bilan tanishishga imkon beruvchi bilish ehtiyojining namoyon boʻlish shakli sifatida qiziqish mutolaaga barqaror ehtiyojlarni shakllantirish jarayoniga sezilarli ta'sir koʻrsatadi<sup>2</sup>. U shaxs uchun qadri, jozibador narsa-buyum, voqelikka uning munosabatini belgilaydi. Qiziqishlarning mazmuni va xarakteri insondagi qiziqish va ehtiyojlar dinamikasi hamda qurilishi, xuddi shuningdek, uning voqelikni oʻzlashtirish shakl va vositalari bilan bogʻliqdir<sup>3</sup>. Bilishga yoʻnalganlik, emosional rang-baranglik kabi qiziqish belgilari ma'naviy ehtiyojlarga ham taalluqlidir. Shuning uchun ham koʻplab

---

<sup>1</sup> Иванова С.В. Формирование у учащихся эмоционально-ценностного отношения к творчеству А.С. Пушкина // Сборник «Материалы Международной научной конференции «А. С. Пушкин и мировая культура». – Москва: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1999. – С. 263-265.

<sup>2</sup> Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – Научное изд-во Большая Российская энциклопедия. – Москва: *Большая российская энциклопедия*, 2002. – 527 с.

<sup>3</sup> Словарь по социальной педагогике: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Авт.-сост. Л.В. Мардахаев. – Москва: Академия, 2002. – 368 с.

tadqiqotchilar qiziqish asosida hamma vaqt u yoki bu ehtiyoj ildizi mavjud bo'lishini hisobga olib, ularning o'zaro aloqadorligini qayd etib o'tishgan.

Qiziqishlar ehtiyojlardan ob'ektning anglanganlik darajasi bilan farqlanadi: ehtiyojning anglanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p qiziqishlarni paydo qiladi. Etarlicha anglangan ehtiyoj qiziqishni hosil qilishi mumkin. Biroq qiziqishlar inson faoliyatiga mos ravishda amalga oshib, o'z navbatida yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ehtiyoj va qiziqishlarning aloqadorligi bilishga ehtiyoj va qiziqishlarni tahlil etishda yanada aniq namoyon bo'ladi.

Har bir insonda bilish ehtiyojlari ma'lum darajada rivojlangan bo'ladi. Shaxsning rivojlanish mantig'i ishtiyoq, intilish, keyinchalik qiziqishning yuzaga kelish bosqichlariga bog'liq. Shaxsiy bilimlar, ya'ni ma'lum bir bilim sohasi inson uchun joziba kasb etadi (bu erda individual qobiliyatlar, intilish, turli motivlarning ta'siri alohida ahamiyatga ega): atrof-muhit bilan tanishish jarayonida bilish qobiliyati aniq tanlovga yo'nalganlik kasb etadi.

Ehtiyojlarni qondirishning his qilish bilan bog'liq bilish quvonchidan bahramand bo'lish tuyg'usi bilishga qiziqishni shakllantirish uchun muhim rag'bat vazifasini bajaradi, uning asosida esa, bilimga chanqoqlik yotadi.

O'quvchilarning mutolaaga qiziqishi bilishga qiziqishning maxsus shakllaridan biri hisoblanadi. Bilishga qiziqish axborotni o'zlashtirish va qayta ishlashdan iborat. Voqeliklar jarayoniga ishtirok etishga qiziqish insonni boshqa odamlarning tuyg'ulari bilan hamroh bo'lishiga imkon beradi. Qiziqishning mazkur ikki turi badiiy asarni o'qish jarayonida o'zaro uyg'un tarzda namoyon bo'ladi.

Mutolaaga ehtiyojni tahlil etish asosida Yu.V.Sharov insonning muhim madaniy ehtiyojlaridan biri sifatida uning kitob o'qishga qiziqish yo'nalishini qabul qilishni taklif etadi. Natijada o'quvchilardan birining she'riyatga, boshqasining – ijtimoiy-maishiy roman, ilmiy-fantastik qissa, uchinchisining – detektiv asarlarga qiziqishini belgilab beruvchi mutolaa yo'nalishi shakllanadi.

I.I.Tixomirova insonning mutolaaga ehtiyoji va qiziqishi o'rtasidagi dialektik aloqadorlik mavjudligini ta'kidlab o'tadi<sup>1</sup>. Qiziqish va motivasiyaning aloqasi haqida fikr yuritib, tadqiqotchi mutolaaga qiziqish – bu kitoblarning o'quvchi ichki olamiga ta'siri, ya'ni interiorizasiya (ichki qabul qilinishi)ni ta'minlovchi, o'qish jarayonining ijodiylikni qo'llab - quvvatlovchi barcha motivlar birligi ekanligini qayd etib o'tgan. O'qishga qiziqish – istak ko'rinishidagi emas, zaruriy motivasiya. O'quvchilarning mutolaaga qiziqishini tadqiq etish asosida S.R.Pribilix uni insonning tug'ma bilish ehtiyojlariga asoslangan chuqur ichki motivasiya sifatida talqin qiladi<sup>2</sup>.

V.A.Borodina mutolaaga qiziqishni mavjud ehtiyojlarning anglangan shakli, uning yanada aniqlashuvi sifatida e'tirof etadi. Ularni o'qilayotgan asar mazmuni, mutolaa ehtiyojlari bo'yicha baholaydi. Ya'ni, insonning kitob o'qishga xohish-istagi mutolaa ehtiyojining predmetini o'zida aks ettiradi. O'qishga qiziqish – bu kitob o'qishga ehtiyoj asosida yuzaga keladigan o'quvchining asarlarga nisbatan tanlov erkinligi. Bunday tanlovga asoslangan munosabatni tadqiqotchi ma'lum sohaga doir adabiyotni o'qish jarayonida o'quvchida yuzaga keluvchi emosional-estetik va bilish-kommunikativ munosabat sifatida talqin qilgan.<sup>3</sup>

O'quvchilarning mutolaa uchun u yoki bu kitobni tanlashiga ikki guruh omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchisi – ijtimoiy institutlar va madaniy-ma'rifiy muassasalar: ommaviy axborot vositalari, kutubxona, kitob do'konlari. Ikkinchisi – shaxslararo omillar: oila, pedagoglar, tengdoshlar.

Shaxslararo muloqot o'quvchi hayotida muhim rol o'ynaydi. Bunday muloqot turi ayniqsa, shaxs shakllanishi davrida alohida ahamiyatga ega bo'lib, bevosita va ikki tomonlama xarakter kasb etadi.

Axborot manbalari qatorida ota-onalar tengdoshlar va adabiyot o'qituvchisidan keyingi uchinchi o'rinni egallagan (16%) (2.1.2-

---

<sup>1</sup> Тихомирова И.И. Великое переселение в мир духовности // Библиотека. – Москва, 2002. – № 2. – С.41-43.

<sup>2</sup> Прибылых С.Р. Формирование читательских интересов учащихся старших классов в процессе преподавания литературы: Дис. ... канд. пед. наук. – Якутск, 2004. – 173 с.

<sup>3</sup> Бородина В. А., Бородин С. М. Мотивация в структуре чтения // Чтение детей и подростков: мотивы и потребности: сб. статей и учеб.метод. материалов. – СПб.: ЛЕМА, 2005. – С. 39-45.

jadvalga qarang). Miqdor ko'rsatkichlari o'quvchilarning kitob tanlash jarayoniga ota-onalarning ta'siri pastligini, bu ta'sir bola ulg'aygan sari kamayib borishi haqidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

Bir tomondan o'spirin yoshidagi o'quvchilarda mustaqillikning namoyon bo'lishi, kitob o'qish masalasida ota-onalarning ta'sirini pasaytiradi va ular ko'proq tengdoshlari bilan o'rtoqlashishadi, boshqa tomondan ota-onalarning ham bolalarining kitob mutolaasiga befarq munosabati ularda o'qishga qiziqishni kamaytiradi. Natijada mutolaa jarayoniga oilaning bunday munosabati uning o'rnini shaxslararo muloqotning boshqa omillari egallashiga olib keladi.

Biror bir kitobning o'quvchilar orasida ommalashuvi – kitobxonlar o'rtasidagi o'zaro faol muloqot natijasidir. Yon atrofdagilarning kitobga kuchli motivni hosil qilishi uning keng ommalashuviga olib keladi. Yoshlikka xos konformizm( lot.o'xshash, muvofiq - mavjud tartibga, g'oya va fikrlarga moslashish) urfning ta'sirini kuchaytiradi. Urfga aylangan voqelikning ijobiy va salbiy jihatini farqlash lozim. Yoshlar orasida yuksak badiiy saviyada yozilgan asarlarning ommalashuvi o'z-o'zidan kishini quvontiradi. Biroq “osmondan tushgandek” urfga aylangan asarlar haqida o'quvchilar bilan jiddiy suhbat o'tkazish maqsadga muvofiq.

Kitobxon o'quvchini shakllantirishga fan o'qituvchilari ham samarali ta'sir ko'rsatishi lozim. Biroq sinaluvchilarning atigi 6 foizi ularning ko'rsatmalari asosida kitob tanlashini ma'lum qilgan. Sababi shundaki, o'qituvchining kitoblar haqida ma'lumotga egalik darajasining pastligi, kitoblar vositasida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga etarlicha e'tibor qaratmasligi uning asosiy axborot manbai bo'lmasligiga olib kelgan bo'lishi mumkin. Kitob tanlash bo'yicha tavsiyalar o'qitilayotgan fan bilan to'g'ridan to'g'ri aloqadorlik kasb etib, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga barcha fan o'qituvchilarining integrativ yondashuvi yo'qligini ko'rsatadi.

Kutubxonachini ham kitobxon-o'quvchini rivojlantirishdagi rolining pastligi sababli u ham fan o'qituvchilari singari so'nggi o'rinni egallagan. Bu esa, akademik lisey o'quvchilarining ko'pchiligi kutubxonachi bilan doimiy aloqada emasligini ko'rsatadi,

ya'ni ular kutubxonaga kirmaydi, unga kitob tanlash masalasida yordam so'rab murojaat qilmaydi. Boshqa tomondan esa, ko'pchilik kutubxonachilarning o'quvchilarda mutolaa madaniyatining rivojlanganligi haqida noto'g'ri fikrga egaliklari va ularga e'tiborsiz munosabatda bo'lishlari ko'rsatilgan.

Axborotning audivizual vositalari imkoniyatlarini uyg'unlashtirish, televidenie va kino butun mamlakat aholisi o'rtasida kitoblarni targ'ib qilishda katta imkoniyat beradi. Televidenie kitob tanlashda katta imkoniyatlarga ega: bu maxsus teleeshittirishlar, reklama roliklari va adabiy o'yinlar va boshqalar. Biroq tadqiqot jarayonida biz so'nggi vaqtlarda televideniyaning o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishdagi o'rining kamayganligiga guvoh bo'ldik. Lekin kinomotografiyaning ta'siri mavjudligini ko'rish mumkin. Agar badiiy asar ekran yuzini ko'rganidan so'ng 2019 yilda birorta sinaluvchi asarning o'zini o'qishga murojaat qilmagan bo'lsa, 2020 yilda 24 foiz o'quvchi filmni ko'rganidan so'ng kitobni o'qiganligini tasdiqlagan. Bu erda ikkita omilning ta'siri mavjud: kinofilmning ommalashganligi va birlamchi manba bilan taqqoslash istagining shaxsiy idrok etilishi. Odatda, o'quvchilar agar kinofilm ularda ijobiy taassurot qoldirgan bo'lsa, yoki uning ma'lum bir qismi asosida film ishlangan bo'lsa, asarning o'zini topib o'qishga harakat qilishadi.

O'quvchilarning ko'pchiligi hech qanday yordamsiz kitobni mustaqil tanlab o'qiishini ma'lum qilgan (2019 yilda – 66 %, 2020 yilda – 54 %). “Akademik litsey” va “o'zi” uchun kitob o'qish – ikki mustaqil soha. Agar “o'zi uchun” o'qish haqida gap borsa, o'qilayotgan kitoblar tarkibi darhol o'zgaradi, ya'ni o'quvchilar ko'proq badiiy saviyasi yuqori bo'lmagan kitoblarga murojaat qilishadi. Bunday yuqori ko'rsatkichning ana shu singari xavfini ham inkor qilib bo'lmaydi. O'spirin yoshidagi o'g'il va qiz bolalar hali kitoblarni mustaqil tanlashga to'liq layoqatli emas, ularni ko'proq kitobning yorqin muqovasi, “ajoyib” nomga egaligi, muallifning mashhurligi o'ziga jalb etadi, shuningdek, kamroq darajada tasodifiy tanlash holatlari ham uchraydi. Bu holatda tanlangan kitobning badiiy qimmatini ular uchun alohida ahamiyat kasb etmaydi.

Uyda o'quvchining shaxsiy kutubxonasining mavjudligi mutolaa madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ana shu

sababli biz anketa so‘rovidan o‘quvchilardan uydagi kutubxonasi haqida qisqacha ma'lumot berishni so‘ragan edik. O‘quvchilarning javoblari uyda kattalarning maqsadga muvofiq ravishda kitoblarni to‘plamasligi bolalarning mutolaa madaniyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi haqidagi bizning fikrimizni tasdiqladi. Asosan, o‘quvchilar kitoblarning soni, ularning nomlarini sanash bilan cheklanishgan. O‘quvchilarning juda kam qismi qandaydir asoslarga ko‘ra o‘zining kutubxonasidagi adabiyotlarni tasniflashga harakat qilishgan. Shuningdek, ushbu savolga javoblardan o‘quvchilarni ko‘pchiligining shaxsiy va oilaviy kutubxonasi yo‘qligi ma'lum bo‘ldi.

Mazkur muammo doirasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar o‘quvchilarning kitob o‘qish madaniyatiga samarali ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarga oila, ko‘cha, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va akademik liseydan tashqari turli tadbirlar, do‘stlari va tengdoshlarini kiritishadi.

Mutaxassislar bolaning rivojlanishiga, unda kitobga qiziqishni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni tashqi va ichki deb ajratadi.

Tashqi omillarga jamiyat va ijtimoiy institutlar (akademik lisey, kutubxona, dam olish maskanlari) kiradi.

Ichki omillar bola shaxsining individual xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlashtiriladi. Bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari kitob o‘qishga qiziqishining shakllanish shart-sharoitlari sifatida ko‘rinadi.

Olima S.A.Chinieva o‘spirinlarning kitobxon bo‘lib ulg‘ayishi oilasining o‘qimishlilik darajasiga bog‘liq deb ko‘rsatadi. Uning fikricha, “Bola kitob o‘qishni bilgan taqdirdagina, kitob ularning manaviy hayotida muhim rol uynaydi. Buning uchun esa kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o‘rishga yo‘llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o‘qib berilgan birinchi kitob bo‘lsa, ikkinchisi bola otasi va onasining o‘qishini eshitib, badiiy obrazlar go‘zalligini his etishidir”<sup>1</sup>.

Bolaning kitobxon bo‘lib ulg‘ayishida oilaning, ota-onaning o‘rni beqiyos ekanligini buyuk allomalarimizdan boshlab to bugungi tadqiqotchilarimizgacha – barchasi isbotlab bergan.

---

<sup>1</sup> Чиниева С.А. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмирлар маданиятини шакллантириш. – Тошкент, 2006. – 26б



Masalan, olim B.I.Ganieva bolada o‘qish madaniyatini tarbiyalashda oilaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat, deb ko‘rsatadi:

1. O‘z farzandlarida barcha axborot manbalariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish.

2. Mavzu jihatidan rang-barang, turli-tuman manbalarga boy bo‘lgan shaxsiy oilaviy kutubxona tashkil etish.

3. Oila a'zolarining yoshiga, qiziqishlariga, intellektual salohiyatiga mos adabiyotni tanlab o‘qishni o‘rgatish.

4. O‘z farzandlarini kitoblardan foydalanish qoidalari bilan tanishtirib borish va bu orqali bolalar o‘qishini to‘g‘ri tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlarini taqsimlashda faolliklarini oshirish.

Oilaning bola tarbiyasidagi o‘rnining nihoyatda muhim ekanligini xisobga olsak, xar bir oilada shaxsiy kutubxonaning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Kichkina bo‘lsa ham, kitoblar yig‘ilgan javon yoki shkaf bo‘lishi, bolaning juda yoshligidan kitobga qadriyatli munosabatni bo‘lishini tarbiyalaydi. Chunki kitobxonlik birgina kitob o‘qish bilangina belgilanmaydi. Kitobxonlik kitob xarid qilish, uni saqlash va kitob bilan muomalada yuksak madaniyatlilik namunasini ko‘rsatish kabilarni ham o‘z ichiga oladigan keng tushunchadir. Ular orasida kitobni saqlay bilish, uni “da’volab”, umrini uzaytirish, oqilona foydalana olish kabi qirralari alohida ahamiyat kasb etadi. Kitobni o‘qib bo‘lgandan, uni joyiga qo‘yish, vaqti-vaqti bilan changini artish, tozalab turish – bu bolalarning oiladagi muhim vazifasi sifatida yuklatilishi kerak.

O‘quvchilarda kitobxonlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil – ta'lim muassasalaridagi kutubxonalardir. Tadqiqot davomida kutubxonaning bolalarni kitobxon sifatida tarbiyalashdagi imkoniyatlari xususida bir qator kutubxonashunos olimlarning qarashlarini o‘rgandik. Jumladan, B.I.Ganieva “kutubxona mustaqil ravishda kitob tanlashni, shu kitobdan bilim olish yo‘llarini, o‘qilgan narsalar haqida fikr yuritishni va unga tanqidiy qarashni, shu bilan barcha kitoblarni tartibli ravishda o‘qishni o‘rgatadi” , degan haqli xulosaga kelgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ганиева Б.И. Кутубхоналарда болалар ўқиш маданиятини тарбиялашнинг педагогик имкониятлари. Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 160 б

O'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillardan biri turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi 2018 yil 12 maydagi PQ-3721-son Qarori mamlakatimizda kitobxonlik va mutolaa madaniyati rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.<sup>1</sup>

Ommaviy kutubxonalik o'qishini tiklash maqsadida "Yosh kitobxonlar" respublika tanlovini, akademik litseylarda "Dunyodagi hamma narsa haqida kitoblar", "Afsonaviy kaleydoskop", "Adabiy mehmonxona", "Axborot kuni", "Biz sizning bolaligingizni kitoblar bilan isitishingizni xohlaymiz", "Sevimli kitob", "Eng ko'p o'qiydigan sinf", "Eng ko'p o'qiydigan oila", "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor", "Men sevib o'qigan kitob", "Eng yaxshi kitobxon" tanlovlarini o'tkazish o'zining yaxshi samarasini bermoqda.

Tadqiqot doirasida akademik litsey o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirishning gender xususiyatlarini o'rganishga ham e'tibor qaratildi.

"Gender" atamasi 1968 yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. "Gender tarixi", "Gender psixologiyasi", "Falsafaning gender tomonlari", "Gender antropologiyasi", "Gender sosiologiyasi", keyinchalik esa "Gender pedagogikasi" kabi fan tarmoqlari shakllandi. "Gender" tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Бууюк алломалар, адіб ва мутафаккирларимиз иждодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида"ги 2018 йил 12 майдаги ПҚ-3721-сон Қарори / "Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил 15 май.

Mazkur tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog‘liqdir<sup>1</sup>.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: “Gender” inglizcha so‘z bo‘lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma'nosini anglatadi... Bu tushuncha erkaklar va ayollar o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy jihatlarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor, kutilgan natijalarni ifodalaydi”<sup>2</sup>. Sotsiologlar esa, gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: “Gender” ijtimoiy, biologik holat bo‘lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi”<sup>3</sup>. Psixologlar ham gender tushunchasiga o‘ziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko‘rinishidir”<sup>4</sup>. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug‘ma, qaysi biri esa ta'lim va tarbiya jarayonida shakllangani to‘g‘risida keskin munozaralar bormoqda. O‘g‘il va qiz bolalarning turli xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum bo‘ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.E.Taras, 2002) qizlar o‘g‘il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta'kidlashadi. O‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda o‘ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni engilroq qabul qilishadi. O‘zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O‘g‘il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o‘rganib, keyin unga baho berishadi”.Pedagogik ma'noda gender – o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy sosiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emosional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarni o‘z ichiga oladi<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. (Рус тилидан қисқар. Таржима). Олий ўқув юртлари учун. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 411 б.

<sup>2</sup> Фалсафа қисқача изоҳли луғат /Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов ва бошқ. Масъул муҳаррир: А.Жалолов. – Тошкент, Шарқ, 2004. – 384 б.

<sup>3</sup> Хрестоматия по курсу «Основы гендерных исследований» / Ред. О.А.Воронина. – Москва, 2000. – 216 с.

<sup>4</sup> Фрейд З. Энциклопедия психоанализа. – Москва, 1996. – 402 с.

<sup>5</sup> Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 2008. – 195 б.

Milliy pedagogikamizda kitobxonlikning gender farqlari masalasiga XXI asr boshlarida alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Shu bilan birga, ko'plab xorijiy olimlarning tadqiqotlarida turli jins vakillari hisoblangan kitobxonlarning xulq-atvor va didining o'ziga xosliklarini o'rganishga xilma-xil yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda kitoblarga muntazam murojaat qiladi, mutolaaga ko'p vaqt ajratishadi. J.Gellapning qator Evropa mamlakatlarida o'tkazgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ayollar erkaklarga qaraganda faol kitobxonlik bilan ajralib turadi. Fransuz tadqiqotchilarning ma'lumotlari bo'yicha bir yilda bir marta kitob o'qiydiganlar orasida ham ayollar etakchilik qilgan. Nemis olimlari ayollarning adabiyotga ehtiyoji yuqori ekanligini, erkaklarga nisbatan bir yarim barobar ko'proq o'qish istagini bildirishini ta'kidlab o'tishgan. Ular kitoblarni faqat sovg'a sifatida sotib olishni xohlashadi<sup>1</sup>.

Sotsiolog I.A. Butenko o'zining "XX asr so'nggida kitobxonlar va o'qish: sosiologik jihatlar" deb nomlangan monografiyasida nashriyotlar faoliyati va kutubxona ishidagi asosiy tendensiyalarni tadqiq etib, gender farqlariga ko'ra, zamonaviy kitobxonning ijtimoiy-psixologik qiyofasini aniqlashtirdi. "Umumpsixologik tavsifga ega muhim statistik ma'lumotlar ayollar va erkaklarning mutolaa va kitobxonlik faoliyatining o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi". Tadqiqotchi erkaklar va ayollarning mutolaa xususiyatini tadqiq etib quyidagi xulosaga kelgan: kitobga murojaatning asosiy sabablari – ish va hordiq chiqarish. Shuning uchun ish bilan bog'liq motivlar erkaklarga yaqin, ayollar ko'pincha kitobni dam olish uchun o'qishadi. "Ayollar uchun gedonistik (qadimgi yunoncha so'z "xursandchilik", "zavqlanish" ) intilish, erkaklar uchun esa pragmatiklik (pragmatik, pragma – ish, harakat) xosdir"<sup>2</sup>.

Shu bilan bog'liqlikda tadqiqotchi qiziqish va ishbop motivlarning nisbati asosida A.S.Pavlova tomonidan ishlab chiqilgan mutolaa tipologiyasiga e'tibor qaratgan. Ya'ni rasional-ayol tipi

---

<sup>1</sup> Бутенко И.А. Читатели и чтение на исходе 20 века: социологические аспекты. – Москва: Наука, 1997. – 132 с.

<sup>2</sup> Бутенко И.А. Читатели и чтение на исходе 20 века: социологические аспекты. – Москва: Наука, 1997. – 34 с.

uchun ba'zan ishga bog'liq motivlar bilan uyg'unlikda tarixiy asarlar, san'at, she'riyat, mumtoz adabiyot, tilshunoslik, adabiyotshunoslikka doir kitoblarga qiziqish kuchli. Ratsional-erkak tipi barcha adabiy-badiiy janrlarga munosabatda ishbop motivlar asosida yondashishi bilan ajralib turadi, mavzu yo'nalishiga qiziqish ko'rsatkichi o'rtachadan past.

O'quvchilarning mutolaaga qiziqishlarida gender-rolli tafovut ochiq namoyon bo'lmasada, biroq tadqiqot jarayonida o'g'il va qiz bolalar mutolaa qiladigan kitoblar mavzu doirasiga ko'ra bir-biridan farq qilishi kuzatildi.

Asar mavzusi bo'yicha qizlarda ishqiy romanlar etakchilik qiladi. Bizning fikrimizcha, qizlarning muhabbat tarixi haqida o'qishga ko'proq xiyonat, emosionallik va qahramonlarning shafqatsizligi, ularning erkaklar bilan munosabatidagi fojeaviy sir-asrorlar, biroq eng asosiysi asar nihoyasida hayotdan yaxshilik izlovchi, sadoqatli, adolatparvar qahramon g'olib bo'lishi va o'z baxtini topishi masalasi qiziqish uyg'otadi.

O'spirin yoshdagi o'g'il va qiz bolalarning u yoki bu asarni afzal deb bilishida namoyon bo'ladigan mazkur farqlarni badiiy idrokning o'ziga xosliklari nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, gender farqning mavjudligi shaxsiy-badiiy idrok etish darajasining pastligi bilan bog'liqligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Agar kitobxonning adabiy asarning o'ziga xosliklarini badiiy idrok etish darajasi yuqori bo'lsa, gender tafovut ahamiyatli rol o'ynamaydi. Asarni badiiy idrok etolmaslik uni hayotiy dalil sifatida maishiy darajada qabul qilinishiga olib keladi. Aynan san'atni "sodda-realistik" idrok etish o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishda gender tavofutning saqlanib qolishiga olib keladi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda mazkur tamoyil katta rol o'ynaydi.

Qiz bolalar ko'proq adabiyot dasturidagi asarlarni qayd etib o'tganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa, ularning badiiy kitoblarga qiziqishi ko'proq adabiyot darslarida o'rganilgan asarlar doirasidan kelib chiqishini ko'rsatadi.

Adabiyot darslarida o'rganilgan asarlar bilan cheklanish nafaqat qizlarda, balki o'g'il bolalarda ham uchrashi ularda shaxsiy yo'nalganlikning shakllanmaganligini ko'rsatadi. "Himoya reaksiyasi" sifatida adabiyot dasturidagi asarlarning nomlarini sanab

o‘tish bilan cheklanish individual tanlovdan o‘zini olib qochish, deb aytish mumkin. Bu bilan bog‘liqlikda shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, adabiyot dasturlariga kiritilgan badiiy asarlar o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida teng o‘rinni egallaydi.

Mutolaa madaniyatining rivojlanganlik darajasi ko‘p jihatdan kitob tanlash, yaxlitlikda o‘qish motivlariga bog‘liq. Biz shunga amin bo‘ldikki, o‘g‘il va qiz bolalarda ham baho olish hamda hordiq chiqarish uchun kitob o‘qish motivlari yetakchi o‘rin tutadi. Shunday qilib, mutolaa madaniyatini rivojlantirishning gender tafovutlarini o‘rganish ularning mustaqil o‘qishiga rahbarlik qilishda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash, qiz va o‘g‘il bolalar uchun alohida kitoblar ro‘yxatini tuzish imkonini beradi. Bunday yondashuv ularning har birining ehtiyojlarini qondirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish va kitobxonlik yo‘nalishini korreksiyalashning samarali metodlarini tanlab olishga yordam beradi.

## **2.2-§. Adabiy ta'limda o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi**

Mutolaa madaniyatini rivojlantirish jarayoni kitobxon-o‘quvchida fanga doir bilimlarni o‘zlashtirish va qo‘llash, ularni o‘zlashtirishning yangi shakllarini egallash, shuningdek, kitobxonlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan faollikni tarkib toptirishni talab etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishning etakchi maqsadi va tarkibiy asosi sifatida maxsus tashkil etilgan kitobxonlik faoliyatini rivojlantirish, asarni idrok etish va tushunishga o‘rgatish tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish mazmuni va asosiy komponentlarini; kitobxonlik faoliyatining turlarini; o‘qilgan asarlarning idrok etishning o‘ziga xosliklarini aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Metodist-olimlar istalgan madaniyat turining to‘rt umumiy elementini ajratib ko‘rsatishadi: 1) bilimlar zahirasiga egalik;

- 2) faoliyatning ma'lum usullarini amalga oshirish tajribasi;
- 3) yangi muammolarni hal etish bo‘yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- 4) axloqiy-estetik, hissiy-emosional tarbiyalanganlik tizimi.

I.S.Zbarskiy mutolaa madaniyatini “bilim, ko‘nikma va his-tuyg‘ular yig‘indisi” sifatida talqin qilib, unda uch o‘zaro birgalikda harakatlanuvchi komponent mavjudligini aniqlashtirgan:

1) kitobxonlik ongi, adabiy erudisiya darajasi o‘zida badiiy asarlar bilan amaliy tanishish, adabiyot nazariyasi va tarixi bo‘yicha zarur bilimlar doirasini egallash, asarlar va ularning janr xususiyatlarini tahlil qilish mantig‘ini o‘zlashtirish;

2) kitobxonlik tuyg‘usi o‘z ichiga aniq bir asarni idrok etishga qobiliyatlik, estetik did, ya'ni ma'lum mezonlar asosida san'at asarlarini baholash qobiliyati va shaxsda badiiy-estetik ideallarning mavjudligini qamrab oladi;

3) kitobxonlikka xos xulq-atvorga egalik mustaqil o‘qish sohasida bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish darajasida mutolaa madaniyati va insonning amaliy faoliyatining (adabiyot tanlash, uning ustida ishlash, kitoblarni targ‘ib qilish) mavjudligi va rivojlanganlik darajasini belgilab beradi<sup>1</sup>.

Tadqiqotchi olim fikr-mulohazalaridan kelib chiqib o‘quvchida mutolaa madaniyatini rivojlantirishda asosiy komponent sifatida, avvalo kitobxonlik ongini rivojlantirish orqali badiiy asarlar bilan amaliy tanishish, adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi va tarixi bo‘yicha zarur bilimlar doirasini egallash qobiliyatlarini, badiiy asarning janr xususiyatlarini tahlil qilish mantig‘ini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

N.Ya.Mesheryakov va L.Ya.Grishin ideal kitobxonning “psixologik portreti”ni o‘rganib, kitobxonlikka xos sifatlarga quyidagilarni qiritgan: tasavvurning rivojlanganligi, emotsional ekspressivlik, sezgirlik va intellekt<sup>2</sup>.

Badiiy asarni yuksak darajada idrok eta oladigan ideal kitobxonda tasavvur rivojlangan bo‘lishi, emosional obrazli xotira, empatik qobiliyatga egalik, badiiy asarning mazmuni bilan aloqadorlikda badiiy shakllarning yorqin o‘ziga xosliklarini ko‘ra olish kabi idrok darajalari bo‘lishi muhim sanaladi.

---

<sup>1</sup> Збарский И. С. Внеклассная работа по литературе (IV–VIII): пособие для учителя / И. С. Збарский, В. П. Полухина. – М.: Просвещение, 1991. – 208 с.

<sup>2</sup> Мещерякова, Н. Я. О формировании читательских умений на уроках литературы (К постановке вопроса) / Н. Я. Мещерякова, Л. Я. Гришина. Литература в школе. – 1991. – № 3. – С. 29–42

E.V.Karsalova o'quvchilarning mutolaa madaniyati komponentlari sifatidagi quyidagilarni ko'rsatgan: estetik did, (badiiy ijodning emotsional-obrazli tabiatiga e'tiborlilik, mazmun bilan aloqadorlikda badiiy shakllarning yorqin o'ziga xosliklarini ko'ra olish, ularning asar uchun xos emasligi va ahamiyatini tushunish; so'z sehrini his qilish (kutilmagan vaziyatlarda so'zni topib qo'llay olish, uning aniqligi, ifodaviyligi, obrazlilik, ko'p belgiga egaligini tushunish, o'ziga "tanish" so'z orqali mazmunni anglay olish qobiliyati; asarning badiiy tuzilishidagi yetakchi elementlarni ko'ra olish, ularning asardagi g'oyaviy-estetik rolini tushunish)"<sup>1</sup>.

"Mutolaa madaniyati"ning asosiy tarkibiy qismi sifatida metodist-olimlar M.P.Voyushina va E.P.Suvorova o'qilgan asarlarni idrok etish va bibliografik madaniyatni ajratib ko'rsatishadi<sup>2</sup>.

Mazkur sohada amalga oshirilgan izlanishlarga asoslanib, biz tadqiqot ishimizda o'quvchilarning mutolaa madaniyatining quyidagi komponentlarini aniqlashtirdik: bibliografik bilim va ko'nikmalar; adabiyot tarixi va nazariyasiga doir bilim va ko'nikmalarining zaruriy darajasi; nutqqa doir bilim va ko'nikmalar; o'qishga barqaror qiziqish va kitobxonlik motivasiyasining shakllanganligi; kitobxonlik erudisiyasi, o'qimishlilik; ifodali o'qish ko'nikmalariga egalik; turli badiiy asarlarni idrok etishga qobiliyatlilik; o'quvchilarning adabiy-ijodiy faoliyati bilan bog'liq ko'nikmalar.

Tayanch adabiy bilimlarning tarbiyaviy yo'naltiruvchi va pedagogik moslashuvchan tizimi va o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasiga asoslanib, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga xos nazariy va amaliy nuqtai nazarlarni aniqlashtirish mumkin: a) maktabdagi adabiy ta'lim mazmuni va tuzilmasi ijtimoiy talablarga javob berishi va o'quvchilar uchun shaxsiy ahamiyat kasb etishi zarur; b) o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol hamkorlikni ta'minlashi lozim; v) o'quvchilarning o'quv fani va so'z san'ati sifatida kitobga, adabiyotga muntazam hamda barqaror qiziqishlarini

---

<sup>1</sup>Карсалова Е.В. Методические основы руководства читательской деятельностью школьников на уроках литературы в среднихстарших классах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 1991. – 41 с.

<sup>2</sup> Суворова Е.П. Формирование интеллектуально-речевой и читательской культуры школьников: междисциплинарный подход: науч.-метод. пособие / Е. П. Суворова, М. П. Воюшина, Е. А. Купирова. – СПб.: ООО «Книжный Дом», 2008. – 248 с.



qo'llab-quvvatlash; o'qitish jarayonida o'qishning barcha turlarini uyg'un tarzda amalga oshirish.

“Kitobxonlik faoliyati” atamasi psixologlar tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan va metodik ishlarda keng foydalaniladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar kitobxonlik faoliyatini faqat asarni idrok etishga nisbatan talqin qilishadi. Adabiy asarni idrok etish – qator obrazli-emotsional, fikriy, assosiativ (“o'z'aro bog'liqlik”), mnemonik (yun.”eslab qolish”) harakatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijodiy faoliyat. “Estetik rivojlangan o'quvchining kitobxonlik faoliyati uning ehtiyojlari darajasi bilan bog'liqlikda turli davrlarda ko'proq yoki kamroq ko'rinishda jadal, individuallikka ega muntazam o'z-o'zini tashkillashtiruvchi jarayonlar va jamiyatning madaniy rivojlanish holatini aks ettiradi”<sup>1</sup>.

Kitobning anglanishi ijtimoiy ongda badiiy idrok etish madaniyatining yuqori darajasini qaror toptirish bilan belgilanadi. Badiiy saviyaning pastligi eng zo'r yozilgan badiiy asarlar matni va mazmunini to'liq idrok eta olmaslik va ma'naviy muloqot sohasining degradasiyasiga olib keladi.

B.O.Korman qayd etib o'tganidek, “asarni idrok etish estetik reallik elementi sifatida kitobxonning shakllanish jarayonidir”<sup>2</sup>. U.Ekoning fikricha, “yozuvchilik – hamma vaqt o'zining ideal o'quvchisini hisobga olib, voqelikni bayon qilishdir”. Shuning uchun ham real kitobxonga aylanish uchun badiiy kompetentlilik – badiiy idrok etish madaniyatiga ega bo'lish zarur. Bu har bir o'quvchiga o'ziga xos ma'naviy mas'uliyat yuklaydi.

Yaratilgan badiiy asarni idrok etish va unda muallif g'oyasining anglanishi jarayoni kitobxon-o'quvchi shaxsining ko'plab o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro aloqadorligi asosida amalga oshadi. O'quvchilarni badiiy asarlarni idrok etishining o'ziga xosliklari M.Mirqosimova<sup>3</sup>, B.To'xliev, Q.Yo'ldoshev, Q.Husanboeva,

<sup>1</sup> Карсалова Е.В. Методические основы руководства читательской деятельностью школьников на уроках литературы в средних и старших классах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 1991. – 41 с

<sup>2</sup> Корман Б. О. Избранные труды по теории и истории литературы / Б. О. Корман. – Ижевск: Изд-во Удм. ун-та, 1992. – 235

<sup>3</sup> Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 112 б; Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 157 б; Ўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишининг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 256 б; Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга

R.Niyozmetova, O.Musurmonova, S.Kambarova,  
Sh.Xujamberdieva, S.P.Lavlinский, V.A.Koxanova, G.Westhoff  
kabilarning izlanishlarida yoritib berilgan.

С.Камбарова ўринли таъкидлаб ўтганидек, “Бадий асарни идрок этиш матн мазмунини тушуниш ва англаш жараёни билан узвийликда кечади. Идрок қилиш асосида естетик ҳис-туйғулар, бадий тафаккур шаклланади, тасаввурлар ҳосил бўлади. Натижада ўқувчилар тафаккури воқеликка яқинлашади. Ўқувчи ўрганилаётган асар моҳиятини қанчалик тез, тўла ва аниқ идрок қилса, ақлан ва руҳан бойишига замин яратилади. Идрок қилиш йўли билан ҳосил қилинган билим, бадий образ ёки образли умумлашмалар хотирада узок вақт сақланиб қолишига еришилади<sup>1</sup>.


О‘қувчиларда бадий асарларни идрок этиш malakasini shakllantirish va rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni o‘rganish asosida biz badiiy asarlarni idrok etish tuzilmasini aniqlashtirdik.

---

ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед.фан.док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 262 б; Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий методик асослари: пед. фан. док. дисс... – Тошкент, 2007. – Б.14-51; Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари док. дисс... – Тошкент, 1993. – 364 б; Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. Автореф. – Самарқанд, 2019. – 52 б; Хужамбердиева Ш.К. Таълим босқичларида Эркин Воҳидов ижоди ва ҳаётини ўргатиш усуллари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Наманган, 2019. – 163 б; Лавлинский С.П. Технология литературного образования. Коммуникативно-деятельностный подход: Учеб. пос. для студентов-филологов. М.: Прогресс-Традиция; ИНФРА-М, 2003. – 384 с; Коханова В.А. Технологии и методики обучения литературе: учеб. пособие для бакалавров / ред.: В.А. Коханова. 2-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2016. – 249 с; Westhoff G. Fertigkeit Lesen. Goethe-Institut, Muenchen, 1997. – 176 p.

<sup>1</sup> Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. Автореф. – Самарқанд, 2019. – 52 б.

О‘quvchining o‘qigan asarni idrok etishi




О‘quvchining o‘qigan asarni idrok etishi

### 2.2.1. О‘quvchilarning badiiy asarlarni idrok etish jarayoni tuzilmasi

Adabiyot o‘qituvchisining asosiy vazifasi badiiy idrokdek murakkab faoliyatga xos sifatlarni (kuzatuvchanlik, badiiy so‘zni idrok etish, emotsional va obrazli xotira, ijodiy tasavvur, empatik qobiliyatga egalik) belgilab beruvchi psixik jarayonlarni rivojlantirishdan iborat. O‘quvchilarning idrok etish qobiliyatini rivojlantirish o‘qilgan asarni tahlil qilish va baholash, unga shaxsiy munosabatini bildirish va zarur tarixiy-adabiy, nazariy-adabiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshadi. Badiiy asarni to‘laqonli idrok etish qonunini hisobga olish idrok etish va tahlil qilish, dastlabki idrokning rolini oshirish, kitobxonlikka munosabatda o‘z-o‘zini anglash ehtiyojini shakllantirishga nisbatan an’anaviy yondashuvni o‘zgartirishni talab etadi.

Shu bilan bog‘liqlikda o‘quvchilarning idrok etish jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: birlamchi (dastlabki idrok etish bosqichi), badiiy detallarni hayotiy aloqa va munosabatlarda qayta jonlantirish (tahlil bosqichi), keyin mutolaa jarayonida yuzaga kelgan fikr yanada aniqlashgan, chuqurlashgan

holda yangi darajadagi umumiy nuqtai nazarga olib keladi (umumlashtirish bosqichi). O‘quvchilarning asarni idrok etish jarayoni bosqichlari 2.2.2-rasmda keltirib o‘tilgan.



### **2.2.2-rasm. O‘quvchilarning badiiy asarni idrok etish jarayoni**

Bizningcha, metodist-olimlarning “asarni o‘qishga qo‘shimcha rag‘bat hosil qiladigan va o‘quvchilar ongida uning dastlabki anglanishiga imkon beradigan” asarni o‘rganishning muhim bosqichi sifatida kitobxonlik taassurotlarining almashinuvi (dastlabki mutolaa jarayonidagi muloqot) haqidagi taklifi haqiqattan maqsadga muvofiq.

Adabiy ta'lim jarayonida badiiy asarlarni o‘qib-o‘rganish samaradorligi maqsad va vazifalarni aniqlashtirish, mazkur jarayon tamoyillari, shart-sharoitlari, mezonlarini belgilash, didaktik ta'minotni ishlab chiqish, kutiladigan natijalarni oydanlashtirishni talab etadi. Ana shu sababli tadqiqot doirasida adabiy ta'lim jarayonida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi ishlab chiqildi.

## 2.2.1-jadval.

## Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi

<b>Maqsad:</b> so'z san'atini badiiy idrok etish orqali muloqot, o'z-o'zini anglashga qobiliyati va ma'naviy yetuk, mutolaa madaniyatiga ega kitobxon-o'quvchini rivojlantirish				
<b>Vazifalar:</b>				
1) tez o'zgaruvchan sharoitlarda o'quvchining muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashning samarali yo'llari izlab topish;				
2) o'quvchilarning badiiy obrazlarni yaratish va talqin qilish usullari haqidagi bilimlarini kengaytirish;				
3) badiiy matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda shaxsiy tasavvur va nuqtai nazarni qaror toptirish uchun zarur metodik shart-sharoit yaratish;				
4) o'quvchilarning bilish faolligini rag'batlantirish.				
<b>Tamoyillari</b>				
Dialogik munosabatlar madaniyatining rivojlanganligi	Kitobxon-o'quvchi shaxsiga yo'nalganlik	Badiiy asarni idrok etish va tushunishga layoqatlilik	Ta'limning kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilganligi	
<b>Shart-sharoit</b>				
Muallif – matn – kitobxon uchligida ko'p darajali dialogni tashkil etish	O'qish orqali o'z-o'zini namoyon etishga ichki ehtiyojni qaror toptirish	Leksik tahlilni vizual elementlar bilan uyg'un qo'llash orqali foydalanish	O'quvchilarda mustaqil loyihaviy faoliyatga motivatsiyani shakllantirish	
<b>Mezonlari</b>				
Bilish faolligi	Fanni "chuqur" o'rganish	Bilimlarning tizimga solinganligi	O'quvchilarning darsga emotsional munosabati	Ijodiy faoliyatni amalga oshirishga intilish
<b>Didaktik ta'minot</b>				
Ta'limning verbal (suhbat, tahlil va h.k.) va vizual (vizuallashtirilgan)	Adabiyot darslarida individual va guruhlarda ishlash texnologiyasi	Ijodiy va loyihaviy topshiriqlar tizimi, badiiy asar matnlari		

modellar va chizmalar) variantlarini qo‘llash	bilan illoyustrativ materiallar
<b>Natijalar</b>	
<p>fikrlash jarayonlari faollashadi hamda analitik qobiliyat rivojlanadi; matnni idrok etishning barcha bosqichlarida o‘qish va tushunish sifati oshadi;</p> <p>umumlashtirish, shaxsiy nuqtai nazarni anglash va asoslash, o‘quv axborotini individual idrok etish va qayta ishlash malakalari rivojlanadi;</p> <p>qo‘yilgan vazifalarni bajarishda izlanishga doir faoliyat darajasi kengayadi, mustaqillik rivojlanadi; o‘quvchilarning bilishga qiziqishi, emotsional rivojlanish sohasi, badiiy-ijodiy qobiliyatlari ortadi.</p>	

Pedagogik tizimni samarali tatbiq etishda adabiy ta'lim jarayonining til ta'limi bilan integratsiyalash asosida quyidagi jihatlarni hisobga olish lozimligi aniqlandi:

badiiy asardagi matn o‘qilib, dastlabki savol-javoblardan so‘ng mujassam topshiriqlar bajarilishi, shuningdek, qayta hikoya qilishga o‘tilgan darslar natijasida nutq o‘stirishning qaysi jihatlari ta'minlanishi;

matn o‘qilib, notanish so‘zlar tushuntirilgach, matn mazmuni qayta hikoya qildirilgan darslar natijasida yozma va og‘zaki nutq o‘stirishning qaysi jihatlari ta'minlanishini.

Mutolaa asosida o‘quvchilar nutqini o‘stirish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarida ifodali va tez o‘qish, asar matni ustida ishlash yaxshi samara beradi. So‘z va so‘z shakllari grammatik vositalar talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish o‘quvchining so‘z boyligini oshirishga va bu boyligni faollashtirishga, gap tuzish, matn yaratish malakasini rivojlantirishga qaratiladi.

Ma'lumki, badiiy asarlarni idrok etish undagi obrazlar tizimini anglash va qabul qilishga borib taqaladi. Mutolaa jarayonini tashkil etishda treninglar, seminarlar muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi hal qiluvchi omildir. Ana shu omil ishga to‘liq tushsagina, o‘quvchi shaxsida g‘oyaviy, axloqiy-ma'naviy, estetik rivojlanish sodir bo‘ladi.

Badiiy asar o‘qish haqidagi o‘z talqinlarini davom ettirib, olim ijodiy o‘qishga alohida urg‘u beradi. Bundan tashqari ifodali va sharhli o‘qish, o‘qituvchi va o‘quvchining so‘zi, o‘quvchilar bilan

suhbat, badiiy asar va hayotiy kuzatishlar asosida topshiriqlarni muhokama qilish, savol va rejalar tuzish mutolaa madaniyatini tashxislashda asosiy omildir. Ijodiy o‘qish metodi adabiyot fani uchun yangilik emas. Adabiyot darslarida ijodiy o‘qishga, ifodali o‘qishga, pьesalardan ayrim sahnalarni aktyorlarning o‘qishiga tez-tez murojaat etib turiladi. Yangiligi, o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish, o‘qituvchining badiiy matni sharhlab o‘rgatishi (izohli o‘qish) hamda ularning asarning chuqurroq emotsional idrok etishini ta'minlashi nazarda tutiladi

Metodist olimi M.Mirqosimova ko‘rsatib o‘tganiday: ”Adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o‘qishdan boshlanadi. O‘qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tizimi anglanadi, o‘zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko‘z o‘ngida yaratilgan poetik manzarani yaratishda shoir yoki yozuvchi qo‘llagan tasviriy vositalarga sirtidan ahamiyat berilmaydi, asosiy e'tibor o‘qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi. Ammo tahlil jarayonida ana shu ma'nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o‘rganiladi<sup>1</sup>.

Badiiy asarning sinfda ta'sirchan qilib badiiy o‘qilishi o‘quvchilarni hech qachon loqayd qoldirmasligi, ularning ruhiyatiga kirib borib, ijobiy taassurot hosil qilishi, bu esa asarga qiziqish kuchaytirishi ko‘plab tajribalar bilan dalillangan. Xususan, sinfda badiiy ifoda bilan o‘qilgan asarlar o‘quvchilar e'tiborini o‘ziga tortishdan tashqari, san'atkorlik bilan o‘qiyotgan ustozga ehtirom hissini tarbiyalaydi, ularning har birida asarni xuddi shunday o‘qishga havas uyg‘otadi.

Metodist olimi R.Niyozmetova o‘quvchilarga o‘qituvchi beradigan izoh va sharhlar haqida gapirib, o‘quvchidan uning shaxsiy, ko‘pincha tushuntirib bo‘lmaydigan holatlaridan, ba'zida esa “g‘alati” savollaridan kelib chiqish lozimligini uqtiradi <sup>2</sup>.

Sharhlab o‘rganish notanish so‘z va so‘z birikmalari, ibora va murakkab tanbehlarni, tarixiy joy nomlari hamda ba'zi adabiy qahramon timsollarini izohlanishini anglatibgina qolmay, asarning

---

<sup>1</sup>Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 112 б.

<sup>2</sup>Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий методик асослари: пед. фан. док. дисс... – Тошкент, 2007. – Б.14-51.

g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini adabiy estetik tahlil vositasida o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasidan parcha o'rganish jarayonida hikoyadan olingan parcha asosida o'quvchilarga sharhlab o'rganish yuzasidan topshiriqlar berish mumkin:

o'rganilayotgan matndan badiiy asar mohiyati va qahramon tabiati aks etgan asosiy tayanch so'zlarni topadi va tanlaydi, ularni izohlaydi;

bosh qahramonning psixologik portretini yaratadi va uning xatti-harakatlari sababini aniqlaydi, izohlaydi;

asardagi bosh va ikkinchi darajali qahramonlarning xatti - harakatlari va o'ylarini turli chizma, grafik vosita va jadvallar vositasida ko'rsatmali aks ettiradi;

matndan inson va tabiat munosabati tasvirlangan epizodlarni qayta o'qib, sharhlaydi.

Savol va topshiriqlar badiiy asarni, asar matnini o'rganishning eng to'g'ri yo'llarini belgilab beradi. Savol va topshiriqlar tizimini yaratishda badiiy asarni bir butunicha tahlil qilish asosiy qoidalar sifatida qaraladi. Shunga ko'ra, asardagi obraz personaj xarakterini anglashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan keng foydalanish, bir turkum savol-topshiriqlar orqali o'quvchini badiiy asar tilini o'rganishga safarbar etish, shuningdek o'rganilayotgan asarning janr xususiyatini xisobga olish zarur.

Ma'lumki, adabiy ta'lim jarayonida o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan seminar-treninglar, konferentsiyalar o'tkazish, mashqlar bajarish o'quvchining olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Seminar va treninglarda o'qituvchi sinfdagiga nisbatan, har bir o'quvchi bilan ko'proq munosabatda bo'ladi, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini hisobga olgan holda, ma'ruza bilan birga, mashg'ulotni tadqiqot usulida uyushtiradi. Tadqiqot usulining qo'llanilishi ularda tadqiqotchilik ko'nikmasini o'stiradi. Trening mashg'ulotlarida uyushtiriladigan suhbat, munozara turli xarakterda bo'lishi, ba'zan ma'ruzaning uzviy qismi sifatida o'tkazilishi mumkin.

Suhbatda izlanish (evristik) usulidan foydalanib, o'quvchilarga muammoli topshiriq berish orqali ularning izlanishli faoliyati, bilish qobiliyati rivojlantiriladi va shu yo'l bilan o'qilgan badiiy asarning samarali o'zlashtirilishiga erishiladi. Trening mashg'ulotlardagi



amaliy ishlar, o'rganilganlarini takrorlash xarakterida bo'lib, o'quvchilarning avval egallagan bilimlari takrorlanadi, umumlashtiriladi va mustahkamlanadi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar kichik hajmdagi mustaqil ishlarni ham bajaradilar. Bu jarayonda ular badiiy asarni tahlil qilish, badiiy asar matni, tanqidiy maqola va ilmiy adabiyotlar ustida ishlaydilar, bibliografiyalar tuzadilar. Bu esa, o'z navbatida ularda badiiy asar ustida ishlash, adabiyotlardan foydalanish usullarini egallab borishlariga yordam beradi.

Seminar mashg'ulotlarida amaliy ishlar o'quvchilar guruhi va yakka o'quvchi bilan amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarda har bir masala aniq maqsad asosida hal qilinadi. Seminar mashg'uloti o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stiradi, ularning o'zaro fikr almashuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Seminar mashg'ulotida o'quvchilar referatlar yozadilar, ma'ruza qiladilar, uni o'zaro muhokama qiladilar, ayrim muhim muammolar haqida suhbatlashadilar, o'qituvchi kirish yoki yakunlovchi fikrni bayon etadi. Maslahat, yo'l-yo'riq shaklidagi seminar esa, masalani hal qilish, anglab olish, ayniqsa, ma'ruza qiladigan o'quvchilarga katta yordam beradi. Fakultativ mashg'ulotlarda olib boriladigan barcha ish turlarida, asosan, o'quvchilarning ishni mustaqil bajarishlari va mustaqil fikrlashlariga e'tibor beriladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limni individuallashtirishni taqozo etadi. O'qituvchining rahbarlik roli va mas'uliyat hissini ham oshiradi. O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishning samarali bo'lishi uchun o'qituvchidan har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. O'qituvchi fakul'tativ mashg'ulotlarda suhbat va munozaralar uyushtirishdan oldin ularning mavzusini belgilaydi, rejasini, o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlarni tuzadi, bajariladigan amaliy ishlarni aniqlab oladi, suhbat va munozara mavzusiga doir adabiyotlarni ko'rsatib, ularni o'qishni tavsiya qiladi, shu bilan birga, o'quvchilarning ilmiy-tanqidiy manbalar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashlari uchun maslaxat, yo'l-yo'riq beradi. Bu maslahatdan asosiy maqsad – suhbat va treninglarda o'quvchilarga o'qigan kitob va maqolalarining bibliografiyasini tuzish, ulardan ko'chirmalar olish qoidalarini, kutubxonalarda katalog, ma'lumotnomalardan foydalanish, kerakli kitoblarni tanlash, ulardan konspekt olish, kartochkalar tayyorlash,

ma'ruza matnlarini yozish yo'llarini tushuntirishdan iborat bo'ladi. O'quvchilar tayyorlagan ishlar ko'rib chiqiladi, maqsadga muvofiqlari ma'qullanadi, kamchiligi bor bo'lgan ish egalariga maslahat beriladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda bu ishlar haqida to'liq tasavvur xosil qilinadi, kitob bilan ishlash, undan foydalanish ko'nikmasi o'stirib boriladi. Trening mashg'ulotlarida ham odatdagi darslar kabi asosiy e'tibor badiiy asarga, uni tahlil qilishga, yaratilish tarixiga, obrazlar tizimiga, tasvir vositalariga qaratiladi, ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi. Trening mashg'ulotida qatnashuvchilarning bilimi sinf mashg'ulotidagi kabi baholanmaydi. Ularning bilimi, faoliyatiga qo'yiladigan baho, bu – o'qituvchi va o'rtoqlarining u tayyorlagan va qilgan ma'ruzalari, mavzularni o'rganishda, munozara va suhbatlarda faol ishtiroki uchun bildirgan samimiy qutlovlari va tabrik so'zlaridir. Mavzuni mustahkamlash uchun savol -topshiriqlar ustida ishlaydilar.

Mutolaa jarayonini samaradorligini oshirishning quyidagi jihatlarini keltirish mumkin:

1. Berilgan asarni qayta hikoya qilish orqali asar syujetini tahlil qilish. Bu mashqni bajarish paytida o'quvchilar avval asar matni bilan tanishib chiqadilar, so'ngra o'qituvchi o'quvchilarga savollar berib, ularning diqqatini suhbatning mazmuniga qaratadi. Bunda u asosiy e'tiborni muloqot ishtirokchilarining maqsadlarini tushuntirishga qaratadi. Bundan tashqari, o'qituvchi suhbatdoshlarning ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun nutqni qanday tarzda tuzishlariga ham o'quvchilarning diqqatini tortishga harakat qiladi. Asarning mazmunini tahlil qilishni ma'lum darajada yengillashtirish uchun bunday mashqni boshlash oldidan ana shu suhbat qanday vaziyatda yuzaga kelishini tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. O'zgalor nutqini kuzatish va tahlil qilish asosida qayta hikoya qilish. Bu mashqni tashkil etishda zamonaviy ovozni yozib olish vositalari, jumladan, mobil telefonlardan foydalanish mumkin. Darsda o'qitilishi kerak bo'lgan matn sanab o'tilgan audio vositalarga yozib olinadi va o'quvchilarga eshittiriladi. Matn bevosita o'qituvchi tomonidan ham ifodali o'qib berilishi mumkin. Bunday materiallar asosida o'tkaziladigan mashq oldidan bolalarga nutqni kuzatish,

uning mazmuni va shaklini tahlil qilishga qaratilgan maxsus topshiriqlarni berish lozim.

3. Rolli o‘yinlar orqali qayta hikoya qilishni tashkil etish. O‘rganilgan matn sahnalashtiriladi. Bu mashq quyidagi tartibda o‘tkaziladi. O‘quvchilar matn mazmuni bilan tanishadilar. Har bir rolni ijro etuvchi o‘quvchi tanlanadi va ularga yo‘riqnomalar beriladi. Shuning uchun mashq oldidan o‘qituvchi qisqacha kirish so‘zi yordamida o‘quvchilarga umumiy vaziyatni, muloqot tashkil etiladigan shart-sharoitni, muloqot ishtirokchilarini tasvirlab berishi lozim. Ammo o‘yinni o‘tkazish uchun bunday kirish so‘zining o‘zi kifoya qilmaydi. Zero, mashq jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining rolini to‘g‘ri ijro etishini ta‘minlash uchun o‘quvchilarga personajlar haqida batafsil ma‘lumot berish va asarni o‘qigan bo‘lishi kerak bo‘ladi. Adabiy ta‘lim metodikasi ilmining bugungi zamonaviy talablari bo‘yicha o‘quvchi u yoki bu xildagi badiiy asarni o‘qish, tushunish orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilishga kundan-kun o‘rganib boradi. Bu o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, albatta. Bola asar ustida ishlashni bilishi kerak. Shunda uning mustaqil nuqtai nazari shakllanadi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu fazilat o‘zgalarning tashqaridan bergan maslahati mahsuli emas, o‘quvchining ko‘p kitob mutolaa qilishi, mutolaaning samarasi o‘laroq o‘z shaxsiy fikri, mustaqil o‘ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo‘ladi.

Kitob mutolaasi har bir inson uchun hayotiy zaruriyat ekanligini o‘quvchi ongida shakllantirishda adabiyot o‘qituvchisidan katta mahorat talab etiladi. Kitob – inson ma‘naviyatini boyitadigan sirli vosita. O‘quvchilar qalbida kitobga mehr uyg‘otishga adabiyot darslari muhim ahamiyatga ega. Darsda badiiy asarlarni o‘rganib bo‘lgach, o‘quvchilarga bir qator vazifalar topshirib, ular tomonidan o‘qilgan asarlar taqdimotini o‘tkazish mumkin.

- asar qahramonlariga yoki asar muallifiga maktub yozish;
- o‘qilgan asar ta‘sirida she‘r yozish.

Bu usullar o‘z samarasini beradi va natijada o‘quvchida o‘sha kitobga e‘tibor yanada kuchayadi.

O‘quvchilarning adabiyotga qiziqishini oshirish maqsadida dars yoki suhbat jarayonida biror asarning mazmunini qisqacha so‘zlab berib, qiziq joyiga kelganda hikoyani to‘xtatib turish va o‘quvchilarga asarni to‘liq o‘qib kelish topshirig‘ini berish mumkin.

O‘quvchi badiiy asar haqida to‘liq ma'lumotga ega bo‘lishi, undagi obrazlarni har tomonlama tahlil etish malakasiga ega bo‘lishida to‘garaklarning roli katta. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchining kitobxonlik malakasi oshishiga yordam beradi. Adabiyot darsi o‘quvchilar uchun eng yaxshi kitobxonlik darsidir. O‘quvchilar badiiy asarlarni sinchkovlik va qiziqish bilan o‘qib chiqishi uchun turli usullardan foydalanish mumkin.

Eng avvalo, o‘quvchiga badiiy asar haqidagi annotatsiyani o‘qib berish va shu asosda asarda qanday voqealar borligini taxminiy qoralashni taklif etish mumkin. Qoramalar tayyor bo‘lgach, oldin o‘qitib ko‘rib, so‘ngra o‘quvchilardan yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrlar bilan solishtirib chiqish topshiriladi.

Tohir Malikning “Alvido bolalik” asarini o‘qish uchun muddat belgilab, to‘garak darslarida asar tahlilini o‘tkazish, o‘quvchilarga asar yuzasidan o‘z annotatsiyalarini yozdirib olish mumkin.

Xo‘sh, bugungi kun o‘quvchisini qanday qilib badiiy asarlarni o‘qish, idrok etishga jalb etish mumkin? Qanday metodik usullar qo‘llansa, adabiy ta'limdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi?

Ana shunday metodik usullardan “didaktik” tahlil ham yaxshi samara beradi. Badiiy asarning didaktik tahliliga analitik yondashuv adabiy ta'limni modernizatsiyalashning muhim omillaridan biridir.

Analitik tafakkur – voqelikni teran tahlillash, idrok etish qobiliyatidir. Falsafa ta'limida analitika – muhokama, isbotlash demakdir .

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan parcha o‘rganish jarayonida romandan olingan badiiy parchaning didaktik tahliliga analitik yondashuv o‘quvchilarning integrativ bilish darajasini yuksaltiradi, ularni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatadi. Asardagi Razzoq so‘fining shaxsiy sifatlarini tavsiflovchi sahifalar o‘qilgandan so‘ng sinf doskasiga quyidagi badiiy parcha yozib qo‘yildi.

Eshon avval:

- So‘fi o‘zi qani? - deb so‘radi.

So‘fining akasi:

- Uyda qoldi... Sal tishi og‘ribdi... dedi.

Eshon kuldi:

Tishi og‘ribdimi? - dedi. Bay-bay! Tish og‘rig‘i yomon narsa...

“Kecha va kunduz” asaridan olingan badiiy parchaning didaktik tahlili jarayonida o‘quvchilar analitik tafakkur yuritishi orqali quyidagi fikrlarni ilgari surishdi:

- Badiiy parchada Razzoq so‘fi e‘tiqod qo‘ygan, Qurvonbibi eri vositasida ulug‘ inson deb bilgan so‘fining akasi najot ilinji bilan arz qilgan Eshon boboning ularga nisbatan bepisandligi, beparvoligi tasvirlangan (eshon boboning so‘fining akasi tomonidan qilingan arzga munosabat bildirmagani, kinoyali, zaharxanda kulishi).

- Razzoq so‘fi uchun benazir inson eshon (Qurvonbibi so‘fining akasiga eshonga borishni maslahat bergani, so‘fining o‘z e‘tiroflari yoki xotini va qizining so‘fi haqidagi fikrlari – mantiqiy dalil).

Badiiy asarga analitik tafakkur asosida yondashuv jarayonida o‘quvchi o‘zini go‘yo detektiv asar voqealarining girdobiga tushib qolgandek his qiladi. Yuz bergan sirli jinoyatlarning mohir izquvari, topqiri sifatida o‘zida katta imkoniyatga egalikni tuyadi. O‘quvchini “Nima?” “Kim?” “Qachon?” “Qanday?” “Nima uchun?” “Nega?” kabi qator savollar o‘z og‘ushiga oladi. Bu o‘quvchining fikrlash quvvatini yanada oshiradi, uni eng yangi badiiy, hayotiy topilmalar topishga, nodir fikrlar asosida maqbul qarorlar qabul qilishga undaydi va o‘rgatadi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlarni mutolaa qilish natijasida o‘quvchilar quyidagi natijalarga erishadilar:

- she'riy, nasriy, dramatik asarlarni tahlili asosida mustaqil, erkin fikrlashni;

- tanqidiy fikr bildirishni, o‘z fikrida sobit turishni;

- o‘rganilgan asarlar yuzasidan taqriz, annotatsiya, maqola, erkin mavzuda insho yoki hikoya yozish ko‘nikmalari rivojlanadi;-

kichik hajmli asarlar yoki ulardan olingan parchalarni ifodali o‘qish va yod olishni;

- epik asarlarni qisqartirib, shaxsini o‘zgartirib, reja asosida qayta hikoyalashni.

Ma'lumki, har bir o‘qituvchi dars maqsadiga erishish uchun eng ilg‘or metodik usullarni izlab topmog‘i zarur. Adabiyot darslari qanchalik yangiliklar asosida o‘tilsa, o‘quvchilarning fanga, kitobga bo‘lgan qiziqishlari shunchalik ortadi. Bunda o‘qituvchi darsni to‘g‘ri tashkil qilib, ta'limning xilma-xil usullarini qo‘llashi, sinfda

o'quvchilarning faolligini oshirishi, ularda ezgu fazilatlarni tarkib toptirishi zarur.

“Ortiqcha obraz”, “O‘yla, izla, top – bu aynan sen bop”, “Men kitobxon” rolli o‘yini, “Asar yuzasidan esse yozish” usullari orqali o‘quvchilar orasida yaxshigina kitobxonlikni yuzaga keltirish mumkin.

Akademik litseyning 1-bosqich adabiyot darsi rejasida O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani berilgan (2-ilovaga qarang). O‘quvchilarga asarni o‘qitishda “Ortiqcha obraz” o‘yinini qo‘llash mumkin. Buning uchun o‘quvchilarning barchasiga shu asardagi o‘zi ortiqcha hisoblagan bir obrazni (bu o‘rinda kishi yoki biron predmet ham bo‘lishi) olib tashlashi, voqealar rivojini tasavvur qilib ko‘rish tavsiya qilindi. Shu usulni o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazganimizda, ularning quyidagi javoblari diqqatimizni tortdi:

O‘quvchi: Umar Zakunchini yo‘q deb tasavvur qildim.

O‘qituvchi: xo‘sh, keyinchi?

O‘quvchi: Umar Zakunchi bo‘lmaganida, Shomurodning xotini Ra'no eriga hiyonat qilmasdi, o‘g‘li Muzaffar onasiz qolmasdi. Ukasining oilaviy tashvishlari Qora ammaning yelkasiga tushmasdi. Robiyaning taqdiri ham badbaxtlikka borib taqalmasdi, o‘zi ada deb katta bo‘lgan Shomurodga xotin bo‘lmasdi. Robiya baxtli bo‘lishi mumkin edi.

Asarning shunday o‘rinlarida adib bu dunyoning kayfu-safosiga uchmasdan, har kim o‘z qalbiga nazar solib, insof bilan yashamog‘i kerak, degan ta'lim- tarbiyani berayotgandek tuyuladi, deb o‘ylayman.

Suhbat shu zaylda davom etarkan, sinfda, darsda befarq o‘tirgan o‘quvchi to‘satdan shunday dedi:

- Robiyaning taqdirning achchiq qismatiga ilojsiz qolmasligi, Kimsan bilan baxtli bo‘lishi uchun urush bo‘lmasligi kerak edi. Shuning uchun romanda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘zimiz yashab turgan davr bilan xayolan qiyoslab, bugungi tinch-osoyishta kunimizga shukrona aytaman, - dedi.

Shunday qilib, “Ikki eshik orasi” romani bo‘yicha mashg‘ulot shunchalik qizg‘in tus oldiki, asarni o‘qimagan o‘quvchilar ham mashg‘ulotga berilib ketishdi. Natija shu bo‘ldiki, o‘quvchilar o‘zlari mustaqil o‘qigan boshqa asrlaridan ham ma'lum obrazlar olib

tashlansa, voqealar rivoji qay tomonga o‘zgarib ketishi haqida bahs-munozara qilishadi, ya’ni ularda badiiy tasavvur shakllanadi.

Dars davomida “O‘yla, izla, top – bu aynan sen bop” o‘yinini qo‘llash ham yaxshi samara berdi. O‘quvchilarga uch daqiqa mobaynida asar qahramonlari ro‘yhatini shakllantirish topshirig‘i berildi. Bunda har bir o‘quvchi asar qahramonlari ro‘yhatini o‘z daftariga yozdi. Masalan: Robiya, Husanboy Duma, Qora amma, Kimsan aka, Komil tabib, qora ammaning ukasi Shomurod, Orif oqsoqol...

Topshiriq nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi ekranda asar qahramonlari ro‘yxatini namoyish qildi. O‘quvchilar uni o‘zlari yozgan ro‘yxat bilan solishtirishdi va o‘zlari yozgan obrazlarga tavsif berishdi.

“...Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli, jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi mujassam topgan. U boshiga tushgan barcha ko‘rguliklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘ziga yashashga kuch-qudrat topadi...”

“...Robiya – unga ham taqdir kulib boqmagan, onasidan yetim qolib, otasi tarbiyasida bo‘lgan. Sofdil, mehnatkash, sadoqatli qiz. Urush tufayli sevgilisi Kimsan qaytmadi. Robiya uni yillar davomida kutdi. Urush tugaganiga bir necha yil bo‘lsada, uni sadoqat bilan kutishdan charchamadi...”

Darsning keyingi bosqichida “Adibning so‘z sandig‘i” usulidan foydalanildi. Bunda sandiqcha ichida “Ikki eshik orasi” asari qahramonlari xarakteriga xos bo‘lgan so‘zlar taqdim etildi. So‘zlar orqasi yelimli qog‘ozlarda yopishtirildi. Doskada esa, o‘quvchilar tomonidan chizilgan asar qahramonlarining rasmlari ilindi. O‘quvchilar sandiqchadan so‘z olishdi. Har bir o‘quvchi o‘ziga berilgan obrazning atrofiga o‘sha obrazga xos bo‘lgan so‘zni yopishtirib boradi. Agar obrazga mos so‘z chiqmasa, sandiqchadan boshqa so‘z olindi. Shuning o‘qituvchi so‘zlarni obrazlar soniga teng miqdorda tayyorlashi kerak.

Bundan tashqari “Men kitobxon” rolli o‘yinida o‘quvchilarning kitobga qiziqishini oshirish maqsadida “Mutolaa kundaligi”ni tutish, o‘qigan asarlari yuzasidan “Kitobxon kundaligi” virtual guruhini tashkil etish o‘zining ijobiy samarasini berdi.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘qishga qiziqishlarini oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali kitoblarning audio va android variantlarini taqdim etib borish ham kutilgan natijani berdi.

“Kitobxon kundaligi” chizmasi namunasi:

Muallifning IFO	Kitobning sarlavhasi	Mutolaa qilingan vaqt	Asarning asosiy g‘oyasi	Asarning muhim jihatlari
-----------------	----------------------	-----------------------	-------------------------	--------------------------

Shuningdek, adabiyot darslarida o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib, o‘qilgan asar yuzasidan shaxsiy ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, zamonaviy dars turlariga tayangan holda o‘quvchilarni mutolaa malakasiga doir o‘zini-o‘zi baholash jarayonining ham mukammal o‘rganib borishiga alohida e'tibor qaratildi. Mana shunday interfaol usullarjan biri “o‘quv portfoliosi”dir.

Portfolio – hujjatlar yoki muharrirlik portfeli, yutuqlar jamlanmasi, o‘zini-o‘zi baholash usuli sifatida o‘quvchilarning imkoniyatlarini belgilash, ijodiy faoliyatini baholash, o‘qish va ijoddagi rivojlanish dinamikasini kuzatish qobiliyatlarini namoyon qilish vositasidir. Portfolio yaratish ma'lum vaqt talab qiladigan murakkab jarayon bo‘lib, o‘quvchini o‘z yutuqlari, qiziqishlari, istiqboldagi rejalarini hikoya qilishga yo‘naltirilgan. Portfolioning bir qancha turlari bor. Bizning tadqiqotimiz doirasida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavzuli portfolioni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Aslida “Kitobxon kundaligi” portfolioning zamonaviy va takomillashgan ko‘rinishidir. Portfolioni yaratishning birinchi bosqichida o‘quvchilarga portfolioning afzalliklari, uni yaratishdan ko‘zlangan maqsad, portfolioning turlari haqida ma'lumot berildi. So‘ngra portfolioning tuzilishi bilan tanishtirildi.

Portfoliolar o‘zining shaxsiy muvaffaqiyatini baholashning ko‘p funktsiyali vositasi bo‘lib, individual muvaffaqiyatlar monitoringini amalga oshirish yoki imtihonning muqobil shakli sifatida o‘quvchining ta'limiy va istiqbolli imkoniyati, qobiliyatlarini ko‘rsatib, ijodiy salohiyatini ochib beradi. Quyida tadqiqot doirasida qo‘llanilgan ayrim portfoliolarning namunalarini keltirib o‘tamiz.



“Yutuqlar” portfoliosi (“Kitobxon kundaligi”).

O‘quv portfoliosi turlaridan biri yutuqlar portfoliosi deb yuritiladi. Bunday portfolio “Nuqtai nazar”, “E’tirof”, “Munosabat”, “Kitob haqidagi o‘ylarim” kabi bo‘limlardan iborat bo‘ladi.

“Nuqtai nazar” bo‘limida o‘quvchining o‘qigan badiiy asari yuzasidan insho, taqriz, annotatsiya, maqolalar va qisqa ma’ruzalar shaklidagi ijodkorlik hamda tadqiqotchilik faoliyatini ko‘rsatadigan ishlar o‘rin oldi. Erishilgan yutuqlarning sifat jihati aks etgan ushbu bo‘limida o‘quvchining ijodiy faolligi dinamikasi, qiziqish doirasi yorqin namoyon bo‘ldi.

“E’tirof” bo‘limida o‘zbek va boshqa xalqlar adiblarining hayoti va faoliyati haqidagi ijodiy mulohazalar yoritilishiga e’tibor qaratildi. Ushbu bo‘limda o‘quvchining mustaqil fikrlash madaniyatini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratildi.

“Munosabat” bo‘limida o‘qilgan badiiy asarining to‘liq yoki ma’lum bo‘lim uslubi, obrazlar tizimining xarakter xususiyatlarini o‘rganish natijalari aks etdi.

“Kitob haqidagi o‘ylarim”. Mazkur sahifada o‘quvchining asarning g‘oyaviy badiiy maqsadi, estetik ta’sirchanligi, obrazlarning umumlashmaliligi, asardagi chuqur dramatism, milliylik, umuminsoniylik, asarning o‘tkir syujeti, turli xarakterlar xaqidagi qarashlari bayoni aks etdi.

Adabiyot darslarida bunday turdagi o‘quv portfoliolarini yaratish o‘quvchidan ijodkorlikni, ko‘p kitob o‘qishni, o‘z ustida tinimsiz mehnat qilishni, badiiy ijodkorlikni shakllantiradi va darsda ko‘zlangan maqsadga erishtiradi. Har bir o‘zlashtirilgan dars, o‘qilgan badiiy asar, albatta o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlanishtirishga katta yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlarimiz asosida, adabiyot darslarida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- badiiy asar annotatsiyasi yuqori saviyada bo‘lmog‘i zarur, zero, o‘qituvchi annotatsiyani o‘qib berar ekan, o‘quvchida mazkur asar mutolaasiga bo‘lgan ishtiyoq haddan tashqari yuqori darajada bo‘lmog‘iga erishish aksar holatlarda, ijobiy samara manbaidir;
- mutolaa qilinayotgan asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari dolzarb muammolar bilan qiyoslab o‘rganilishi zarur: ta’limning real

hayot bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi hamisha ijobiy natija bergan. Bundan kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoni ham mustasno emas;

- mutolaa jarayonida asar personajlarining ruhiy dunyosiga o‘ziga xos va mos tarzda yondashish yo‘lga qo‘yilishi zarur; qahramonlarning ruhiy dunyosiga turlicha yondashuv o‘quvchilarning tuyg‘ularini ko‘rkamlashtiradi, hayotiy tasavvurlarini boyitadi, estetik didini shakllantiradi. Kitobxonlik orqali o‘quvchilarning adabiyotga qiziqishi ortadi. Adabiyot darslaridagi mutolaa orqali kitobxonlik saviyasi yuksaladi.

### **2.3-§. O‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi**

Ma'lumki, adabiyot darslarida o‘rganilayotgan asarga nisbatan o‘quvchilarda qiziqish va motivatsiya hosil qilinib, mustaqil mutolaa jarayonida asarni to‘liq o‘qib-o‘rganish va adabiy tahlil malakalarini shakllantirishga erishiladi. “Adabiyot” fani bo‘yicha namunaviy va ishchi o‘quv dasturini tahlil etish jarayonida mustaqil ish uchun ajratilgan yuklamaning bajarilishi ko‘zda tutilgan topshiriqlar ham ko‘proq nazariy tavsifga ega bo‘lib, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni tarkib toptirishga to‘liq xizmat qilmasligiga guvoh bo‘lindi. Buni ayrim mustaqil ish uchun tavsiya etilgan mavzular misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin: “Zarbulmasaladagi maqol va masallar”, “Boburnoma – memuar asar”, “Adibning kulgi yaratish mahorati haqida ma'lumot berish”, “Ogahiyning tarixiy asarlari haqida ma'lumot”, “Ma'rifatparvarlik adabiyoti haqida referat”, “Navoiy” romanining badiiylik darajasi”, “A.Qahhor so‘z ustasi” va h.k. Ana shu sababli tadqiqot doirasida innovatsion yondashuvlar, shu jumladan o‘quvchilarni loyihaviy faoliyatga jalb etish asosida ularda mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir ta'limiy tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish asosiy maqsad sifatida belgilandi.

O‘quvchilarining mutolaa madaniyatini rivojlantirish ularning mustaqil o‘qish faoliyatini va fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarini tashkil etmasdan samarali amalga oshmaydi. Dars bilan aloqadorlik, uzviylik mazkur turdagi ishlarni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biridir. Biroq sinf va ta'lim muassasasidan tashqari

ishlar dars bilan bog'liqlikda amalga oshirilsada, ularning o'ziga xosliklari ham mavjudligi qayd etib o'tish lozim.

Birinchi sinf va ta'lim muassasasidan tashqari faoliyatda o'quvchilarning ixtiyoriy ishtirok etishidir. Ular o'zlari uchun sevimli ishni mustaqil tanlashi, tashabbuskorlik, mustaqillik, faollikni namoyon etishi mumkin. Adabiyot fani bo'yicha ushbu turdagi mashg'ulotlarning samaradorligi o'quvchilarning faolligiga bog'liqdir.

Mazkur turdagi ishlarning ikkinchi o'ziga xosligi – uning ko'ngil ochar va ijodiy tavsifga ega ekanligi. Unda o'yin elementlaridan keng foydalaniladi. Faqat ko'ngil ochishga yo'nalganlik asosiy maqsad emas, bu o'quvchilarning qiziqishini oshirish vositasidir.

Adabiyot fani bo'yicha sinf va ta'lim muassasasidan tashqari ish turlariga adabiy to'garak, adabiy zal, adabiy o'yin, adabiy hordiq, adabiy almanax, ko'rgazma zali, adabiy yarmarka, auktsion, adabiy targ'ibot guruhi, kitobxon haftaligi, ommaviy tadbirlar kabilarni kiritish mumkin (ilovaga qarang).

**Adabiy to'garak:** auditoriyada o'rganilgan bilimlarni tizimlashtirish va chuqurlashtirishga hissa qo'shadi. O'quvchilar auditoriyada bilimlarni o'zlashtirish va ijodiy faoliyat yuritish, o'qish talablariga ega.

Kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish maqsadida sinfdan tashqari o'qish darslarini, adabiyot to'garaklarini namunali tashkil etishning ahamiyati katta. Ijodiy va drama to'garaklarining ham bu o'rinda muhimligini alohida ta'kidlash kerak. Albatta, o'quvchi san'atkorlarga taqlid qilishni yoqtiradi. Bu qiziqish akademik litsey sahnasida ijobiy tomonga yo'naltirilsa, o'quvchi jamoa oldida hayajonlanmay o'z rolini ijro etishga o'rganadi. Drama to'garaklari o'quvchilarda teatr madaniyatini, tomoshabin mas'uliyatini, ijro mahoratini shakllantiradi.

Shuningdek, o'quvchilarga o'quv yili boshida o'qilishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati berib qo'yildi. O'quv yili yakunida "Yozgi mutolaa", qishki ta'tilda "Qishki mutolaa" o'qishlari tashkil etildi. Unda ta'til davomida o'quvchilarga o'qilishi kerak bo'lgan badiiy asarlar ro'yxatini tuzib, bolalarga o'qish uchun topshirildi. O'quv jarayoni boshlanganda o'quvchilar o'zlari o'qigan badiiy asarlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda "Men

kitobxon”, “Men sayyoh”, “Men yozuvchi” usullari orqali taqdim etishdi. To‘garakka a‘zo bo‘lishni xohlaydigan o‘quvchilar o‘quv yili davomida kelib turishdi.

**Adabiy zal:** dramatik harakatlar, musiqa va qo‘shiqlarni, adabiy o‘yinni, kitob qahramonlari bilan muloqotni uyg‘unlashtiradigan har qanday, hatto eng jasur g‘oyani eng yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradigan joy.

**Adabiy o‘yin:** u o‘yin faoliyati asosida amalga oshiriladi, bu asar janrining xususiyatlarini aniqlash, asarning tarkibiy qismlarini ko‘rish, o‘qish matnini tasavvur qilishingiz, muallifning niyatini tushunish va o‘z pozitsiyasini aniqlash uchun qo‘llanadi. Bu adabiy o‘yinda “Nega”, “Isbotla” o‘yini tashkil etiladi. O‘qituvchi tomonidan bir necha savollar beriladi. Nega bu asar shunday nomlandi?, Nega fikringizni shunday izohlayapsiz? O‘quvchilardan javoblarini dalillar bilan isbotlashi so‘raladi.” Asar matnini o‘qish va tasavvur qilish”. To‘rtta talabaga bir xil matn beriladi va o‘quvchilar o‘zlariga tushgan kartochkalar bo‘yicha matnni o‘qishi so‘raladi. Bu kartochkalarda “Quvonch”, “G‘am”, “Musiqa”, “Ertak” so‘zlari yozilgan bo‘ladi. “Quvonch” usulida o‘quvchi matnni xuddi quvonchli xabar eshitgandek o‘qiydi.

O‘quvchilarning qiziqishlarini o‘rganish turli xil adabiy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi: kitobni dramatisatsiya, viktorinalar, charades, krossvordlar, jumboqlar, adabiy o‘yin-safar, adabiy mavzulardagi o‘yin shaklida, kontseptsiyalarni assimilyatsiya qilish bo‘yicha intellektual o‘yinlar, o‘quvchilarning fikrini kengaytirish uchun o‘yinlar, asarning asosiy tasavvuriga, o‘qish tajribasini boyitishga qaratilgan o‘yinlarga, san‘at asarlarini chuqur in‘ikos etishga qaratilgan o‘yinlarga qaratilgan.

Adabiy o‘yinning maqsadi kitobning mavjud matnini o‘zgartirish yoki yangi, ijodiy adabiy mahsulotni yaratishdir.

O‘quvchilarning individualligiga qarab, adabiy o‘yinlar reproduktiv, kognitiv-izlanishlar, ijodiy faoliyat bo‘lishi mumkin. O‘yinlar o‘qituvchi tomonidan taklif etiladi yoki o‘quvchilar tomonidan yaratiladi, bu ayniqsa qimmatlidir.

**Adabiy hordiq:** qo‘lga kiritilgan ko‘nikmalarni chuqurlashtiradigan, xalq ijodiyoti va yozuvchilarga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni kuchaytiradigan, o‘quv-mashg‘ulotdan tashqari turli

tadbirlar, yangi taassurot qoldiradi, quvonchli kayfiyatni yaratadi. Adabiy bayramlar badiiy adabiyotlar mazmunini tuzatadi va umumlashtiradi, yangi taassurotlar yaratadi. Bunday bayramlarda o‘quvchilar monolog o‘qish, rol o‘ynash, hikoya qilish, tinglash, kitob mazmuni qo‘shiq va raqs bilan to‘ldirilib, kitobni kino adaptatsiyasi qismlarini tomosha qilishlari mumkin.

**Adabiy almanax:** mavzuli, janr yoki boshqa sabablarga ko‘ra birlashtirilgan kitoblar, asarlar, mualliflar haqidagi tadbir. Almanax tematik bo‘lishi mumkin, keyin kitoblarni bir mavzu bo‘yicha: harbiy, tarixiy, fantastika, tabiat, ertak, she‘rlar va boshqalar bilan birlashtiradi. Adabiy almanaxlarning yaratilishi – o‘quvchilarni kitob bilan tanishtirish va unga e‘tibor berishning eng samarali usullaridan biridir.

**Adabiy ko‘rgazma:** adabiyot olamida yangi mahsulotlarni rag‘batlantirishga qaratilgan aktsiya. Kitob ko‘rgazmalari o‘quvchilarning yoshiga qarab tashkil etilgan. Adabiy ko‘rgazmaning o‘ziga xos xususiyati – ko‘rgazma mavzusiga bag‘ishlangan tadbirlar har xil bo‘lib chiqqani uchun har bir hodisaning adabiy mazmuni majburiydir.

**Adabiy yarmarka:** adabiy festivalni tashkil etishning an’anaviy bo‘lmagan shakllaridan biri, shu jumladan, bir vaqtning o‘zida kichik, turli xil adabiy tadbirlar majmuasi. Yarmarka davomida adabiy viktorinalar va tanlovlar, qiziqarli kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish mumkin. Yarmarkada o‘quvchi o‘zi xohlagan kitobni sotib oladi.

**Auktsion:** o‘quvchilarning o‘qish qiziqishini oshirishga mo‘ljallangan shakl. Auktsion tematik va universal bo‘lishi mumkin, ammo vazifalar har doim turli xil tarkibdagi kitoblarga bag‘ishlangan. Auktsionda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning qo‘llari bilan chiqarilgan adabiyot qahramon-lari yoki ularga tegishli biror narsa bo‘lishi mumkin. Adabiy kim oshdi savdosi boshqa shaklda o‘tkazilishi mumkin. Har bir sinf oldindan o‘qigan kitobning mazmunini taqdim etadi, shuning uchun ular o‘qishni istashadi.

**Adabiy targ‘ibot guruhi:** kitoblarni, ularning belgilarini va mazmunini reklama qiluvchi, odatda bitta auditoriyadan boshqasiga ko‘chiradigan kichik guruh va o‘quvchilar.

O‘tkazilgan pedagogik kuzatishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda “Kitob haftaligi” o‘tkazish ham yaxshi natijalar bermoqda. Haftalik kompleks tadbir bo‘lib, bunda yangi yoki biror mavzuga oid kitobko‘rik ko‘rgazmalar tashkil etiladi, adabiyotlar tahlili o‘tkaziladi. Yozuvchilar, shoirlar bilan uchrashuvlar va adabiy kechalar tashkil qilinishi ham mumkin. Bu tadbir hafta mobaynida o‘tkaziladi va bu davrda maktabdagi barcha ta‘lim-tarbiyaviy ishlar shu tadbirga qaratilgan bo‘lib, uni bayram ruhida o‘tkazish tavsiya etiladi.

Ta‘lim jarayonlarida o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ularning axloqiy-estetik sifatlarini qaror toptiradi. Tadbirlar o‘quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, o‘z millati, ajdodlari yaratgan madaniy-ma‘rifiy boyliklar bilan faxrlanish hissini uyg‘otdi. Tadbirlar muntazam ravishda, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, kutubxonachi va maktab o‘qituvchilarining hamkorligida tashkil etilsagina o‘z samarasini beradi.

Adabiyot fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyatini tashkil etishning an‘anaviy turlari bilan birga, uning yangi va samarali usullarini qo‘llash metodikasini takomillashtirishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. O‘quvchilarining mustaqil o‘qish faoliyatini tashkil etishning samarali usullaridan biri – loyihaviy faoliyatdir.

O‘quv loyihasi – bu o‘rganilgan mavzu yoki bo‘limni yanada, chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilgan, ta‘lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta‘limni tashkil etish shakli <sup>1</sup>.

Loyiha (design) – ba‘zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo‘yicha hujjatlar yig‘indisi. Loyiha (projest) tushunchasi kengroq ma‘noda ma‘lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi <sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 314 б.

<sup>2</sup> Бухаркина М.Ю. Разработка учебного проекта. – Москва, 2003. – 146 с.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

B.Xodjayevning fikricha, ta'limiy xarakterdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

“O'quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita <sup>1</sup>.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, loyiha nafaqat bir fan (masalan, adabiyot) doirasida, balki fanlararo (bir qancha fanlarning mavzulari integratsiyasi asosida) shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

N.Yu.Paxomova o'quv loyihasini loyihaviy faoliyatga doir maxsus ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga imkon beradigan ta'lim, tarbiya, rivojlantirishning integrativ didaktik vositasi sifatida talqin qiladi:

- maqsadni belgilash va faoliyatni rejalashtirish;
- zarur axborotlarni izlab topish, tanlash va axborot olamidagi kerakli bilimlarni o'zlashtirish;
- tadqiqot o'tkazish (analiz, sintez, farazlarni ilgari surish, detallashtirish va umumlashtirish);
- faoliyat natijalari yuzasidan taqdimot o'tkazish;
- o'z-o'zini tahlil qilish va refleksiya <sup>2</sup>.

Loyiha metodi texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida bir nechta faoliyat bosqichlariga ega. Bizning tadqiqot predmetimizga tatbiqan

---

<sup>1</sup> Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. – СПб.: «Два Три», 2000. – 162 с.

<sup>2</sup> Хужамбердиева Ш.К. Таълим босқичларида Эркин Воҳидов ижоди ва ҳаётини ўргатиш усуллари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Наманган, 2019. – 163 б.

metod quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tayyorlov (maqsadni aniqlashtirish), manbalarni tanlash, materiallarini o'rganish va rejalashtirish, bajarish, taqdimot va refleksiya. Bizning tajribaviy loyihamizning borishini bayon qilishdan avval shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Sh.Xo'jamberdiyeva tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf adabiyot darslarida o'quv loyihasini qo'llash tajribasi yoritib berilgan. Shuning uchun biz o'zimiz ishlab chiqqan loyiha tahlilini uning tajribasi bilan taqqoslaymiz. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, agar Sh.Xo'jamberdiyeva adabiyot darslari jarayonida loyiha ta'lim texnologiyasidan foydalangan bo'lsa, biz auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida mazkur texnologiyadan foydalanishga harakat qildik.

Birinchi bosqich – tayyorlov. Bu juda qisqa, biroq juda mas'uliyatli bosqich. O'qituvchi o'quvchilarda loyiha mavzusiga qiziqishni hosil qiladi, muammoni shakllantiradi. Natijada muammodan kelib chiqib, maqsad va vazifa aniqlashtiriladi. Sh.Xujamberdiyevaning qayd etishicha, shunday mavzularni taklif etish lozimki, birinchidan qiziq va dolzarb bo'lsin. Biz mazkur fikrga qo'shilgan holda, mavzu tanlashda yana bir mezonni qo'shishni istar edik: adabiy materialning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari.

Sh.Xo'jamberdiyeva qayd etib o'tganidek, 9-sinfda “Erkin Vohidovning hayoti va ijodi” mavzusi o'tiladi. Loyihani ishlab chiqish uchun sinfdagi o'quvchilar yetti guruhga ajratilgan. O'qituvchi o'zining o'quvchilari bilan birgalikda o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yishgan: 1) o'quvchilarni qiziqarli intellektual faoliyatga jalb etish; 2) o'rganilayotgan materialni tushunish va chuqur tahlil qilish.

Biz tadqiqot doirasida amalga oshirilgan “Jonli asar” loyihasi doirasida kichik loyihani “She'riy alʼmanax” deb nomladik. Mazkur mavzu tasodifiy tanlanmadi. Monitoring jarayonida biz zamonaviy o'quvchilar deyarli she'r o'qishmasligini aniqladik (birinchi kurslarda – 15 %, ikkinchi kurslarda 8 % o'quvchi she'r o'qishini ma'lum qilgan). Shuning uchun biz akademik litsey o'quvchilari orasida she'riyatga qiziqishni uyg'otish maqsadida mazkur mavzuni tanladik.

Adabiy kechani tayyorlash bir oyda amalga oshiriladi. Biz o'quvchilarni faollashtirish uchun butun guruhni loyihani bajarishga



jalb qildik. Shuni qayd etish kerakki, mazkur bosqichda o‘quvchilarning faoliyati tashkil etiladi, ya'ni guruh shakllantiriladi. Shuning uchun mavzulardan birini tanlab o‘quvchilar ixtiyoriy ravishda guruhlarga birlashishdi. Uchta guruh shakllantirildi.

O‘quvchilariga quyidagi mavzular taklif etildi: “Falokatli urush yillar” (“Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlab”); “Vatan nimadan boshlanadi?”; “Bizni buncha qiynama, sevgi!”.

Shuni qayd etish kerakki, biz o‘z oldimizga quyidagi pedagogik maqsadlarni qo‘ydik: birinchidan, o‘quvchilarning kitobxonlikka doir qarashlarini kengaytirish, she'riy asarlarni o‘qishga qiziqish hosil qilish; ikkinchidan, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish; uchinchidan, o‘quvchilarni intellektual faoliyatga jalb etish; to‘rtinchidan, nutqiy, shu jumladan, omma oldida chiqish qilish ko‘nikmalarini rag‘batlash.

Mavzu, maqsad e'lon qilinib, guruh shakllantirib olinganidan so‘ng, o‘quvchilar loyihaning ikkinchi bosqichiga o‘tishdi – manbalarni tanlash. O‘quvchilarga barcha guruhlarning ishiga tegishli va har bir tanlangan mavzuga bevosita taalluqli adabiyotlar ro‘yxati taqdim etildi. Tavsiya etilgan manbalarni tanlashda yodnoma hamda xat, noma shaklida yozilgan asarlarga alohida e'tibor berildi. Bunda taklif etilgan manbalarning akademik litsey kutubxonasida mavjudligi ham hisobga olindi.

Loyihaning uchinchi bosqichi o‘zida materialni o‘rganish va rejalashtirishni aks ettirdi. U o‘z ichiga “ishni bajarish rejasini tuzish, loyihaning o‘zini tizimlashtirish”ni qamrab oldi. Sh.Xo‘jamberdiyeva har bir loyiha a'zosi uchun individual ish rejasini va bajarish muddatlarini tuzgan, shuningdek, materialni tanlash jarayonini nazorat qilib borgan. Bizning vaziyatda guruh dastlab materialni o‘rganishga kirishdi. Ya'ni o‘quvchilar maktab kutubxonasiga borishdi, taklif etilgan materialni izlashdi, shuningdek, qo‘shimcha manbalarni tanlashdi. Guruhiy maslahatlarda loyiha a'zolari o‘quvchilarga tanlangan va qayta ishlangan materiallarni ko‘rsatib olishdi, keyin navbatdagi bajariladigan ishlar uchun reja tuzishdi, ya'ni materialni yaxlit ko‘rinishda birlashtirish, ishni rasmiylashtirish, taqdimot qilish variantlarini aniqlash, ishni yakunlash, shuningdek, vazifani bajarishning taxminiy vaqtini ko‘rsatishdi. Shuni aytib o‘tish kerakki, ishning mazkur bosqichida

biz ayrim o'quvchilarning zarur ma'lumotni konspekt qila olmasligiga duch keldik. Bizning vazifamiz tanlangan materiallarni ko'rib chiqish va uning asosiy jihatlarini ajratish, izohlovchi savollar berish orqali o'quvchilarga yordam berishdan iborat bo'ldi. Mazkur bosqichda o'qituvchining ishtiroki o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining rivojlanganligi bilan bog'liqlikda turlicha bo'lishi mumkin.

Loyihaviy faoliyatning to'rtinchi bosqichi ishni bajarishdir. Mazkur jarayonda loyihani o'quvchining mustaqil o'zi bajarishini nazorat qilish lozim, bu tadqiqotchilik faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mazkur bosqichda o'quvchilarning faolligi yuqori darajada bo'ladi. N.Yu.Paxomova qayd etib o'tganidek: "bu yerda o'qituvchi ishtirok etmaydi", ya'ni "oddiy kuzatuvchi"ga aylanadi. Biroq o'quvchilarning qobiliyati bilan bog'liqlikda o'qituvchi mazkur bosqichda so'nggi o'rinni egallamaydi, u qiyinchiliklarga duch kelgan alohida o'quvchilar yoki guruh uchun maslahatchi rolini bajaradi. Loyihani bajarish ikki bosqichda amalga oshadi: 1) ishni o'zini yozish; 2) loyihani rasmiylashtirish.

Loyihaning beshinchi bosqichi – himoya. Bu loyihaviy faoliyatning asosiy maqsadlaridan biridir. U ishni yakunlash, boshqalar tomonidan va o'z-o'zini baholash uchun zarur. Bir qarashda butun ish jarayoni loyihaning so'nggi variantni yozishga yo'naltirilgandek ko'rinadi. Biroq himoyada nafaqat qo'lyozmaning o'zi, loyihalash jarayoni, faoliyatning amalga oshirilishi – bu o'quvchilarning intellektual faolligi, ularning ijodkorligi va mustaqilligi ham baholanadi. Ya'ni loyiha ustida ishlash natijalari fikriy faoliyat jarayoni, ma'lumotlarni to'plash, mavjud bilimlarni qo'llay olish, muammoni hal etish va ishning yakuniy variantini ishlab chiqish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

### **III BOB. O‘QUVCHILARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

#### **3.1-§. O‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari natijalari**

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari adabiy ta'lim jarayonida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish ularning kitobxonlikka qiziqishlarini oshirish, badiiy adabiyotga shaxsiy munosabatini qaror toptirishga imkon berdi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga qamrab oldi:

- tajriba-sinov bosqichlarini aniqlashtirish;
- tajriba-sinovni o'tkazish uchun nazariy ma'lumotlar, mavzular, matnlarni tanlash;
- adabiy mavzularni o'rganish tizimida tajribaviy darslarning o'rni aniqlash;
- maqbul ish metod va vositalarini tanlab olish;
- natijalar monitoringi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda biz quyidagi tamoyillarga asoslandik:

- tadqiqot muddatining davomiyligi;
- turli tadqiqot natijalarini taqqoslash;
- alohida holatlarda tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishiga muntazam tuzatishlar kiritib borish.

O'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishning yakuniy bosqichida kitobxonlikka qiziqishlarini shakllantirishga psixologik-pedagogik yondashuv asosida tadqiqot metodlari aniqlashtirildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda asosiy metod sifatida pedagogik eksperiment belgilandi. Bundan tashqari quyidagi metodlardan ham foydalanildi:

- tajriba va nazorat guruhleri o'quvchilarida kitobxonlik kompetentsiyalarining shakllanganlik darajasini taqqoslashga imkon beradigan qiyosiy tahlil metodi;
- auditoriyadan tashqari jarayonda o'quvchilarning mustaqil o'qishini tashkil etish jarayonini modellashtirish;

- anketa;
- kuzatish;
- tashxis;
- suhbatlar.

Tajriba ishlari tabiiy sharoitlarda, ya'ni o'quv jarayonining borishiga ta'sir ko'rsatmasdan odatdagi dars shaklida o'tkazildi.

Badiiy asarlarni o'rganishga doir nazariy xulosalarga doir tajribaviy nazoratni tashkil etish asosida tadqiqotning maqsadi va aniq vazifalari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning maqsadi ilmiy izlanish asosini tashkil etuvchi farazlarni (o'quvchilarning gender xususiyatlarini hisobga olish asosida o'quvchilarning mutolaa yo'nalishi va motivlarini aniqlash uchun muntazam monitoringini o'kazish; mustaqil o'qish darslarida zamonaviy ta'limiy texnologiyalaridan (loyihaviy faoliyat) foydalanish; o'quvchilardagi qadriyatlar tizimini o'zgarishini hisobga olgan holda mustaqil o'qish uchun zamonaviy badiiy asarlarning tavsivaviy ro'yxatini oqilona tanlash) tekshirishdan iborat etib belgilandi. Biz asosiy e'tiborni o'quvchilarda kitobxonlikka qiziqishni tarkib toptirish orqali mutolaa madaniyatini rivojlantirishga qaratdik. Ana shu maqsad bilan tajriba-sinov uchun bog'liqlikda adabiy va umumiy rivojlanish darajasi bir xil akademik litsey o'quvchilari tanlandi. Biri tajriba va ikkinchisi nazorat guruhi sifatida belgilandi, zamonaviy o'quvchining kitobxon sifatida shakllanish tizimi tekshirildi.

Guruhlarni tayyorlashda asosiy farq sifatida birinchidan, tajriba guruhlarida adabiyot bo'yicha mustaqil o'qish mashg'ulotlari mazmuniga tuzatishlar kiritildi; ikkinchidan, o'quvchilarning adabiyotga shaxsiy munosabatini rivojlantirish maqsadida maqsadga yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish aniq belgilab olindi. Nazorat guruhlarida an'anaviy o'qitish amalga oshirildi. Tajribaning variativ ob'ekti sifatida o'quv materiali mazmuni va hajmi, ta'lim texnologiyasi belgilab olindi. Bir xil shart-sharoitga ega o'quv jarayonini tashkil etishga o'zgartirish kiritilmadi. Darslarning borishi va o'quvchilarning ishlari tizimli ravishda qayd etib borildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari o'spirin-kitobxonning didi va yoshi bilan bog'liq nuqtai nazarlarining murakkablashuvini hisobga olib, adabiyot o'qituvchisi uning uchun yuqori o'rinda turuvchi

axloqiy-estetik ehtiyojlarni rivojlantirish lozimligini ko'rsatdi. Mazkur jarayonda o'spirinlar uchun adabiyotlarni tanlashda quyidagi muhim jihatlar: ularda o'qilayotgan asarlarning mavzusi, uslubiyoti, an'anaviy syujetli-kompozitsion yechimlarining yangilanishiga yordam beradi, badiiy asarlarni yuksak darajada idrok etish malakasini tarkib toptiradi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida tadqiqot natijalari tahlil qilindi va tizimlashtirildi. Tajriba-sinov ishlari so'nggida o'quvchilarda adabiy malakalarni rivojlantirish, badiiy asarlarni idrok etish darajasining yakuniy natijasi taqdim etildi. Tajribaviy ta'limning alohida bo'g'inlariga tuzatishlar kiritildi.

Yakuniy natijalarni matematik qayta ishlash yordamida quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:

- o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlanganligining boshlang'ich va yakuniy darajalari, ularni rivojlantirishning ijobiy dinamikasi haqidagi ma'lumotlar;
- 2 kurslarda o'tkazilgan adabiyot fani bo'yicha yozma imtihon natijalari.

Tajriba va nazorat guruhlarida o'quvchilarida mutolaa madaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun qayta monitoring o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilgan anketa savollari dissertatsiyaning 1.3-paragrafida keltirib o'tilgan. Agar 1 kurs tajriba va nazorat guruhi o'quvchilarida mutolaa yo'nalishlari taqqoslanganda bir xil ko'rsatkichlar ko'zga tashlansa, 2 kurs tajriba guruhi o'quvchilarida zamonaviy o'zbek yozuvchilari va shoirlarining asarlarini o'qishga qiziqish yuqori ekanligiga guvoh bo'lish mumkin (3.1.1-jadvalga qarang).

### 3.1.1-jadval

Tajriba boshida o'quvchilarning mutolaa yo'nalishlari (foiz hisobida)

Mutolaa yo'nalishlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Mumtoz adabiyot	21%	18%
XIX asr chet el adabiyoti	19%	17%
XX asr o'zbek adabiyoti	28%	26%
Jahon adabiyoti	17%	14%
Zamonaviy adabiyot	37%	29%

### 3.1.2-jadval

Tajriba soʻngida oʻquvchilarning mutolaa yoʻnalishlari (foiz hisobida)

Mutolaa yoʻnalishlari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Mumtoz adabiyot	34%	19%
XIX asr chet el adabiyoti	32%	18%
XX asr oʻzbek adabiyoti	42%	27%
Jahon adabiyoti	29%	15%
Zamonaviy adabiyot	51%	30%

Asar mualliflarini tanlashda ham nazorat guruhlarini bilan taqqoslanganda tajriba guruhlarida sezilarli oʻzgarish koʻzga tashlanadi. Oʻquvchilar XIX-XX adiblaridan Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Odil Yoqubov, Pirmuqol Qodirov, Said Ahmad kabilarning asarlarini oʻqiganliklarini qayd etib oʻtishgan. Tajriba guruhi oʻquvchilari mutolaa qilgan asarlar orasida zamonaviy oʻzbek yozuvchilari va shoirlari nomlari koʻpchilikni tashkil etadi: Tohir Malik, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Oʻtkir Hoshimov, Sirojiddin Sayyid, Ulugʻbek Hamdam, Iqbol Mirzo va h.k.

Tajriba va nazorat guruhi oʻquvchilarining qoʻshimcha adabiy bilimlarni egallaganlik darajasini aniqlash uchun Ulugʻbek Hamdamning “Muvozanat” romaniga kengaytirilgan taqriz yozish topshirigʻi berildi hamda badiiy matnni tahlil va talqin qilish uchun quyidagi mezonlar belgilab olindi:

- janr xususiyatlarining oʻziga xosligini belgilay olish;
- mualliflik nuqtai nazari va uning ifodaviy usullarini aniqlash;
- kompozitsiyaning oʻziga xosliklarini ajratish;
- romanga umumiy baho berish va h.k.

3.1.3-jadval natijalari qoʻshimcha adabiy bilimlar va mutolaa koʻnikmalarini egallaganlik darajasini aks ettiradi. Natijalar tahlili badiiy asarning janr xususiyatlarini aniqlash koʻnikmasi nazorat guruhiga qaraganda tajriba guruhida yuqori ekanligini koʻrsatadi (88,5% va 57,7%). Mualliflik nuqtai nazari va romanga umumiy baho berish masalalari boʻyicha ham oʻsish koʻrsatkichlari yaqqol koʻzga tashlanadi (76,9% va 30,8%; 61,4% va 29,2%). Bu esa tadqiqot davomida tajriba guruhlarida bilimlarni mustahkamlash, koʻnikma va

topshiriqlar tizimini takomillashtirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish imkonini berdi.

### 3.1.3-jadval

Mutolaa ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi (foiz hisobida)

Mutolaa ko'nikmalari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Kompozitsiyaning o'ziga xosliklarini ajratish	69,2%	58,3%
Mualliflik nuqtayi nazari va uning ifodaviy usullarini aniqlash	76,9%	30,8%
Janr xususiyatlarining o'ziga xosligini belgilay olishi	88,5%	57,7%
Romanga umumiy baho berish	61,4%	29,2%

Guvohi bo'lganimizdek, tajriba guruhi o'quvchilari ko'proq zamonaviylik bilan bog'liq mavzularni tanlashadi, nazorat guruhlariga qaraganda yozgan ishlarining kirish va xulosa qismida ulardan namuna sifatida foydalanishadi. Biz tomonimizdan tanlangan metodika adabiy ta'limning yakuniy bosqichida o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish jarayonida kitob o'qishga qadriyatli munosabatni tarkib toptirishga imkon berishiga ishonch hosil qilish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan yozma imtixon (insho) natijalari qiyosiy tahlil etildi (3.1.4-jadvalga qarang).

### 3.1.4-jadval

Adabiyot fanidan o'tkazilgan yozma imtixon natijalari

Guruhlar	O'quvchilar soni				
		"5"	"4"	"3"	"2"
Tajriba	175 – 100	45,5	154	106,75	0
	%	26	88	61	0
Nazorat	155 – 100	15,75	70	176,75	8,75
	%	9	40	101	5

Olingan natijalarni umumlashtirish maqsadida quyidagi mezonlar bo'yicha tajriba va nazorat guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil etildi (3.1.5-jadvalga qarang).

## 3.1.5-jadval

## O'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlanganligining mezon ko'rsatkichlari

Mezonlar	Asoslovchi bosqich		Nazorat bosqichi	
	TG*	NG**	TG*	NG**
Bilish faolligi	47%	39%	67%	55%
Asarni chuqur o'rganish	45%	37%	72%	56%
Bilimlarning tizimliliigi	55%	48%	74%	57%
Emotsional munosabat	59%	51%	81%	59%
Ijodkorlikka intilish	63%	55%	90%	60%
Og'zaki va yozma bayon qilish	56%	54%	86%	61%

Izoh: TG\* – tajriba guruhi; NG\*\* – nazorat guruhi.

Olingan natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, agar tajribagacha adabiy bilimlar tizimga solinmagan, epizodik xarakter kasb etdi, tajriba-sinovdan so'ng o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi sezilarli darajada o'sdi. Bu esa, tayanch va qo'shimcha adabiy bilimlar rivojida ijobiy tendentsiyalarning mavjudligidan guvoh beradi. Tadqiqot jarayonida asosiy ko'zga ko'rinadigan quyidagi tendentsiya kuzatildi: tajriba guruhlarida maxsus tadqiqotni o'tkazish orqali o'quvchilarning qo'shimcha adabiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi o'sdi, bilish faolligi oshdi, nazariy bilimlar va amaliy tajribani o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishildi.

Tajriba guruhi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- auditoriyadan tashqari o'qish darslariga jalb etish va zamonaviy mualliflarning asarlarini mustaqil o'qishga tavsiyalar berish;
- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda noan'anaviy texnologiyalar va qo'shimcha adabiy ta'lim shakllaridan samarali foydalanish;
- tajribaviy ta'lim sharoitida o'qitishni tashkil etilishi va kitobxonlik uchun qulay muhitning yaratilganligi.



## XULOSA

Adabiy ta'limda o'quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish muammosi nafaqat uning ijtimoiy ahamiyati, balki nazariy asoslari va amaliy shart-sharoitlariga ham bog'liq. Ijtimoiy shart-sharoitlar o'quvchi-yoshlar o'rtasida kitob o'qishga qiziqish darajasining sezilarli ravishda kamayganligi, jamiyat rivojining ma'lum ob'ektiv sabablari bilan aloqadordir. Nazariy asoslarga esa, yosh va pedagogik psixologiya, badiiy idrok etish va badiiy ijodkorlik psixologiyasiga doir tadqiqotlar, ta'limda kitobning roli, adabiy ta'lim rivoji bilan bog'liq muammolarni kiritish mumkin.

2. O'quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi aynan mazkur yosh davrida san'atga, adabiyotga estetik munosabatning mustahkamlanishi, o'spirinlik yoshining adabiy rivojlanishga ijobiy ta'siri bilan bog'liqdir.

3. Psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar va metodistlar mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq etib o'tishmoqda: o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish – bu maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, o'zida bir qancha bosqichlarni, shu jumladan, o'qishga rahbarlik qilishning puxta o'ylangan va asoslangan tizimini talab etadi. Mazkur tizim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: kitobxonlik qiziqishlarini o'rganish (monitoring); dastlabki rejalashtirish; kitoblarni tavsiya qilish; o'quvchilarning mustaqil o'qishini nazorat qilish, sinfdan tashqari o'qish, sinfdan tashqari o'qish materiallari bo'yicha yozma ishlar; sinfdan tashqari o'qishning turli shakllaridan foydalanish.

4. Maqsadga muvofiq tarzda kuzatuvlar olib borish zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'proq javob beruvchi tadqiqot metodi sifatida monitoringni tanlash imkonini berdi. Mazkur shakl o'quvchilarning mutolaa yo'nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlilini o'tkazish va quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi: o'quvchilarning mutolaa yo'nalishlari yaxlit olganda ko'proq adabiyot dasturidagi mavzular bilan bog'liq; o'spirin yoshdagi o'quvchilar o'qishni afzal ko'radigan kitoblar orasida badiiy saviyasi

past asarlar mavjud; mutolaa yoʻnalishini tanlashga ta'sir etuvchi omillar orasida ba'zan mazkur faoliyatni shubha ostiga qoʻyadigan tengdoshlar jamoasi ustunlik qiladi; avvalgi yillarga qiyoslaganda hozirgi vaqtda baho olish uchun oʻqish xohishining oʻrnini yangi bilimlarni oʻzlashtirish uchun mutolaa qilish istagi egallagan.

5. Gender tafovutlarni oʻrganish tadqiqotning yangi aspektini oʻzida aks ettirdi. Gender tavofut oʻquvchilarning kitob oʻqishga qiziqishlariga ham taalluqli boʻlib, tadqiqot jarayonida oʻspirin yoshdagi oʻgʻil va qiz bolalar oʻqishni afzal deb bilgan kitoblarni tanlashda sezilarli farqlar kuzatildi.

6. Kitobxonlik qiziqishlaridagi gender farqlarni oʻrganish oʻquvchilarga shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv muammosini hal etish orqali ularning mustaqil oʻqish jarayonlariga rahbarlik qilish, oʻgʻil va qiz bolalar uchun alohida oʻqish tavsiya etiladigan kitoblar roʻyxatini tuzish, mutolaa yoʻnalishini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ularning ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

7. Ta'limni modernizatsiyalash bilan bogʻliqlikda oʻquvchilarni adabiyotga oshno etish masalasi soʻnggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa adabiy ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarini qoʻllashning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi. Qoʻyilgan maqsadga erishish yoʻllaridan biri sifatida izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatini yoʻlga qoʻyish, muammoli vaziyatlarni hal etish orqali oʻquv jarayonini amalga oshirish imkonini beradigan loyiha texnologiyasini qoʻllash koʻzda tutilgan. Ta'limda loyiha texnologiyasini qoʻllash oʻqituvchiga oʻquvchilarning bilish faolligini oshirish va bir paytning oʻzida ma'lum bir shaxsiy sifatlarni rivojlantirish imkonini beradi.

8. Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni amalga oshirish doirasida yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, adabiyotga his-tuygʻu, chuqur idrok va kechinmadoshlilik bilan munosabatda boʻlish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

9. Monografiyadan Oliy ta'lim, akademik litsey va umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 10-11 sinf oʻquvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslangan va amaliy yoʻnaltirilgan kontseptsiyasi sifatida foydalanish mumkin.

10. O'spirin kitobga turli-tuman, u yoki bu sabablar ta'siri ostida murojaat qiladi. Mutolaa madaniyati darajasini ko'p jihatdan kitob tanlash, yaxlitlikda o'qish motivlari belgilab beradi. Mutolaaga ehtiyoj, motivatsiya va qiziqishning mustahkam o'zaro aloqadorligini ta'minlash yosh kitobxonni shakllantirish va rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi.

11. O'quvchilarning mutolaaga qiziqishi qiziqishning maxsus shakllaridan birini aks ettiradi. Bilishga qiziqish axborotni o'zlashtirish va qayta ishlashdan iborat. Voqeliklar jarayoniga ishtirok etishga qiziqish insonni boshqa odamlarning tuyg'ulari bilan hamroh bo'lishiga imkon beradi. Qiziqishning mazkur ikki turi badiiy asarni o'qish jarayonida o'zaro uyg'un tarzda namoyon bo'ladi.

12. O'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning ustuvor tamoyili sifatida gender tafovutlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil o'qishni tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash gender tafovutlarni ham hisobga olish taqozo etadi.

13. Muammo doirasida o'rganilgan maxsus adabiyotlar tahlili o'quvchining kitobga qiziqishini shakllantirishga ko'plab ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sir etishi ko'rsatdi. Ularning orasidagi eng muhim omillar qo'yidagilar: jamiyatda kitobxonlik va mutolaa madaniyatining keng targ'ib qilinishi; ommaviy axborot vositalari (televideniye, Internet); shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy muhiti sifatida oila; akademik litsey va ijtimoiy institutlar; ta'lim muassasalari kutubxonalari va bolalar kutubxonalari; tengdoshlari, do'stlari, o'rtoqlari; ommaviy o'qishni tashkil etish bo'yicha o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar.

14. Mutolaa madaniyatini rivojlantirish jarayoni kitobxon-o'quvchida fanga doir bilimlarni o'zlashtirish va qo'llash, ularni o'zlashtirishning yangi shakllarini egallash, shuningdek, kitobxonlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga yo'naltirilgan faollikni tarkib toptirishni talab etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishning yetakchi maqsadi va tarkibiy asosi sifatida maxsus tashkil etilgan kitobxonlik faoliyatini rivojlantirish, asarni idrok etish va tushunishga o'rgatish tashkil etadi.

15. Adabiy ta'lim jarayonida badiiy asarlarni o'qib-o'rganish samaradorligi maqsad va vazifalarni aniqlashtirish, mazkur jarayon tamoyillari, shart-sharoitlari, mezonlarini belgilash, didaktik ta'minotni ishlab chiqish, kutiladigan natijalarni oydanlashtirishni talab etadi. Ana shu sababli tadqiqot doirasida adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi ishlab chiqildi.

16. Adabiyot fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etishning an'anaviy turlari bilan birga, uning yangi va samarali usullarini qo'llash metodikasini takomillashtirishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. O'quvchilarning mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etishning samarali usullaridan biri – loyihaviy faoliyatdir.

17. Loyiha metodi o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasining tarkibiy qismi sifatida bir nechta faoliyat bosqichlariga ega. Bizning tadqiqot predmetimizga tatbiqan mazkur metod quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi: tayyorlov (maqsadni aniqlashtirish), manbalarni tanlash, materiallarini o'rganish va rejalashtirish, bajarish, taqdimot va refleksiya.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 6-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 13 yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 13 sentyabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018 yil 12 maydagi PQ-3721-son Qarori / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 15 may.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yi 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori.

6. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-4354-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.06.2019 y., 07/19/4354/3275-son.

8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

## **II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar**

### **1) Milliy nashrlar**

10. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua. I qism. / B.To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

11. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua. II qism. / B.To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

12. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua. I qism. / B.To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018 – 200 b.

13. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua. II qism. / B.To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018 – 200 b.

14. Авлоний А.Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б

15. Бебаҳо хазина. Методик-библиографик қўлланма. Тузувчи Н.Алаутдинова. – Тошкент: Алишер Навоий номли Ўзбекистон Миллий кутубнаси нашриёти, 2007. – 40 б.

16. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 38 б.

17. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

18. Йўлдошев Қ. “Адабиёт ўқитиш методикаси” фанидан маърузалар матни. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2010. – 120 б.

19. Йўлдошев Э. Кутубхонада болалар ўқишига раҳбарлик қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 128 б.

20. Йўлдошев Э. Кутубхона ва ёш китобхон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 200 б.

21. Матчон Сафо. Китоб ўқишни биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 140 б.

22. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 112 б.

23. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан., 2007. – 215 б.
24. Тўхтабоев Х. Болалар адабиётига чанқоқлик // Болалар олами: Тўплам. К.2. – Тошкент, 1989. – Б. 20-25.
25. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 157 б.
26. Хасанов Ш. Бадиий асарнинг ўқув таҳлилида аналитик ёндашув // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2017 – №12-сон. – Б.9-12.
27. Чиниева С.А. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмирлар маданиятини шакллантириш. – Тошкент, 2006. – 26 б.
28. Ўзбек адабиёти: 6-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма / Р.Турсунов, М.Акрамова, С.Махсумханов – Б.: Аркус, 2018. – 112 б.
29. Қаюмхўжаева Ё. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Тошкент: ТДМИ, 2007. – 48 б.
30. Ғаниева Б.И. Бошланғич синф ўқувчиларида кутубхоначилик библиография билимлари тарғиботи. – Тошкент, Фан ва технологиялар маркази, 2006. – 34 б.
31. Ҳусанбоева Қ.П. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 365 б.
32. Шодмонова Ш.С. Талабаларда мустақиллик тафаккурини ривожлантириш ва ривожлантириш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 176 б.

## **2) Xorijiy nashrlar**

33. Amanda Lenhart. Writing, Technology and Teens. – Washington: Pew Internet and American Life Project, 2008. – 180 p.
34. Асмус В.Ф. Чтение как труд и творчество // Вопросы теории и истории эстетики. – М., 1999. – С.62-72.
35. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Наука, 1995. – 504 с.
36. Бодрова Н.А. Методика организации и проведения уроков внеклассного чтения по литературе в старших классах средней школы. – Москва: Просвещение, 1991. – 353 с.

37. Божович Л. И. *Личность и ее формирование в детском возрасте*. – СПб.: Питер, 2008. – 398 с.

38. Бородина В. А., Бородин С. М. *Мотивация в структуре чтения // Чтение детей и подростков: мотивы и потребности: сб. статей и учеб. метод. материалов*. – СПб.: ЛЕМА, 2005. – С. 39-45.

39. Бухаркина М.Ю. *Разработка учебного проекта*. – Москва, 2003. – 146 с.

40. Бутенко И.А. *Читатели и чтение на исходе 20 века: социологические аспекты*. – Москва: Наука, 1997. – 132 с.

41. Вилюнас В.К. *Психология эмоциональных явлений*. – Москва: Изд. МГУ, 1996. – 366 с.

42. Герцен. *Без чтения нет настоящего образования, нет и не может быть ни вкуса, ни слога, ни многосторонней шири понимания; Гете и Шекспир равняются целому университету. Чтением человек переживает века...* [Изоматериал]: [плакат] / худож. С. А. Бройдо, Д. Г. Цирин. – Москва: Книга, 1991. – 1 л.

43. Гофман И. *Представление себя другим в повседневной жизни / Пер. с англ. и вступ. Статья А.Д. Ковалева*. – Москва: «КАНОН-пресс-Ц», «Кучково поле», 2000. – 304 с.

44. Гуревич С.А. *Организация чтения учащихся старших классов*. – Москва: Просвещение, 1994. – 206 с.

45. Денисова С.А. *Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению*. – 2008. – С. 30-32.

46. Збарский И. С. *Внеклассная работа по литературе (IV–VIII): пособие для учителя / И. С. Збарский, В. П. Полухина*. – М.: Просвещение, 1991. – 208 с.

47. Иванова С.В. *Формирование у учащихся эмоционально-ценностного отношения к творчеству А.С. Пушкина // Сборник «Материалы Международной научной конференции «А. С. Пушкин и мировая культура»*. – Москва: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1999. – С. 263-265.

48. Йоханн Петер Эккерман. *Гёте билан гурунглар // Жаҳон адабиёти*. – Тошкент, 2012. – №12. – Б.68-93.

49. Корман Б. О. *Избранные труды по теории и истории литературы / Б. О. Корман*. – Ижевск: Изд-во Удм. ун-та, 1992. – 235 с.



50. Коханова В.А. Технологии и методики обучения литературе: учеб. пособие для бакалавров / ред.: В.А. Коханова. 2-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2016. – 249 с.
51. Леонтьев А.Н. К теории развития психики ребенка// Хрестоматия по возрастной психологии. – Москва: ИПП, 1996. – 700 с.
52. Лавлинский С.П. Технология литературного образования. Коммуникативно-деятельностный подход: Учеб. пос. для студентов-филологов. М.: Прогресс-Традиция; ИНФРА-М, 2003. – 384 с.
53. Лессинг Д. Золотая тетрадь. – СПб.: Амфора, 2009. – 734 с.
54. Мокина М. Чтение – основа грамотности // Этносфера. – Москва: 2008. – № 12. – С. 21-22.
55. Мейлах Б.С. Процесс творчества и художественное восприятие. – Москва: Наука, 1995. – 480 с.
56. Маслоу А. Психология бытия. Пер. с англ. О.О. Чистякова. Рефл-бук, Ваклер, 1997. – 304 с.
57. Мещерякова, Н. Я. О формировании читательских умений на уроках литературы (К постановке вопроса) / Н. Я. Мещерякова, Л. Я. Гришина. Литература в школе. – 1991. – № 3. – С. 29–42.
58. Павлова А.С. Мотивы чтения в типологизации читателей // Психология чтения и проблемы типологии читателей: сборник науч. трудов. – Ленинград, 1994. – С. 69-75.
59. Павлова Т.Л. Ценностные ориентации старшеклассников // Личность в мире ценностей. Тезисы докладов. — Новосибирск, НГПИ, 1994. – С. 34-36
60. Пахомова Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении: Пособие для учителей и студентов педвузов. – Москва: АРКТИ, 2003. – 112 с.
61. Педагогика: Большая современная энциклопедия / сост. Е.Ц. Рапацевич. – Минск: Современное слово, 2005. – 719 с.
62. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – Научное изд-во Большая Российская энциклопедия. – Москва: *Большая российская энциклопедия*, 2002. – 527 с.
63. Плотников С.Н. Читательская культура в России//Ното legens: памяти С.Н. Плотникова: сб.науч.тр. – Москва, 1999. – С. 46-58.

64. Полонский В.М. Словарь по образованию и педагогике. – Москва: Высшая школа, 2004. – 512 с.
65. Прозоров В.В. Читатель и литературный процесс. – Саратов, 1995. – 140 с.
66. Roberts D. F., Foehr U. G., Rideout V. Generation M: Media in the Lives of 8 to 18 Year Olds. – Washington: Menlo Park, CA, 2005. – P. 3-4.
67. Реан А.А., Баранов А.А. Факторы стресса устойчивости учителей// Вопросы психологии. – Москва, 1997, №1. – С. 45-55.
68. Rokeach M. The role of values in public opinion research // The Public Opinion Quarterly. Vol. 32. No. 4. – P. 547-559.
69. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2010. – 713 с.
70. Собкин В.С., Писарский П.С. Изучение круга чтения у старшеклассников // Вопросы психологии. – Москва, 1994. - № 5. – С. 43-57.
71. Словарь по социальной педагогике: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Авт.-сост. Л.В. Мардахаев. – Москва: Академия, 2002. – 368 с.
72. Суворова Е.П. Формирование интеллектуально-речевой и читательской культуры школьников: междисциплинарный подход: науч.-метод. пособие / Е. П. Суворова, М. П. Воюшина, Е. А. Купирова. – СПб.: ООО «Книжный Дом», 2008. – 248 с.
73. Тихомирова И.И. Великое переселение в мир духовности // Библиотека. – Москва, 2002. – № 2. – С.41-43.
74. Толстой Л.Н. Круг чтения. Афоризмы и наставления. – Москва: Академия, 2013. – 980 с.
75. Фрейд З. Энциклопедия психоанализа. – Москва, 1996. – 402 с.
76. Хрестоматия по курсу «Основы гендерных исследований» / Ред. О.А.Воронина. – Москва, 2000. – 216 с.
77. Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. – СПб.: «Два Три», 2000. – 162 с.
78. Шмидт А.В. Мотивы и мотивация посещения библиотеки // Науч. и техн. библиотеки. – Москва, 2003. - № 5. – С. 46-54.
79. Эко У. Искусство и красота в средневековой эстетике / У. Эко. – СПб.: Алетея, 2003. – 252 с.

80. Януш Корчак. Любовь к ребенку. – СПб.: ПИТЕР, 2014. – 340 с.
81. Westhoff G. Fertigkeit Lesen. Goethe-Institut, Muenchen, 1997. – 176 p.
82. Grzesik J. Textverstehen lernen und lehren. Stuttgart Klett, Verlag fur wissen und Bildung, 1991. – 405 p.
83. Ehlers S. Lesen als verstehen. Zum verstehen fremdsprachlicher literarischer texte und zu ihrer didaktik. Gesamthochschule Kassel (Chk), 1992. – 112 p.
84. Willenberg H. Zur Psychologie literarischen Lesens. Paderborn, 1998. – 300 p.
85. Burns A. Reading practices: From outside to inside the classroom // TESOL Journal. 2003. – No12 (3). – P.18–23.
86. Dorn L.J., Soffos C. Teaching for deep comprehension: A reading workshop a approach. Portland, ME: Stenhouse, 2005. – 200 p.
87. Ehlers S. Lesen als verstehen. Zum verstehen fremdsprachlicher literarischer texte und zu ihrer didaktik. Gesamt-hochschule Kassel (Chk), 1992. – 112 p.
88. Genette G. Paratexts. Thresholds of Interpretation. (tr. J.E.Lewin) Cambridge: CUP, 1997. – 453 p.
89. Grzesik J. Textverstehen lernen und lehren. Stuttgart Klett, Verlag fur wissen und Bildung, 1994. – 405 p.
90. Ortlieb E. Theoretical Models of Learning and Literacy Development. Emerald Group Publishing, 2014. – 280 p.

### **III. Lug‘atlar**

91. Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 2008. – 195 б.
92. Фалсафа қисқача изоҳли луғат /Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов ва бошқ. Масъул муҳаррир: А.Жалолов. – Тошкент, Шарқ, 2004. – 384 б.

### **IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

93. Абдулазизов А. Академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида мутолаа маданиятини шакллантириш жараёнининг социологик таҳлили: соц.фан.ном. ... дисс. Автореф. – Тошкент, 2010. – 30 б.
94. Бектурсынова Л. Х. Педагогик фасилитация воситасида талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини такомиллаштириш.

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy). ...дисс. – Нукус, 2019. – 165 б.

95. Болибеков А.А. Адабий таълим орқали ўқувчилар ахлоқий фазилатларини такомиллаштиришда ҳадислардан фойдаланиш: Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.

96. Ганиева Б.И. Кутубхоналарда болалар ўқиш маданиятини тарбиялашнинг педагогик имкониятлари. Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 160 б.

97. Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. Автореф. – Самарқанд, 2019. – 52 б.

98. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари док. дисс... – Тошкент, 1993. – 364 б.

99. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий методик асослари: пед. фан. док. дисс... – Тошкент, 2007. – Б.14-51.

100. Салиева З.Т. Педагогика коллежи ўқувчиларининг маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантириш – касбий ижтимоийлаштириш омили сифатида: педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2010. – 146 б.

101. Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Социология фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – 56 б.

102. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 314 б.

103. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларининг мустақил фикрлашини ривожлантиришнинг дидактик асослари (5-7 синф тарих дарслари мисолида). педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 172 б.

104. Қосимова Д.Х. Ўқувчиларда маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжини шакллантириш тизими: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy). ...дисс. – Наманган, 2019. – 179 б.

105. Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед.фан.док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 262 б.

106. Збаровская Н.В. Формирование культуры чтения в общедоступных библиотеках: Дисс...канд.пед.наук. – СПб.: 1997. – С. 156.

107. Каптан Т.Н. Формирование духовных потребностей старшеклассников в процессе урочной и внеурочной деятельности (На опыте изучения литературы): Дис. ...канд. пед. наук. – Москва, 1995. – 173 с.

108. Карсалова Е.В. Методические основы руководства читательской деятельностью школьников на уроках литературы в средних и старших классах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 1991. – 41 с.

109. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 256 б.

## **V. Илмий то‘плам, журнал ва газетадagi мақолалар**

110. Умаров А. Мутолаа маданияти – тараққиёт омили // Бетгер ўқишлари – 2003: “Кутубхона устуворлиги” давра суҳбати материаллари. – Тошкент: Миллий кутубхона, 2003. – Б. 14-22.

111. Шермухамедова С. Ўқувчининг китоб мутолаасига қизиқтиришнинг 5 усули // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2017 – №6. – Б.19.

112. Шаров Ю.В. Осознание учащимися значимости знаний — условие формирования их познавательных потребностей // Формирование духовных потребностей школьников: сборник статей / под редакцией Ю.В. Шарова. — Новосибирск: НГПИ, 1996. – С.19-29.

## **VI. Internet saytlari**

113. Абдуллаев А. Мутолаа маданияти интеллектуал салоҳиятни белгилаб беради // <https://kun.uz/13172148>.

114. Амалий конференцияда китобхон эҳтиёжини қондириш борасида таклиф ва тавсиялар берилди // <https://m.kun.uz/news/2018/11/16/amalij-konferenciada-kitobhon-etiezini-kondiris-borasida-taklif-va-tavsialar-berildi>.

115. Бек У. Бугунги болалар – эртанги кун халқининг китобхонлик маданияти қандай? // <http://qalampir.uz/news/bugungi-bolalar-28094-ertangi-kun-xalqining-kitobxonlik-madaniyati-qanday-12485>.

116. Китоб ўқишнинг 21 фойдаси // <https://zamin.uz/lifestyle/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html>.

117. Китоб ўқимаган халқ жоҳилликка маҳкум // <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.

118. Китобхонлик: анъана ва замон уйғунлиги // <https://soglom.uz/nigoh/kitobxonlik-anana-va-zamon-uynunligi>.

119. Китобхонлик маданияти // <http://navoiy-uni.uz/uz-k/content/kitobxonlik-madaniyati>.

120. Kristin Merga M. How to get teenagers to read? // <https://theconversation.com/how-to-get-teenagers-to-read-42757>.

121. Moyer E. Jessica. “Teens Today Don’t Read Books Anymore”: A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Part 1, Introduction and Methodology // <http://www.yalsa.ala.org/jrly/2010/11/comprehension-based-on-reading-modalities-part-1-introduction-and-methodology>

122. Мутолаа мўъжизаси китобхонлик маданияти – маданиятлар мағзидир // <http://betakrorbuxoro.uz/uz/2018/07/06/otvolodiev-suhbatlashdi>.

123. Орлова Э.А. Рекомендации по повышению уровня читательской компетенции в рамках Национальной программы поддержки и развития чтения // [http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend\\_obr\\_1.pdf](http://ifapcom.ru/files/publications/rekomend_obr_1.pdf).

124. Perrin A. Book Reading – 2016 // <https://www.pewinternet.org/2016/09/01/book-reading-2016>.

125. Рощеня Д.Н. Не заставить, а привить любовь к чтению // <https://azbyka.ru/deti/ne-zastavit-a-privit-lyubov-k-chteniyu>.

126. Фоломкина С. К. Аналитическое чтение, 1997. Электрон манба: [https://methodological\\_terms.academic.ru](https://methodological_terms.academic.ru)

127. Чтение. 10 советов, как привить ребёнку любовь к чтению и книгам // [https://mel.fm/chteniyе/9635178-to\\_like\\_to\\_read](https://mel.fm/chteniyе/9635178-to_like_to_read).

## MUNDARIJA

**So‘z boshi**..... 3

### **I BOB. O‘QUVCHILARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI**

1.1 O‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida ..... 8

1.2. Ta'lim jarayonida o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish muammosining o‘rganilishi..... 20

1.3. O‘quvchilarida kitobxonlik va mutolaaga qiziqishning rivojlanganlik holati..... 33

### **II BOB. TA'LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY-TEKNOLOGIK TIZIMI**

2.1. O‘qish motivlari, kitob tanlash mezonlari hamda mutolaa madaniyatini rivojlantirish omillari va gender xususiyatlari ..... 45

2.2. Adabiy ta'limda o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi ..... 62

2.3. O‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi..... 82

### **III BOB. O‘QUVCHILARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

3.1. O‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari natijalari..... 91

**Xulosa** ..... 97

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati** ..... 101

**Turakulova Oqila Amirkulovna**

**ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILAR MUTOLAA  
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

**Monografiya**

“BOOK TRADE 2022” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami:

№ 5367-8862-c2e6-5680-7f26-1082-7829. 04.07.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 18.12.2023.

“Times New Roman” garniturasida. Qog'oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog'i 6,3. Shartli bosma taboq 6,5.

Adadi 50 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Saodat ko'chasi, 17-1.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.